

**ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTUR-QURILISH INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 721.03.

ISAKOVA DILNOZA ERKINOVNA

Aqlli bog‘lar va ularni O‘zbekiston hududida tadbiq etish

5A581001 – Landshaftlar arxitekturasini mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:_____

Professor v.b. Rahimov K.D.

Samarqand - 2016

KIRISH

*“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz
va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l
qo‘ymaydi”*

I.A.Karimov [2, 13b.]

Ma'lumki, insonlar salomatligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Inson salomatligini tiklashda, uning ham ma'naviy, ham jismonan sog'lom bo'lishida, shuningdek, uning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlashda va shaharlarimiz ekologiyasini yaxshilashda bog'-parklarning ahamiyati katta. Bu soha hamma davrlarda ham odamlarning e'tibor markazida bo'lgan. Masalan, bog'lar yaratish tendensiyasini qadimgi davrdan boshlab, o'rta asrlarda jumladan, Amir Temur va temuriylar davridayoq Samarqand va Hirot shaharlari va ularning atroflarida bunyod etilgan o'nlab "CHorbog'"lar misolida ham kuzatishimiz mumkin. "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda asavvur etib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi" [3, 30 b.]. SHunday ekan, biz ota-bobolarimizdan bizga ma'naviy, madaniy meros bo'lib qolgan an'anaviy bog'larimizni tiklashda zamonning eng ilg'or tajribalarini qo'llagan holda xalqimizga taqdim etishimiz kerak.

Bugungi kunda shahar va qishloqlarimiz hududida sobiq Ittifoq davrida bunyod etilgan bog'-park san'ati namunalari mavjud. Ularning ayrimlari qayta qurilib, ta'mirlanib, halqqa xizmat qilmoqda. Ammo bog'larning aksariyat qismi e'tiborga muxtoj va zamonaviy bog'-istirohat bog'larining talablariga etarlicha javob bermaydi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi 2010 yil 29 dekabrda 322 - sonli "2011 – 2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning

faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorini qabul qilindi [1]. Ushbu qarorning qabul qilinishi bu soha rivojiga davlat miqyosida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgani bilan boshqa sohalar kabi, bog'-istirohatchilik san'atida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Unutilgan, toptalgan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni o'rganish va tadqiq qilish, bog'-istirohatchilikdagi ilg'or tarixiy tajribalarimizni amaliyotga tatbiq qilish, ularni zamonaviy, jahon tajribalari bilan muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar qo'yilmoqdaki, bular bugungi kunda nafaqat landshaft arxitektoralari va me'morlar uchun, balki shaharsozlar, ekologlar, bog'bonlar, dizaynerlar, muhandislar uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Zamonaviy arxitektura dunyosida "Aqlli bog'"lar konsepsiyasi asosida bir qator amaliy loyihalar amalga oshirilgan. O'zbekiston respublikasida bu mavzu hali chuqur o'rganilmagan va amalga oshirilgan loyihalar juda kam.

I.A.Karimovning "Mustaqillikni erkinlik to'g'risidagi shiorlar bilan emas, balki siyosiy, iqtisodiy ma'naviy mazmun bilan to'ldirish kerak" [2, 11 b.] degan so'zlari bizga ilhom bag'ishladi va milliy arxitekturamizda oqsab turgan yo'nalish "Aqlli bog'"lar konsepsiyasini bugungi kunda jadal sur'atlarda qurilayotgan istirohat bog'lariga tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqishga bel bog'ladik.

"Aqlli bog'"lar ishlatish yuzasidan qulayligidan tashqari, avvalambor, o'zining energo resurslarni tejashi bilan ko'proq ahamiyatga ega. "Aqlli bog'"lar konsepsiyasi bugungi kunda dunyo bo'yicha global muammo bo'lgan energiya resurslarini tejash va o'z-o'zini energiya bilan ta'minlash muammolarini echishga qaratilgan. Bu kabi loyihalarni amalga tatbiq etish yurtimizda energiya resurslarini tejatishiga, yangi energiya manbaalarini yaratishga yordam beribgina qolmay, yurtimiz byudjetiga salmoqli natijalar ko'rsatadi.

"...Ayni paytda "Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak" degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki

amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim” [3, 7 b.] ekan, biz bu tadqiqot ishimizda bog‘-parklar qurilishining kelajakdagi ko‘rinishini ilmiy asoslar bilan yoritib berdik.

Tadqiqotning ob’ekti va predmeti. Tadqiqot ob’ektiga Evropa, AQSH, Rossiya, O‘zbekiston zamonaviy bog‘lari kiradi. Tadqiqot predmeti esa, “Aqlli bog” larni hayotga tadbqiq etish usullarini tashqil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi – “Aqlli bog”lar konsepsiyasini O‘zbekistonda loyihalanayotgan yangi, zamonaviy bog‘larida tadbqiq etish usullarini yoritib berish. Tadqiqot ishida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- Tarixan shakllangan bog‘larning tashkillashtirish yo‘llarini o‘rganish;
- Qadimiy davr bog‘-parklarini tadqiq etish;
- O‘rta asr bog‘-parklarini tadqiq etish;
- Zamonaviy bog‘-parklar tajribalarini o‘rganish;
- Evropa, AQSH, Rossiya zamonaviy bog‘larining tajribalarini o‘rganish;
- “Aqlli bog”larning funksiyasi va obodonlashtirish tizimini tadqiq etish;
- Gidroponik bog‘larni o‘rganish;
- Zamonaviy O‘zbekiston bog‘ – park san’atida Aqlli bog‘-parklarning tadbqiq etish usullarini ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi. Ishning asosiy ilmiy yangiligi O‘zbekiston sharoiti uchun miliy urf-odatlar va an‘naviy qurilish texnologiyalarini saqlab qolgan holda yangi loyihalanadigan bog‘-parklarga “Aqlli bog”larni moslashtirish yo‘llari yoritib berilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Bog‘ yaratish bizga azaldan ota-bobolarimizdan meros o‘tgan qadriyatdir. Amir Temur ham o‘rta asrlarda bog‘ yaratgan ekan, u tiklagan “CHorbog” o‘z davri uchun eng ilg‘or g‘oyalarning namoyandasi bo‘lgan. SHunday ekan, biz tadqiq etayotgan ilmiy

ishning asosiy masalasi ham bugungi kunda bog‘-park yaratish san‘atidagi eng ilg‘or texnologiyalarni mahalliy iqlim sharoitiga mos jihatlarini aniqlab ularni O‘zbekiston bog‘-parklariga tadbiq etish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharxi. Ushbu mavzu doirasida, xususan, bog‘-parklar, ularning kelib chiqish tarixi haqida ularda qo‘llanilgan an‘anaviy me‘morchilikning jihatleri haqida biz ko‘pgina adabiyotlarda uchratishimiz mumkin. Ularga: P.SH.Zaxidovning kitobi "Me‘mor san‘ati" kiradi. Ushbu kitobda muallif o‘rta asr xususan, temuriylar davridagi bog‘-park qurilishi texnologiyalari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirgan.

P.SH.Zaxidov "Me‘mor olami" kitobida o‘zbek milliy me‘morchiligida ishlatilgan terminologiya yig‘ilib, har bir terminga izoh berilgan.

Klavixov R.G. "Dnevnik puteshestviy ko dvoru Timura v Samarkande v 1403-1406 gg." ushbu kitob o‘rta asrda mashhur bo‘lgan Ispan sayyohi Rui Gonsales de-Klavixovning Samarqand shahriga sayohati va Amir Temurning saroyiga tashrifi haqida aytib o‘tilgan.

Pugachenkova G.A "Arxitektura epoxi Ulug‘beka" kitobida muallif Mirzo Ulug‘bek davridagi me‘morchilik san‘ati, xususan Ulug‘bek qurgan bog‘lar haqida ma‘lumot keltirilgan.

Uralov A.S., Ho‘jixonov M. "Temuriylar ma‘naviyati va madaniyat" kitobi Amir Temur va temuriylar davrida ma‘naviyat va madaniyatning renessans davri haqida va xususan ma‘naviyat va madaniyatni targ‘ibot qilish uchun qurilgan binolar haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Qodirova T.F, Mamatmusaev T.SH. "Temuriylar davridagi shaharlarning arxitekturaviy-rejaviy tuzilishi" ilmiy maqolasida mualliflar temuriylar davridagi shaharsozlik masalalari, temuriylar shaharlarining o‘ziga xos jihatleri va o‘rta davr bog‘dorchiligi haqida ma‘lumot keltirishgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Mavzuga doir ilmiy va maxsus adabiyotlarni, me‘moriy – shaharsozlik hujjatlarini, qonun va farmoyishlarni o‘rganish, respublika miqyosida shahar va viloyatlar hududida

qurilgan barcha bog‘lar, Amir Temur va temuriylar davrida qurilgan ob‘ektlarini grafoanalitik tahlil qilish va ilmiy umumlashtirish, ularni naturada kuzatish, fotofiksatsiya qilish, oldingi davrdagi ob‘ektlar bilan taqqoslash asosida kompleks tadqiqot o‘tkazish va dissertatsiyada qo‘yilgan vazifalarni echish va shu yo‘l bilan maqsadga erishishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Uning nazariy ahamiyati shundaki, mazkur dissertatsiya materiallari respublikamizda va xorijda barpo etilgan bog‘-parklarning xususiyatlariga to‘g‘ri baho berish, uning kelajakdagi taraqqiyot yo‘llarini aniqlash imkoniyatlarini beradi va ayniqsa, zamonaviy bog‘-parklarning landshaft echimi masalalariga doir bukletlar tayyorlashda, ilmiy asar, monografiya, o‘kuv qo‘llanma va darsliklar yozishda, hamda O‘zbekistonning zamonaviy arxitekturasini va shaharsozligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyatini - respublika miqyosidagi landshaft arxitekturasining kelajakdagi me‘morchilik va shaharsozlik echimlarini yaxshilashdagi roli va o‘rnida, dissertatsiyada bayon qilingan me‘moriy tajribalar, yutuq va kamchiliklarga asoslangan va tayangan holda zamonaviy me‘morchilik taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlarining yaratilganligida ko‘rish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi dissertatsiya – kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, uning asosiy qismining hajmi 74 bet, umumiy hajmi 94 bet, 19343 ta so‘zni tashkil qiladi.

Tadqiqotning birinchi bobi qadimgi va o‘rta asr davlatlarining bog‘-park san‘atiga bag‘ishlangan. Unda Misr, Eron, Mesopotamiya va Turonda bog‘-parklarning shakllanish tarixi batafsil yoritib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi xorijiy davlatlarda bugungi kunda zamonaviy bog‘-parklar barpo etishning amaliy tajribalari sinchkovlik bilan tahlil qilib chiqilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi O‘zbekistonda “Aqlli bog‘-park”larning tadbiq etish yo‘llari deb nomlanadi. Ushbu bobda “Aqlli bog‘”larning funksiyasi

va obodonlashtirish tizimi, gidroponik bog'larga tavsif berilgan va zamonaviy O'zbekiston bog' – park san'atida "Aqlli bog'-park"larning tadbiq etish usullari yoritib berilgan.

1 BOB

QADIMGI VA O`RTA ASR DAVLATLARINING BOG`-PARK SAN`ATI

1. Misrning qadimgi bog'-park san'ati

Bugungi kun me'morchiligi qadimgi davlatlarning landshaft arxitekturasini, xususan, bog'-parkchilik san'ati haqida to'liq ma'lumotlarga ega emas. Bu sohadagi ma'lumotlar, asosan, qadimiy qo'lyozmalarga, shartli ravishda chizilgan kamyob tasviriy san'at asarlari va arxeologik topilmalarga asoslangan. Mavjud tarixiy ma'lumotlar bog'-park san'ati insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining ilk davrlaridayoq paydo bo'la boshlaganidan darak beradi. Bog' yaratish tajribalari boshda insonlarga manfaatli, ya'ni foydali xo'jalik bog'larini yaratish ehtiyojlariga asoslangan. Shu boisdan xo'jalik bog'larining bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgilari jamiyatning yuqori tabaqadagi a'zolariga tegishli bo'lgan. Faqat badavlat kishilar, hukmdorlar va ibodatxonalargina foydali xo'jalik bog'laridan tashqari istirohat uchun mo'ljallangan me'moriy bog'lar yaratish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Xalq ommasiga mo'ljallangan istirohat bog'lari esa judakambo'lgan.

Fanga ma'lum bo'lgan eng qadimgi bog'-parklarning yer yuzining dastlabki sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Misr hududida vujudga kelgan. Sug'orilish inshootlari va qurilmalarining rivojlangan tizimiga asoslangan, yuksak saviyadagi Misr bog'dorchiligida o'lkaga xos issiq iqlim sharoitidan, jazirama quyosh taftidan saqlanish uchun quyuq soyali soya-salqin bog'lar yaratishga ehtiyoj paydo bo'lgan. Mevali daraxtlar kam soya berishi sabab Misr bog'lariga chinor, tameriks, yunon yong'og'i, tol va boshqa manzarali, quyuq soya beruvchi daraxtlar ekilgan [9].

Milloddan avvalgi IV-III asrlardagi Misr bog'lari haqida noyob ma'lumotlar saqlangan. Eramizdan avval II asr o'rtalarida Misrda boshlangan Yangi podsholik davri naqsh – bezaklari va barelyeflarida turli xil hovuzlar, bir-biridan farq qiluvchi ekinlar va daraxtlarga, to'g'ri burchakli muntazam

me'moriy rejaga ega bo'lgan xususiy bog'larning tasvirlari uchraydi. Bunday bog'lar hukmdorlar saroylari qoshida-«saroy-bog'lari», badavlat uylarning ichki hovlilarida, ibodatxonalar atrofida, shahar tashqarisidagi villalar qurilgan. Saroylar va ibodatxonalar esa, odatda, Nil daryosining toshqin suvlari yetib bormaydigan tepalik va qirlarda joylashtirilgan. Ehtimol shu sababdan Qadimgi Misr qirlari etaklarida pog'onali (ko'p qavatli) bog'lar vujudga kelgan. Saroylarning ichki hovlilari tekislanib, to'g'ri burchakli tekis bog'lar shakllantirilgan. Bog' chetlariga katta daraxtlar, ichkariga esa pastroq daraxt va butalar ekilgan. O'rtada katta hovuz, uning yoniga soyabon qurilgan.

Misr bog'larining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ularda hovuzlar, gulzorlar, mevali va manzarali daraxtlar, uzumzor va sabzavotzorlarning aralash eqilishidir. Daraxt qatorlari orasidagi bo'sh joylarga sabzavot va gullar ekilgan. Tokzorlar uchun esa alohida maydon ajratilgan. Eng qadimgi podsholik davrlaridayoq toklarni ko'tarib qo'yish uchun ustunli-to'sinli qurilmalar ishlatilgan. Keyinchalik ularga zeb berilib, tokzorlar bilan o'ralgan soyabonlar vujudga kelgan. Bog'lar to'rida saroy binosi joylashgan. Bog' darvozasidan saroy eshiklarigacha bo'lgan yo'lakda tok bilan yopilgan xiyobon tortilgan. Bog' markazi va alohida qismlarining markazlarida hovuzlar joylashgan. Shahar qal'alari, ehromlar, bog'lar va ulardagi hovuzlar asosan to'g'ri to'rtburchakli muntazam simmetrik tarx asosida qurilgan [9].

Misrdagi Yangi podsholik davrida har bir ibodatxona o'z bog' xo'jaligiga ega bo'lgan. Mentuxoteplar (eramizdan avval 2160-2000 yillar) ibodatxonalari qoshidagi bog'lar hamda qirolicha Xatshepsut bunyod etgan bog'-park bunga misol bo'la oladi. Malika Xatshepsug Punt davlatiga ekspedisiya yubortirib, u yerdan xushbo'y qatron ishlab chiqariladigan balzamli terak va misrliklarga juda ma'qul bo'lgan boshqa ekzotik o'simliklarni qutilarga solib tomiri bilan keltirishni buyurgan.

Misrlik bog'bonlar marvaridgul, shabbo'y va atirgullarni madaniylashtirib ko'paytirganlar. Bog'larga bulardan tashqari qalampirgul, butako'z, moychechak, lolagul, nilufar va papirus gullari ekilgan. Gullardan tantanalarni

badiiy bezashda ham keng foydalanilgan, gulchambar va marjonlar yasashgan. Misrda qirolicha Kleopatra (eramizgacha 69-30 yillar) podsholigi davrida atirgullarning ko'plab turlari o'stirilgan.

Fivadagi yirik saroy bog'lari bir necha qismlarga bo'linib, har bir alohida hovlidagi bog' devorlar bilan ajratilgan. Bu devorlar bog' muhitini quruq shamollardan saqlashga yordam bergan. Bog' ichida to'g'ri burchakli turli xil hovuzlar joylashtirilib, ularda suvo'simliklari, o'rdaklar va baliqlar suzib yurgan. Bosh bino ya'ni, saroy bog' kompozitsiyasining markaziy o'qida joylashib, unga toklar osilgan xiyobon orqali borilgan. Bog'ning barcha tarkibiy qismlari - hovuzlar, soyabonlar, tokzorlar, gulzorlar, ochiq pavilonlar sug'orish tizimiga asoslangan yaxlit muntazam kompozitsiyaga bo'ysindirilgan.

Fir'avn Tutmos IV va Amenofis III lar davrida (eramizgacha 1555-712 yillar) misrliklar forslar bilan yaqin madaniy aloqada bo'lishgan. Ayrim manbalarda o'sha davrlardagi Misr bog'lariga fors bog'larning yechimlari ijobiy ta'sir ko'rsatgan deyilgan. Biroq, eng qadimiy pog'onasimon bog'lar ilk bor forslar yurtida emas, balki Qadimgi Misrda vujudga kelganligi ma'lum.

Arxeologik manbalar ham Qadimgi Misr bog'lari simmetriyaga, muntazam rejaviy va nafis landshaft yechimiga asoslanganligini tasdiqlaydi. Hukmdorlar bog'larining ko'pchiligi bo'ylama o'qli simmetrik rejaga ega bo'lib, o'q uzra joylashgan bog' imoratlari va ochiq yashil muhitlar kontrasti va perspektivasini tashqil etgan. Boy zodagonlar saroylari qoshidagi bog'lar hududi 6-7 ming m² bo'lsa, oddiy shaharliklarning hovli bog'lari bor-yo'g'i 100 m² ga yaqin bo'lgan.

Fir'avn Ramzes III (eramizdan avval 1198-1166 y.) davrida kichik daraxt va butalarni katta dekorativ sopol idishlarga ekish tajribasi orttirilgan. Uning davrida 514 ta bog' bunyod etilgan. Bu bog'lar dekorativ ahamiyatdan tashqari ehromlarni o'simlik yog'i, sharob, yog'och, xushbo'y o'tlar bilan ta'minlab turgan. Qadimgi Misrda eng sevimli gullar nilufar va papiruslar hisoblangan. Misrliklarda ehromlar va saroylar atrofidagi bog'larga zabt etilgan xorijiy o'lkalardan keltirilgan ekzotik daraxt va butalar ekish odati bo'lgan [8].

Misrdagi eng uzun sfinkslar xiyobonining uzunligi 3,5 qilometr ga yaqin

bo'lgan. Shahar ko'chasining landshaft muhitini yechish tajribasi ham Qadimgi Misrda ushbu davrga taaluqlidir. Shimoldan janubga qarab bir necha qilometrga cho'zilgan Axetaton shahrining shoh ko'chasi esa har ikki tomonidan baland sfinkslar bilan emas, balki palma daraxtlari bilan chiroyli bezatilgan. To'g'ri chiziqli metrik qatorda joylashgan sfinkslarni palma daraxtlari bilan almashtirish o'sha davr shahar shoh ko'chalarining landshaft yechimida katta yangilik hisoblagan.

Shuning uchun ham Misrdagi bu qadimiy xiyobonning kompozision uslubi keyinchalik hayotda keng qo'llana boshlangan.

Shunday qilib, Qadimgi Misrda landshaft me'morchiligi, xususan bog'-park san'ati muntazam rejaviy yechimga asoslangan holda shakllangan. Shahar landshaftini shakllantirishda ko'cha va xiyobonlar muhim rol o'ynagan. Keng, to'g'ri chiziqli, uzun ko'chalar saroylar va ibodatxonalarni bir-biriga bog'lagan. Landshaft me'morchiligining kompozisiyalari aksariyat tekis hududlarda shakllangan.

Qadimgi Misr bog'-parklarining turlariga ibodatxonalar, saroylar, villalar va shaharliklarning hovlilari atrofi va ichida tashqil etilgan bog'lar kirgan. Ko'chalar bo'ylab sfinkslar yoki palmalardan shakllangan uzun xiyobonlar o'tkazilgan. Ibodatxonalarga kirib keluvchi ko'chalar sfinkslar qatorlari bilan bezatilgan [8].

Qo'llanilgan o'simliklar turlariga mahalliyliklaridan tashqari chetdan keltirilgan ekzotik o'simliklar: anjir, anor, atirgul, yasminlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, xushbo'y hid va mevalaridan moy chiqaruvchi daraxtlar yuqori baholangan. O'tli o'simliklardan chinnigul, butako'z, ko'knorlar keng tarqalgan.

Funksional va memoriy-kompozision yechimiga qarab, Qadimgi Misr bog'lari uch turga bo'lingan:

- “xo'jalik bog'lari” – jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, maishiy va moddiy sharoitini yaxshilash ehtiyojlariga asoslangan, erkin rejaviy tarzda bo'lgan;
- “saroy-bog'lari” – yuqori darajadagi mehmonlar bilan tanishuv

marosimi va mehmonlarning dam olib xordiq chiqarishiga mo'ljallangan. Bu bog'lar to'g'ri burchakli muntazam me'moriy rejaga ega bo'lib, ulardagi hovuz va ko'kalamzorlar asosan to'g'ri to'rtburchakli, simmetrik rejalarda ishlangan;

- "shahar hovlilari va ibodatxonalar bog'lari" – ular ibodatga kelganlarning ibodatdan keyin dam olib xordiq chiqarish uchun hamda ibodatxonaning xo'jalik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu bog'lar ham yukorida aytib o'tilgan «saroy-bog'lari» singari, geometrik tartibli simmetrik kompozisiya tizimida shakllangan.

2. Mesopotamiyaning qadimgi bog'-parklari

Mesopotamiya bog'-park san'ati tarixi uch davrga bo'linadi. Ular: shumeroakkad, ossuriya va yangi bobilliklar davri.

Shumeroakkadlar davri o'ziga xos ehromlar – zikkuratlar tarkibidagi bog'lar bilan ajralib turgan. Zikkurat pog'onali piramida ko'rinishidagi minoraga o'xshash, yirik xom g'isht va toshlardan qurilgan ko'p qavatli bino bo'lib, eng yuqori qavatda ehrom joylashgan. Mesopotomiyaning eng qadimgi (eramizdan avval XXIV-XXIII asrlar) bog'lari Ure tog'idagi zikkuratning pog'onasimon bog'lari hisoblangan. Ularda turli xil o'simliklar o'stirilgan. Ehrom pog'onalari keng bo'lib, uning atrofidagi landshaft erkin tarzda rivojlangan. Bu landshaftni ochiq maydonlar va suv havzalari tashqil qilgan [6].

Ossuriylar davrida ikki xil bog' bo'lgan. Birinchisi, piramida ko'rinishida bo'lib, binoning o'zida, piramida pog'onalarida daraxtlar va o'simliklar o'stirilgan. Ikkinchisi, kattaligi bilan farq qilib, hukmdurning ov va hordiq chiqarishiga mo'ljallangan. Bog' tarkibidagi bino atrofida ko'l yoki daryo bo'lib, hudud tabiiy shakllangan istirohat bog'lariga bo'lingan. Bu bog'lar rejasi qat'iy muntazamlikka ega bo'lmay, o'simliklar o'rmondagidek ancha erkin shakllangan.

Ossuriya va Bobilda davlat tomonidan qo'riqlanadigan rivojlangan sug'orish tarmoqlari mavjud bo'lib, ular o'simliklar o'stirish va bog'lar bunyod

etish imkonini bergan. Biroq, tarixiy manbalar bu yerdagi bog'lar Qadimgi Misr bog'laridan keyin vujudga kelganligini ko'rsatadi va rejaviy yechimi bilan farq qiladi. Bunday bog'larni bir qismi simmetrik asosda rejalashtirilgan bo'lib, ularning asosiy binolari va hovuzi bitta o'qda joylashtirilgan. Tarixiy suratlarning birida Shumer shohi Gudeaning eramizdan avval taxminan 2340 yillarda qamishli o'simliklar bilan chegaralangan tokzorlar va hovuzlar tashqil etganining tasvirlangani fikrimizni isbotlaydi. Bu parklar haqida ilk bor Ossuriyashohi Tigratpalasar I shunday ma'lumot beradi: «Kedr, qora qayin hamda bu yerga mendan oldin hyech kim ekmagan daraxt navlarini mag'lub etgan o'lkalarimdan olib kelib, o'z mamlakatim bog'lariga ekdim» [12].

Keyinroq esa shoh Sargon II ham o'zi qurdirgan yangi shahar Dur-Shurakindagi saroyi qoshida park bunyod etib, uni Xett mamlakatidan keltirilgan turli xil ekzotik o'simliklar va tog' mevalari bilan bezatgan. Sargonning o'g'li Sanxerib ham Ossuriyaning avvalgi poytaxti Nineviyada saroy qurib, uning yonida park bunyod etgan va parkda turli xil bog'lar, shuningdek, mevali daraxtlar hamda uzumzor tashqil qilgan. Bog'lar kanal orqali sug'orilgan va unda uzumlar, mevali daraxtlar, xushbo'y o'tlar, gullar, sarv, palma va boshqa o'simliklar yayrab o'sgan. Parkda, shuningdek, noyob hayvonlar ham saqlangan. Sun'iy suv havzalari va turli shakllardagi pavilonlar qurilgan.

Ossuriyaliklar ham shumeroakkadlarga o'xshab zikkuratlar qurganlar. Zikkurat pog'onalarining sathi ko'kalamzorlashtirilgan. Ayrim mutaxassislarning taxminicha, parklardagi tuproqdan sun'iy qirliklar yasalgan va tepa qismiga soyabon o'rnatilgan. Baland tepalik ushbu zikkurat ta'sirida vujudga kelgan. Asosiysi binoning qoshida hovuz qurilgan va ular bir o'qda joylashtirilgan. Zikkuratga xos landshaft va me'moriy yechimlar qadimgi bobilliklarni, bog'lar rivojlanishining ikkinchi bosqichida, ehtimol «osma» va «mo'jaz» bog'lar bunyod etish g'oyasiga undagan.

Dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan «osma bog'lar» nafaqat Qadimgi Bobilning, balki, butun Sharqning landshaft me'morchiligi va

dizaynidagi eng go'zal namunalardan biri bo'lgan. Bu bog'lar Frot daryosining sohilida joylashgan bo'lib, Gerodotning fikricha, Ossiriya qirolichasi Semiramida (eramizdan avval IX asr) nomi bilan bog'langan. Tarixchi Strabon esa bu bog'larni shoh Navuxodonosor II (eramizdan avval 605-562 yillar) o'zining Midiyalik sevikli xotini Nikotrisa uchun qurdirgan deb yozgan. Bog'lar dastlab malika Semiramida (aslida Shaamuramat) davrida qurilgan, keyinchalik, Navuxodonosor tomonidan rivojlantirilib qayta ishlangan bo'lishi mumkin [14].

Bog'lar Frot daryosidan charxpalak yordamida chiqarilgan suv bilan sug'orilgan. Har bir qavatga favvoralar, qavatlararo shalolalar ishlangan. Qavatlarni ko'tarib turuvchi yo'g'on ustunlarning ichki qismi bo'shatilib, ularga tuproq solingan va dov daraxtlar ekilgan. Daraxtlar tabiiy tartibda ya'ni, yuqori qavatlarga dov-daraxtlar, pasti pog'onalarga esa pastqamlari ekilgan. Palma, sarv, kedr, shamshod, chinor va eman daraxtlari qadimdan Ossiriya va Bobilga xos bo'lgan. Bog'ning eng yuqori qavatiga go'zal va nafis ko'shk-saroy ishlanib, undan butun shahar husni, bog'ning quyi qismi, Frot daryosining suvi va sohili ko'rinib turgan. Qavatlardagi ustunlar orasidagi bo'shliqlar bezatilib, usti yopiq oromgoh ayvonlar tarzida xizmat qilgan.

Qadimgi Iyerusalimdagi shoh Sulaymon (eramizdan avval X asr) saroyi qoshidagi bog'. Manbalarda keltirilishicha, saroy qoshida ajoyib balzam bog'i bunyod etilib, unda qimmatbaho, xushbo'y o'simliklar o'stirilgan. Shohning oromgohlaridan biri ko'shk ko'rinishida qurilgan. Uni turli xil daraxtlar va metallardan ishlangan g'aroyib o'simliklar bezagan. Daraxt va o'simliklar saroy devorlarini butunlay yopgan, shohlardagi barglar esa shunchalik go'zal va nozik ishlanganki, go'yo ular doim yelpib turgandek ko'ringan.

Bunday landshaft me'morchiligining o'ziga xos bezagi tabiiy jimjimadorligi va rang-barangligi bilan kishida ajoyib taassurot qoldirgan. Boshqa manbalarga ko'ra, Sulaymon saroyining to'rtta naqshinkor hovlisi va bog'lari bo'lib, ulardagi hovuzlarda baliqlar suzgan, bog'da manzarali palma va sarv daraxtlari, anor, uzum va boshqa mevali daraxtlar va gullar o'sgan. Bog'da

tovuslar, kabutarlar va boshqa turli nafis qushlar saqlangan. Qadimgi Iyerusalimdagi bog'-parklarining turlariga ibodatxonalar, saroyla va shaharliklarning hovlilari atrofi va ichida tashqil etilgan bog'lar ham kirgan.

Shumeroakkadlar bog'lari Ure tog'idagi zikkuratning pog'onasimon bog'lari hisoblangan. Ehrom pog'onolari keng bo'lib, landshafti erkin tarzda rivojlangan. Bu landshaftni daryo va maydonlar tashqil qilgan. Bu davr o'ziga xos ehromlar – zikkuratlar tarkibidagi bog'lar bilan ajralib turgan. Zikkurat pog'onasimon piramida ko'rinishidagi minoraga o'xshash, yirik xom g'isht va toshlarda qurilgan ko'p qavatli bino bo'lib yuqori kavatida bog' tashqil qilingan.

Ossuriylar davrida bog'lar ikki xil bo'lgan. Birinchisi, piramida ko'rinishidagi bo'lib, binoning har bir qavatlarida daraxtlar va o'simliklar o'stirilgan. Ikkinchisi, kattaligi bilan farq qilib, ov va hordiq chiqarishga mo'ljallangan. Bino atrofida ko'l yoki daryo bo'lib, landshafti erkin tarzda, tabiiy rivojlangan. Bu landshaftlar rejasi qat'iy muntazamlikka ega bo'lmay, o'simliklar o'rmonlardagidek erkin shakllangan. Biroq, tarixiy manbalar bu yerdagi bog'lar Qadimgi Misr bog'laridan keyin vujudga kelganligini ko'rsatadi va rejaviy yechimi bilan farq qiladi. Bunday bog'larni bir qismi simmetrik asosda rejalashtirilgan bo'lib, ularning asosiy binolari va hovuzi bitta o'qda joylashtirilgan.

Sharq xalqlari landshaft me'morchiligi va dizaynining yana bir ajoyib namunasi shifobaxsh bog'lar, unda shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan qimmatbaho, xushbo'y o'simliklar o'stirilgan. Bunday bog'lar odatda ibodatxonalar, saroylar va shaharliklarning hovlilari atrofida tashqillashtirilgan.

Fikrimizni umumlashtiradigan bo'lsak, qadimgi Messopotamiyaning mashxur bog'lari:

- 1) Orollarda va daryo qirg'oqlarida joylashgan, muntazamlikqa asoslangan «osma bog'lar»;
- 2) Simmetriyaga asoslangan, binolar (ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar uylari) qoshidagi yoki hovlilari ichida joylashgan bosh o'qda hovuz joylashtirilgan bog'lar.

3. Eronning qadimgi bog'lari

Pasargad, ya'ni eronlar shahri, Persepolisdan 45 km uzoqlikda, Eronning janubida, Fors viloyatida joylashgan. U yerda saroylar, ehrom va ahamenid podshosi Kuroshning maqbarasi mavjud. Bu maqbara – kichik zikkurat ko'rinishida bo'lib, 6 qator zinalar ustida joylashgan piramida bir xonadan iborat, xonada marhum sharafiga duolar o'qilgan. Holbuki taxminlarga ko'ra, Kurosh yonma – yon yotgan 2 ta yassi tekis toshlar tagiga dafn etilgan. Bu maqbara bilan yonma-yon tarzda Naqshi Rostam joylashgan bo'lib, unda (miloddan avvalgi 600-yilgi) qoya yozuvlari va toshdan yo'nilgan inson tasvirlari bor. Naqshi Rostamning ikki tarafida joylashgan tosh qabrlar bu yodgorlikning ahamiyatini yanada oshiradi, bu joyning Ahamoniylar imperiyasining poytaxti – Persepolisga yaqin joylashgani tarixiy yodgorliklarning ko'pchiligini umumiyashtirib o'rganishni taqozo etadi.

Kurosh, midiylar hukmronligini og'dardi, lekin ularning an'alarini saqlagan holda Ahamoniylar sulolasiga asos soldi. Yangi yil marosimlari va bahor bayrami Ahamoniylarning asosiy bayrami deb e'lon qilingan. Ba'zi bir tarixchilar fikricha, Persepolis bu bayramlarni har yili nishonlash va Ahamoniylarning nechog'lik buyukligi va ulug'vorligini butun dunyoga namoyon etish uchun barpo etilgan.

“Apadana” Persepolisning bosh saroyi bo'lib, kvadrat ko'rinishida qurilgan, har tomoni 60 metrdan iborat. Bu saroyi bezatishda asosan yog'och katta rol o'ynagan. Abstrakt sarvlar va suvdagi nilufarlar devorlarda va zinalar yonlarida juda ajoyib tasvirlangan. Persepolisda bu tasvirlarning turfa rangligi va ahamiyatliligi, hududning geografik joylashuvi, qadimgi Eronda gullagan bog'lar mavjud bo'lgani haqida so'zlaydi. Bu joylarning yangi yil marosimlari va bahor bayrami tantanalari o'tkazish uchun tanlanganligi bejiz emas. Aynan shu holat Pasargad bog'ining bo'lganini va Eronda bog'lar qadimdan barpo etilganligi haqidagi yangi taxminni mustahkamlaydi.

Tarixchilar yozishiga ko'ra, taxminan uch ming yillar burun, Eronning

katta uylari hovlisida “paradis” nomini olgan bog’lar o’sgan. Bu atama keyinchalik boshqa tillarda qo’llanilgan bo’lib, “uylar hovlidagi jannat bog’i va daraxtlarni o’stirish” degan ma’noni anglatgan. “Bog” – bu eroncha so’z bo’lib, shu ko’rinishda “pexlavi” va “saadi” tillarida qo’llaniladi. Ahamoniylar podshosi Xashayyar – shox hukmronlik qilgan hududda barpo qilingan imoratlar qatorida katta bog’lar haqida ham eslatib o’tilgan. Dunyodagi turli xil dinlarda va’da qilingan “bexisht”, – ya’ni jannat, afsonaviy bog’ sifatida ta’riflangan va unga faqat to’g’ri yashagan insonlarga o’limidan keyin erishib, rohat – farog’atda bo’lishlari aytib o’tilgan [4].

Pasargadning qadimgi hududi Ahamoniylar davlatining birinchi poytaxti va Eron bog’larining birinchi namunasi bo’lgan. U kvadrat ko’rinishida barpo qilinib, bag’rida bepoyon saroylar qad ko’tarib turgan. Bunday bog’lar faqat Eronga xos bo’lib, to’g’ri chiziqli suv tarmoqlari — ariqlar tizimi asosida barpo qilingan. Birlamchi manbalarga qaraganda, kvadrat ko’rinishidagi bog’lar miloddan oldingi II ming yillikning oxirlarida kuzatilgan va bu Erondagi qurilish, madaniy sivilizasiyaning samarasi deb hisoblangan. Eron chinor, bodom, shaftoli, qaroli, pista va atirgullar vatani. Ahamoniylar sulolasining asoschisi Kir I (miloddan oldingi VI asrning birinchi yarmi) Eronning birinchi bog’boni bo’lgan. Eronning eng mashhur bog’i “Chorbog”. Keyinchalik bog’ning muayyan turini huddi shunday atay boshlagan. Uning farq qiladigan jihati – bog’ hududi to’g’ri ariqlar yordamida 4 ta qismga bo’lingan. “Chorbog” – bu Eron sivilizasiyasining dunyo bog’dorchiligiga qo’shgan hissasidir. “Chorbog” – hammasidan farqli o’laroq iqlimi issiq quruq davlatlar uchun bebaho bo’lgan suvni tejimli ishlatish namunasidir [7].

Eron qadimgi ellin sivilizasiyasi rivojiga o’z ta’sirini ko’rsatdi. Ssilladagi grek ehromi yonida Ksenofon (miloddan avvalgi IV asr) tomonidan o’stirilgan bog’ simmetrik ekilgan daraxtlari bilan Eronda mavjud bo’lgan “istirohat chorbog’lari”ni takrorlaydi. Hind sivilizasiyasi dunyoga keltirgan buddizm davrida ehromlar yonida bog’lar barpo qilina boshlangan. Yangi din bilan birgalikda Budda ehromlari yonidagi bog’lar Xitoyda, Koreyada, keyinchalik

Yaponiyada paydo bo'lgan. Eron madaniyatiga islom kirib kelganidan keyin, bunday chorbog'lar muhim ma'naviy ma'no kasb etib, yuzlab yillar mobaynida barcha joylarda barpo etilgan, gullab yashnagan jannat ramzi bo'lib xizmat qila boshlagan. Eron bog'lari turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bular: vodiylar, tepaliklar, qirg'oqlar, suv va hovlilarda barpo etilgan bog'lardir.

Bu bog'larning aksari ko'p elementlari boshlang'ich namunalariga o'xshab, g'ishtin devor, markazga yo'naltiruvchi to'rt tomonli yo'lak va gulzor maydonlardan iborat. Maxsus qurilgan ariqlardan oqayotgan suvning shildirashi chindan ham dillarga orom bergan. Bog' ichidajoylashgan, "ko'shk" deb nomlangan bino va bog'ning qoq markazida o'rnatilgan favvora Eron bog'larining xususiyatlaridan yana biridir. Bog'lar Eron adabiyotida, rangtasvirida, musiqasida, gilamchiligida Eron san'atkorlari tomonidan tabiiy go'zalligini saqlagan holda juda ajoyib tasvirlanadi. Eron bog'larini eronliklarning ruhiy e'tiqodini ko'rsatuvchi haqiqiy ramzi deyish mumkin. Qadimda Erondagi kvadrat ko'rinishidagi bog'lar asosan podshoxlar qarorgohlari atrofida barpo qilingan. Ularning tarxi geometrik shakllar ko'rinishiga ega bo'lgan. Ikki tomoniga daraxt o'tkazilgan xiyobonlar to'g'ri burchak shaklida kesishgan, ular oraliqlaridagi pushtalarga daraxtlar o'tqazilgan yoki gullar eqilib, ko'llar barpo etilgan. Eron juda ko'p tarqalgan daraxtlardan biri – chinordir.

Eronni gilamlar malikasi Vatani – "shalimar" deb ham ataydilar, yana gullar malikasi vatani – "Guliston" deyishgan. Eron nafaqat atirgullar, balki nastarin, lola, nilufar va nargislar vatani hamdir. Qadimgi Eronning poytaxti "So'za" – "Nilufar" deb nomlangan. Eron gilamchilik va bog'chilik san'ati qadimgi sharq mamlakatlarining shu san'atining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungacha saqlanib qolgan qadimgi gilamlar, gilamchilik san'atining betakror namunalari bo'lib, hozirgi kunda qarorgohlar, saroylar, yuqori saviyadagi mehmonxonalar, badavlat xonadonlar va zamonaviy villalarning bebaho bezagi bo'lib ishlatilmoqda. Qadimgi Eron bog'-parkchilik san'ati ta'sirida dunyoda ko'plab saroy bog'lari – Turkiyadagi chorbog'lar,

Ispaniyadagi mavriton bog'lari, Qrimdagi tatar xonlarining bog'lari yaratilgan. Bu bog'larda hovuzlar, favvoralar suv purkagichlar, suvli pog'onalarning bo'lishi, simmetriya uslubi va to'g'ri burchakli shakllarning borligi, bog'dagi binolarda gumbaz va ravoqlarning ishlatilishi kompozisiya yaxlitligining asosiy shartlari hisoblanadi [18].

Algambra – Granada (Ispaniya) shahrining sharqida joylashgan Granada amirligi davridagi o'ziga rom qiluvchi bog'dorchilik san'atining namunasi sifatida saqlangan. Shu qatorda Granadaning mavritan hukumdorlari saroyi ham "al – Hamra" atamasi "alvon" degan ma'noni anglatib, XI asrga borib taqaladi va qizg'ich toshdan ishlangan saroy bog'larini bildiradi.

Kir II va uning davomchilari (miloddan avvalgi 545-330 yillar) davridayoq maxsus bog'-qo'riqxonalar shakllana boshlaganligi manbalardan ma'lum. Jumladan, Qadimgi Eronda davlat tomonidan maxsus tashqil etilgan bog'-qo'riqxonalar mavjud bo'lib, ularda turli hayvonlarni saqlash, urchitish va ov qilib dam olish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buloqlar, daraxtzorlar va o'rmonlarga g'arq bo'lgan bunday bog'lar baland devorlar bilan o'ralib, ov qilish uchun maxsus burjlar va qulay joylar qurilgan. Ahamoniylar davrida va keyinchalik Sosoniylar davrida (eramizning 200-600 yy) bunday bog'lar, yukorida aytilganidek, «payridez» deb atalgan. Bunday sifatli ov bog'lari o'zining kengligi, tanlangan landshafti va go'zal tabiati bilan ajalarib turgan.

Qadimgi Eron bog'larida chinor, archa va palma daraxtlari ko'proq ekilgan. Bu bog'lar ekzotik o'simliklar, xonaki hayvonlar, hovuzlar, tabiiy havzalar, ko'shklar, ko'shk oldilari esa gulchamanlar bilan bezatilgan. Bunday bog'lar qiyaliklarda joylashtirilgan bo'lib, alohida pog'onalardan tuzilgan. Bog'lar zilol suvli buloqlar bo'lib, ularda suvli pog'onalar uyushtirilgan. Bularning barchasi bog'larga firdavsmonand manzara bergan. Bunday bog'larda hukmdorlar diplomatik uchrashuvlar o'tkazishgan. Qadimgi Eronda "Bo'ston" deb ataluvchi mevali bog'lar ham an'anaviy bo'lgan. Sa'di Sheroziyning shu nomli poemasi buning isbotidir. O'rta asr Eron bog'larining o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri- bu bog'lar barpo etilishida hovuzlarga ko'proq e'tibor qaratilganligi, ularga

dominant roli berilganligidir. Zilol suvli buloqlar va favvoralar otilib turgan bunday bog'lar Isfaxon viloyatida, ayniqsa uning Kashon shaharchasida ko'p uchraydi. Bunday mashhur bog'lar saroy bog'lari qatoridan joy olib, shoxlarga va shaxsiy mulkdorlarga tegishli bo'lgan.

4. Turonning qadimgi bog'lari

O'rta Osiyo bog'-parkchilik san'ati tarixiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar bir talay bo'lsada, ular asosan islomdan keyingi davrni, aniqrog'i XI asrdan XVIII asrlargacha barpo etilgan bog'lar tarixini qamrab olgan.

Funksional jihatdan bog'lar chet-el mamlakatlarining elchilari, olimlar, shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazishga va hordiq chiqarishga mo'ljallangan. Bunday bog'lar – qo'rg'oncha bog'lar deb atalgan.

Bu kabi bog'larni yaratish jarayonida turonliklar o'zlarining bog'dorchilik borasidagi bilimlarini oshirib borishgan. U yoki bu bog'ni tashqillashtirishga oid aniq qonun-qoidalar bo'lgan. Har bir bog' yaratilishida uning iqlim sharoitiga, maydoniga va tuproqning imkoniyatlariga alohida e'tibor berilgan. Bog'larga joy tanlaganda oqar suv: daryo yoki ariqlar oldidan tanlangan. Turonliklar sun'iy ko'llarga qaraganda doimiy oqib turadigan suv manbalarini xush ko'rishgan. Bog'bonlar mavjud tabiiy resurslardan foydalanishgan. Atrof-muhit landshaftini o'zgartirmay turib, uni gulli klumbalar, daraxtlar bilan to'ldirib borishgan. Bu kabi bog'lar atrofida biron-bir suv havzasi bo'lishiga e'tibor berilgan. Xuddi shunday bog'larda pog'onali bog'-park san'ati arxitekturasinng terassalari – pog'ona-pog'ona bo'lib turadigan yon bag'rlarda ayvonlar qurilgan. Suv havzalarining qirg'og'ida joylashgan bu orombaxsh bog'larga uzoq mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar taklif qilingan. Bog'lar qat'iy uslubda bo'lib, bir bog'ning o'zida muntazam tizim va erkin tabiat ko'rinishidagi peyzaj uslubi uchragan. Bog'ning asosiy shartlaridan biri bu tabiiylik va amaliy jihatdan qulaylik bo'lgan. Ushbu bog'larning o'ziga xosligi – gullar va mevali daraxtlar bilan birga sabzavotlar va butalarning aralash

ekilganligida bo'lgan. Bunday arxitektura komplekslari saroy bog'lari xarakteriga ega bo'lgan [5].

Saroy bog'larida sulton bir necha soat, hatto bir necha kunlab yolg'izlikda dam oladigan joylar ko'p bo'lgan. Bunday bog'ning asosiy elementi ko'shk hisoblangan. Bu bir oddiy ayvoncha bo'lishi mumkin edi, lekin sulton uchun ayvon-ko'shk arxitekturaning haqiqiy durdonalari qurilgan. Ko'shk uchun joy tanlar ekan, arxitektor atrof muhitning manzaralariga katta e'tibor bergan. Quriladigan inshoot go'yo shu yerda doimiy bo'lganday bog' muhitiga uyg'unlashib ketishi bilan birga, undan bog'ning butun hududi ko'rinib turadigan manzara ochilishi kerak bo'lgan. Albatta, bunday bog'larni favvora va baland sarv daraxtlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham arxitektorlar "atrofda suv manbai bo'lishi kerak" degan yozilmagan qoidaga qat'iy rioya qilishgan.

Hukmdorlarning shaxsiy tashabbuslari bilan bog'larga chet mamlakatlardan keltirilgan atirgullar, yasminlar, nastarinu-lolalar ekilgan. Podshoxlar lolalarni xush ko'rishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularning hukmdorlik davrlari gullar nomi bilan atalgan. Masalan: "lolalar hukmdorligi", "asmin asri" va xokazo. Qadim zamonlardan bugungi kunga qadar taraqqiy topgan O'rta Sharq mamlakatlarida bog'lar yaratish san'ati me'morchilik va shaharsozlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Masalan, Sug'diyonaning qadimgi bog'-parklari haqida antik davr mualliflari, jumladan Diodor va Kvint Kursiy Ruflar xabar beradi. Ularning yozishicha, bunday bog'lar uchun, odatda, mavjud keng yashil maydonlar, suvloq tog' oldi yaylovlari va qalin o'rmonzorlar tanlanib, ularda hatto ov paytida foydalaniladigan maxsus burjlar va imoratlar qurilgan. Bunday bog'lar ikki turga bo'lingan:

1) Hukmdorlarning dam olib hordiq chiqarishlariga mo'ljallangan bog'lar. Bu bog'lar maxsus tarh asosida qurilgan. Ular o'zlarining shakllanish omillari, egallagan joylari va tabiiy manzaralariga qarab muntazam rejali me'moriy bog'lardan bo'lgan;

2) Ov qilishga mo'ljallangan bog'lar. Bunday bog'lar tabiiy shakllanib, erkin rejaga ega bo'lib, o'rta va kichik maydonlardan tashqil topgan "chorbog'"lar atrofida rivojlangan. Bu bog'lar manzarali istirohat bog'lari turkimiga kirgan.

Ov qilinadigan bog'larda turli xil yovvoyi hayvonlar boqilgan va o'rgatilgan. Ov qilib, dam olish uchun yaratilgan bog'lar o'sha davr hukmdorlarining boylik darajasini ko'rsatib, qay tarzda yashash va dam olishlari haqida darak bergan.

Shuningdek, antik davr manbalarida Afg'onistondagi Toshqo'rg'ondan mozori-Sharifgacha bo'lgan keng yaylovlarda Amudaryoning o'ng sohiliga yaqin to'qayzorlarda qadim zamonlardagi podshohlarning hayvonlar boqiladigan va saqlanadigan ulkan bog'lari bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud. U yerda son-sanoqsiz kiyiklar va yovvoyi cho'chqalar, ular orqasidan tushgan bo'rilar to'dasi va hatto sherlar ham saqlangan. Ana shunday sherlar qo'shni Tojikistonda ham bo'lganligi haqida eramizning boshida Xitoy yilnomalarida eslatib o'tiladi. Masalan, eramizning 87 yilida Kushon elchilari Turkistondan Xitoy podshohlariga sovg'a sifatida sherlar eltgan. Taxminan shu joylarda 1256 yili Chingizxonning o'g'li Xulaguxon ham sherlarni ov qilgan. Sherlar haqida mashhur Xitoy sayyohi Marko Polo hamda XV asr mualliflari ham eslatib o'tganlar.

Tojikistondagi Mug' qasridan topilgan (VIII asr) hujjatlarining biridan Panjikent hokimi Devashtichning baland devorlar bilan o'ralgan istirohat bog'i – "paradiz"i bo'lganligi haqida ma'lumotlar topilgan. Devashtichning ushbu bog'i shahardan tashqarida, Panjikent tog'liklarida joylashgan deb taxmin qilinadi. O'sha hujjatlarda ushbu boqqa maxsus boshliq tayinlanganligi ham ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumot bog'ni qo'riqlanganligi haqida dalolat beradi. Bu esa bog' hukmdor Devashtich hayotida alohida ahamiyat kasb etganligini bildiradi.

Hayvonlarga boy, yaylovlarda ko'kalamzor bog'lar bunyod etish an'anasi O'rta Osiyoda o'rta asrlarda ham davom ettirilgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozishicha, Qoraxoniylar Shams al-Mulk (1068-1080) Buxoroga

hoqonlik qilgan davrida shaharning Ibrohim darvozasiga yaqin bo'lgan qariyb yarim farsang joyda go'zal bog' bunyod etib, ul joyga "Shamsobod" deb nom beradi. Shamsobodga tutash joyda keng o'tloq tashqil qilib, uni "qo'riq" deb ataydi. Qo'riq atrofini devor bilan o'rab, ichiga podsholikka xos qasr va kaptarxona quradi. Qo'riqda qo'lga o'rgatilgan turli hayvonlar: bug'i, kiyik, tulki va ayiqlar saqlaydi. Hayvonlarni parvarish qilib turadigan maxsus kishilar tayinlaydi [10].

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda Xorazmda ham bog'-parkchilik san'ati rivojlangan. XII asrda Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi Amudaryo vohalarida bir qator: Jend, Vazir va Shoxsanam bog'-park majmualarining vujudga kelishiga imkon yaratgan. Bu bog'lar shahardan tashqarida qulay iqlimli va ko'rkam landshaftli joylarda shakllanib, shohlarning yoz paytlari oilalari bilan yashashi va dam olishiga mo'ljallangan. Atrofi devor bilan to'silgan bu bog'lar sahni nisbatan tekis bo'lib, bog'da saroy, bog' ko'shklari, xo'jalik imoratlari, mevali bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar bo'lgan. Bog' majmuasi to'g'ri chiziqli muntazam rejaviy yechimga ega bo'lib, darvozadan kirilgach bosh xiyobon bog' markazida joylashgan asosiy bino-saroy va uning yonidagi hovuzga eltgan. Bog' sahni katta va kichik bog'chalar va chamanzorlarga bo'lingan. Bu davr bog'larining me'moriy inshootlari asosan xom g'isht, paxsa va sinchkor imoratlardan iborat bo'lib, davr o'tishi bilan buzilib ketgan. Ibn Battuta O'rta Osiyoga qilgan sayohati haqida yozar ekan, Movarounnahr sultoni Tarmashirinning (1326-1334) ham ovga mo'ljallangan bog' qo'riqxonasi bo'lganligini eslatib o'tadi. U Tarmashirinni so'ngi bor ana shu qo'riqxonasi yo'lida ko'rib, xayrlashgan va Samarqandga qarab yo'l olgan. Demak, qo'riqxona aftidan Buxoro atrofida, Samarqand yo'lga yaqin joyda bo'lgan.

Qo'riqxona bog'larni tashqil etish O'rta Osiyoda so'nggi asrlarda ham davom ettirilgan. Jumladan, Amir Temurning Bog'i Jahonnamo, Bog'i Behisht, Bog'i Taxti Qoracha va Davlatobod bog'lari ana shunday maqsadlarda foydalanilgan. Bu bog'lar egallagan hududlar va ularning maydoni Temurning

boshqa bog'lariga nisbatan ancha katta bo'lib, ularda ov uchun mo'ljallangan maxsus yovvoyi hayvonlar va parrandalar saqlangan. Masalan, Davlatobodda kiyik va qirg'ovullar saqlangan bo'lsa, Jahonnamo va Bog'i Behishtning hayvonlar uchun maxsus xonalari bo'lgan. Bog'lar uchun tanlangan joylar ov qilib dam olishga qulay, ko'ngil ochar joylar bo'lgan. Bu bog'larda ovga moslashtirilgan qurilmalardan tashqari dam olishga mo'ljallangan shohona ko'shk-saroylar ham bo'lgan. Bu esa ularning nafaqat bog'-qo'riqxona, balki bog'-saroylar vazifasini ham bajarganligidan dalolat beradi.

Qo'qon xoni Xudayorxonning ham ov uchun tashkil etilgan maxsus qo'riqxonasi bo'lgan. Miloddan avvalgi II asrlarda O'rta Osiyodagi Parfiya davlatining podshohlari o'zlari uchun saroylar qurdirib, ularning atrofini tartibli rejadagi bog'lar va suv havzalari bilan o'ragan. Demak, chorbog'lar Eron va Turonning islomgacha bo'lgan bog'lariga xos me'moriy uslubiyat bo'lgan.

Turonning qadimgi va islomgacha bo'lgan davrdagi bog'-parklarini quyidagi turlarga bo'lingan:

1) Manzarali istirohat bog'lari turkimiga kiritilgan, ov qilishga va qo'lga o'rgatilgan turli xil xayvonlarni boqishga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi bog'-qo'riqxonalar;

2) Hukmdorlarning diplomatik uchrashuvlari va mexmonlar bilan madaniy xordiq chiqarishga mo'ljallangan mo'jaz bog'lar;

3) Hukmdorlarning oila a'zolari va yaqin do'stlar bilan dam olishga mo'ljallangan, shahar tashqarisidagi bog'-saroylari (chorbog'lar) va shahar ichidagi ochiq maydonlarda bunyod etilgan muntazam rejali me'moriy bog'lar;

1 bob bo'yicha xulosa

1. FunkSIONal va memoriy-kompozitsion echimiga qarab, Qadimgi Misr bog'lari uch turga bo'lingan:

- "xo'jalik bog'lari" – jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, maishiy va moddiy sharoitini yaxshilash ehtiyojlariga asoslangan, erkin rejaviy tarzda bo'lgan;

- "saroy-bog'lari" – yuqori darajadagi mehmonlar bilan tanishuv marosimi va mehmonlarning dam olib xordiq chiqarishiga mo'ljallangan. Bu bog'lar to'g'ri burchakli muntazam me'moriy rejaga ega bo'lib, ulardagi hovuz va ko'kalamzorlar asosan to'g'ri to'rtburchakli, simmetrik rejalarda ishlangan;

- "shahar hovlilari va ibodatxonalar bog'lari" – ular ibodatga kelganlarning ibodatdan keyin dam olib xordiq chikarish uchun hamda ibodatxonaning xo'jalik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu bog'lar ham yukorida aytib o'tilgan «saroy-bog'lari» singari, geometrik tartibli simmetrik kompozitsiya tizimida shakllangan.

2. Qadimgi Messopotamiyaning mashxur bog'lari:

- 1) Orollarda va daryo qirg'oqlarida joylashgan, muntazamlikka asoslangan «osma bog'lar»;
- 2) Simmetriyaga asoslangan, binolar (ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar uylari) qoshidagi yoki hovlilari ichida joylashgan bosh o'qda hovuz joylashtirilgan bog'lar.

3. Eronning qadimiy bog'larida suvga katta ahamiyat berilgan. U hayot manbai va asosiy bezatuvchi element sifatida ishlatilgan. Eron «chorbog'»larining asosiy g'oyasi – zardushtiylikning to'rt elementi: havo, tuproq, suv, va quyosh (nur)ning uyg'unlashuvida jannat bog'ini yaratishga qaratilgan. Bog'lar hududida eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab turli davrlarda binolar, ko'shklar, devorlar bunyod etilgan, murakkab sug'orish tizimlari qurilgan. Ular muntazam, qat'iy simmetriyaga asoslangan va markaziy bosh o'qqa bo'ysundirilgan kompozitsiya asosida rejalashtirilgan. Bu bog'lar ko'proq shoirlar, faylasuflar va olimlar bilan uchrashishga va hukmdorlarning oila a'zolari bilan hordiq chiqarishga mo'ljallangan. Qiyalikda joylashgan

pogʻonali bogʻlar esa diplomatik uchrashuvlarga moʻljallangan. Oʻsha davrlarda ov qilib hordiq chiqarishga moʻljallangan, qisman “chorbogʻ”lar bilan biriktirilgan ov bogʻlar “qoʻriqxona”lar ham boʻlgan.

4. Uch turdagi bogʻ-parklar Oʻrta Osiyoda islomdan keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi va rivojlantirildi. Temuriylar davri bogʻlari, bizgacha saqlanib qolgan Buxorodagi XIX asr oxiri XX asr boshlarida barpo etilgan Sitorai Mohi-Xosa chorbogʻi va undagi baland chinorlar tagida erkin sayr qilib yurgan tovuqlar va ohular fikrimizning daliliga bir nishonadir.

2 BOB

ZA'MONAVIY BOG' PARK SAN'ATINING JAHON TAJRIBASI

1. Evropa zamonaviy bog'lari.

Zamonaviy landschaft arxitekturasini juda ko'p turlidir. ushbu ko'p turlilikni ko'rish va strukturasini tushunish uchun landschaft arxitekturasini tashkil etayotgan ochiq muhitning o'ziga xos turlarini ko'rib chiqish lozim. shu maqsadda ob'ektlarning o'ziga xos echimlarining ba'zilarini o'rganamiz. taklif etilayotgan klassifikatsiyaning beshubha aniqligiga da'vogar emasmiz, uning maqsadi murakkab landschaft me'morligi dunyosiga olib boruvchi iplarning birini ajratishdir.

Ochiq muhitning birinchi ko'rinishi-bu albatta tabiiy landschaft hisoblanadi. inson faoliyati uni hamisha o'zgartirib kelgan. Oxirgi yuz yillikgacha inson yaratgan inshootlar landschaftni buzmasdan, uni to'ldirardi. Ammo o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab landschaftni buzish butun jahonni qamrab oldi. Qurilish materiallari, ko'mir va boshqa foydali qazilmalarni vayronkorlarcha o'zgartirish natijasida qurib qolgan peyzajlar paydo bo'lib qoldi. erna oddiy xo'jalik maqsadlarida ham, ayniqsa agar u tartibsiz (stixiyali) olib borilsa, katta o'zgarishlar yuzaga kelardi.

Buzilgan landschaftlarni qayta yaratish (rekultivatsiya) ancha katta tarixga ega. 1860 yillarda Fransiyada eski tosh qazilmasi o'rniga sun'iy ko'lga ega bo'lgan Byutt – SHomon parki yaratildi, shunda yangi faoliyat – geoplastika, yoki relefni shakllantirish paydo bo'ldi. Geoplastika sun'iy suv xavzalarini yaratish bilan qo'shib ketdi. Natijada mutlaqo yangi, avval mavjud bo'lganiga kam o'xshasha bo'lgan peyzaj shakllandi. Odatda buzilgan landschaftlarni, ularga xos bo'lmagan funktsiyani maxsus tashkil etilgan, landschaft parklarini tashkil etish yoki uni o'zlashtirish uchun er egalari berishadi.

Tabiiy landschaftlarni maqsadli asrash murakkab va faktorli vazifadir. Amalda faqat oxirgi vaqtda kompyuter texnikasi asosida real loyihalar ishlab

chiqildi. Masalan, Amerika qo'shma SHtatlarida tashkil etilgan massachusetts shtati qishloq xo'jaligi rayonlari Markazi "Konnektitut daryosi vohasi rivojini boshqarish" deb nomlangan qiziqarli dasturni ishlab chiqdi. Markaz tushunarli rasmlarda qo'l urilmagan konkret peyzajlarni tartibsiz o'zlashtirish natijasida va maqsadli foydalangan holda qanay ko'rinishga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Oxirgi yillarda landshaftning keng territorial rejalashtirishga qiziqish sezilarli o'sdi. 1980 yil o'rtalarida bizning vaqtimizda amalga oshadigan Vengriyadagi Balatok ko'li rayonini landshaft, dam olish zonasiga (yoki rekratsion territoriya) aylantirish loyihasi ishlab chiqishdi. Rekratsion tizimlarini an'anaviy dam olish rayonlari – Pribaltika, Qrim, Kavkazorti va boshqa joylar uchun ishlab chiqilmoqda [13].

Ochiq hududlar muhitini shakllantirish faoliyatining ikkinchi ko'rinishi fadoliyati sifatida tabiatda va shahar muhitida kommunikatsiyalarni yaratishni aytish mumkin. Bu kommunikatsiyaning ko'proq tarqalgani – bu yo'llardir. Sun'iy inshootlar – ko'priklar, viaduklar, transportga xizmat ko'rsatish yo'llar bilan bog'liq. Kanallar, maxsulot ishlab chiqarish joylari, elektr uzatish simlari kommunikatsiyani tashkil etadi. Yo'llar, kanallar va akveduklarni qurish arxitekturaviy ijodning yangi sohasi emas. Ammo bizning zamonamizda bu sohasida mutlaqo keng tarqaldi, inshoot arxitekturasiga bo'lgan talab keskin o'sdi.

Avtomobil yo'llarini qurishda landshaft arxitektoralarini jalb etish ehtiyojini birinchi bo'lib, AQSHda tushunib etdilar. 1929 yilda boshlangan "Buyuk dipressiya" davrida yangi zamonaviy magistrallar qurilishni ommaviy tus oldi. Keyinroq bu kabi ishlar Germaniya, Italiya va Evropaning boshqa shaharlarida ham boshlandi. Ko'p qavatli tarmoqlarga ega bo'lgan avtomagistrallar ham tabiatga va ham shaharlarga umuman yangi arxitekturaviy masshtabni olib keldi. Yo'llar tasmasi hohlangan rel'efda, iloji boricha uni o'zlashtirmasdan kesib o'tardi [16].

Appenindagi (Italiya) 1979 yilda A – 24 yo'li o'zining masshtabdlari bilan shu ulug'vor tog'larga teng edi. Uning uzunligining to'rtidan bir qismini

tonnel va estokadaoar tashkil etadi. Keng vohalarda estakadalar tagida qishloq va shaharchalar umr o'tkazadi, eski yo'llarning nozik iplari tortilib turibdi.

SHaharlarda tezyurar magistral yo'llari muhim shaharsozlik faktoriga aylandi. ularning yirik masshtabi va maxsus eguluvchan shakllari an'anaviy to'g'ri burchakli shahar mahallalari bilan ko'pincha kontrastni tashkil etadi. Hususan transport inshootining aniq kontrasti hozirda fantastik o'lchamlarga ega bo'lgan, masalan, 1300m oraliqqa ega bo'lgan Verazano qo'ltig'i ustida suv sathidan 70m balanlikda qurilgan Nyu – Yorkdagi osma ko'priksida ko'rinadi. YAponiya va Angliyada 1980 yillarda Verazano rekordidan o'tib ketgan bo'lsada, bu ko'priksiz zamonaviy dunyoning za'monaviy dunyoning ta'sirchan inshootlarida biri bo'lib qoladi.

Oxirgi o'n yilliklar davomida tabiiy landshaftlar bo'yicha kommunikatsiyalar qurish yanada rivojlandi. Atrof tabiatini tomosha qilishga mo'ljallangan yo'llar muhim ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar hisoblanadi. 1930 yillarda AQSHda maxsus (parkveylar) paydo bo'ldi. Milliy parklarda tomosha yo'llariga alohida e'tibor berildi. Tomoshaning qiziqarli nuqtalarida avtomobil to'xtash joylari, piyoda yo'llari, suvga yaqin joylarda yurish uchun maxsus yo'laklar tashkil qilindi. AQSHdagi mashhur piyoda yo'llarining eng mashhuri qatorida Vashington tog'idan Amikalola sharsharasigacha, Men shtatida Djorjiya shtatigacha cho'zilgan Appalach yo'li hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasini faoliyati ob'ekti sifatidagi muhitning uchinchi ko'rinishi dam olish va aylanib yurishga mo'ljallangan maxsus tabiiy muhit hisoblanadi. aslida bu faoliyat qadim zamonlardan boshlangan bog' – park san'atini yaratishga borib taqabladi. Bu faoliyat hozir ham, landshaft arxitekturasini mutloq boshlovchisi bo'lmasada davom etmoqda.

Ko'pincha bog' va parkning farqi haqida so'rashadi. Ko'pincha bu nomlar sinonimga aylanadi. Masalan "Versal bog'i" va "Versal parki" deb, aynan bir nomni atashadi. Haqiqatan ham bu ikki tushunchani bizni zamonamizda aniqlash qiyin. SHunga qaramasdan tarixga nazar solib, bu tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Rus tilida "bog'" (sad)

– “sajat” – o‘tqazish ma’nosini beruvchi ildizidan olingan. Haqiqatan ham Rossiya bog‘lari, deb avvaldan o‘simlik ekib etishtiriladigan joylarga aytilgan. “Bog” nomining analogi dunyo tillarining ko‘pchiligida mavjud. “Park” so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, sal boshqacha ma’noga ega. Inglizlar park so‘zini o‘ralgan er uchastkasi, ov qilish uchun, dam olish va aylanib yurish uchun, qishloq xo‘jaligi jixozlarini saqlash va boshqalar uchun ishlatishadi. Zamonaviy rus tilida bog‘ – va park tushunchalari bir – biriga yaqin, ammo “park” so‘zi ancha keng ahamiyatga ega, Parklar bog‘dan kattaroq bo‘lib, bog‘dagi o‘simlik o‘tqazib, o‘stirishdan ko‘ra kengroq funksiyalarni bajaradi [16].

Mazkur yuz yillik bog‘ – park san’ati xarakteridagi eng murakkab masala – bu uning uslubiy (stilistik) yo‘nalishidir. avvalambor bog‘ qaysi shahar yoki mamlakatda yaratilgan bo‘lmasin, muallifning ijodiy ishidir. Albatta aniq bir davr va rejalashtirish an‘analari, o‘simlik aranjirovkasi, turli bog‘ – park yaratish san’ati uslublari haqida qandaydir umumiyliklar topish mumkin. Ma’lumki XIX asr o‘rtasidan XX asr oxirigacha bog‘ – park san’ati uyg‘onish, barokko va klasitsizm kabi estetik konsepsiyalarni olg‘a surdi. XIX asr oxirida aniq ajratilgan stilistik yo‘nalish “modern” arxitekturasi turdoshi yaqqol ajralib turardi.

Arxitektor E. Andre yaratgan Angliyada Liverpuldagi Sefton – parkda ushbu uslubni ko‘rish mumkin. Park rejasida handasaviy egri chiziqlar go‘zal yo‘laklar tizimini tashkil etgan. Kompozitsiya sun’iy suv havzalari bilan to‘ldirilgan. Bu yo‘nalish ko‘pincha “Fransus” va “inglizcha” bog‘lar an‘anaviy uslublari bilan qo‘shilib ketgan. Kutilmagan holda u XX asr o‘rtasida keng tarqaldi. “Amyobasifat” hovuzlar, gazonlar, egri chiqili yo‘laklar butun dunyoga tarqaldi.

Oxirgi yuz yillik davomida arxitekturadagi etakchi estetik yo‘nalishlar bog‘ – park san’atida aks etdi. Bu park qurilmalarining va mo‘‘jaz me’moriy shakllarining doimiy o‘zgaruvchi badiiy yo‘nalishlarida ko‘rinib turgan. Besabab emaski XX asr bog‘ – park san’atida avvalo miqdorli iz qoldirdi.

Er yuzining turli burchaklaridagi ko‘p miqdorli shahar, shahar atrofida, shahar tashqarisidagi dekorativ dam olish bog‘lari, ko‘pincha qulay, obodonlashgan, guo‘zal, ammo faqat ba’zi hollarda mustaqil arexitekturaviy qiymatga ega bo‘lib, ko‘pincha bino va ansambllar ochiq obodonlashgan muhitni yaratgan.

SHaharlardagi yirik yashil massivlar esa butunlay boshqacha qabul qilinadi. Ularning ahamiyati juda kengdir. Bu ham shahar muhitini sog‘lomlashtirish, ham shahar tirik dunyosini asrash va albatta shaharlarni estetik boyitishdir. Bizning asrimiz oxirida bunday ko‘pfunksional massivlar planetanit qator shaharlarida paydo bo‘ldi. Ularning eng taniqli dunyoning eng yirik mamlakatlari markazlari – Moskva, Vashingtonda yaratildi. Ularning ikkalasi ham bir yarim – ikki asr davomida shakllandi. Moskva janubiy – g‘arbiy yashil yadrosi Moskva – rekodan, Neskuchnyy sad orqali Vorobey tog‘lari tomon bog‘lar zanjiridan iborat. Oxirgi o‘n yilliklarda bu yashil zonaga Universitet bog‘lari, Lujniki, Novodevichiy monastiri bog‘lari, Vorobeylar tog‘i qoshidagi hukumat binolari bog‘lari ham qo‘shildi. Vashingtonning markaziy muhiti esa ham tarixan va ham kompozitsiya jihatdan bu kabi shakllanmadi. Uning yadrosini XVIII asrda P. Lanfan tomonidan ixtiro qilingan “Mol” – yashil eksilanadasi tashkil etdi. 1870 yilda Olmsted bu erda Kapitoliy atrofida birinchi parkni yaratdi. Keyinroq XIX asr va asosan XX asrning ikkinchi yarmida Armengton halq qabristoni va potomana sohillaridagi parklarning memorial – yodgorlik xotira parklari bilan qo‘shilishi bilan qurilish tugadi [15].

Mavjud parklarni mukammallashtirish va yangi yirik ko‘p funksiyali bog‘ parklar massivini yaratish bizning davrimizda ham davom etmoqda. Minskda ularning ancha qiziqarli tizimi amalga oshirilgan. Uning suvli – yashil diametri shaharni Svislochi daryochasi vohasi bo‘ylab kesib o‘tib, dam olish va fontanli basseynlar tizimidan tashkil topgan.

Alohida bog‘ va parklarning qurilishi ham birgalikda olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlar, jumladan Angliya, Fransiya, FRT, AQSH va YAponiya o‘zlarining tarixiy an‘analaridan keng foydalanishida, shu bilan bir qatorda

ushbu davlatlarga dendrologik, qurilish va boshqa ishlarni mutloq yuqori texnik sifatlarda bajarish xosdir. Rossiyada esa, bog‘ – park san’ati nazariyasi va loyihalashning yuqori darajasiga qaramasdan bog‘larning yaratish va ulardan foydalanish ahamiyati amaliyoti ancha oqsayapti. 1851 yil London umumjahon ko‘rgazmasidan keyin asrimizning 20 – chi yillaridan ko‘rgazmali territoriyalarini loyihalash landshaft arxitekturasining mustaqil sohasiga aylandi. Rossiya 1923 va 1939 yilda yirik qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmalari loyihalarini amalga oshirgan birinchi davlatlardan edi.

Maxsus ko‘kalamzorlashtirilgan territoriya ochiq muhitning muhim turtinchi ko‘rinishi hisoblanadi. Parij, Nyu – York, Bryussel, Monrealdagi umumjahon ko‘rgazma komplekslari mashhur bo‘lib ketdi.

XX asr bo‘sag‘asida ko‘rgazma territoriyalarining tarkibiy qismi sifatidagi sport zonalari paydo bo‘ldi. sobiq SSR davlati 20 – 30 yillarda bu sohada ilg‘or edi, yashil muhitlarda joylashgan stadion va sport maydonlarning qurilishi keng quloch yozdi.

Moskvadagi “Dinamo” (1928y, arxitektorlar A. Langman va L. CHERINOVER), Tashkent, Kiev, Piterburg, Tbilisi stadionlar kompleksi keng shuhrat tarqatdi. Izmaylovadagi Moskva markaziy stadioni mamlakatning eng yirik sport kompleksi bo‘lishi kerak edi. Amalga oshmagan N. Kolli, S. Andreevskiy va boshqa arxitektorlar tomonidan loyiha 300ga maydonni egallagan edi. Sport komplekslarining kompozitsion markazini tomoshobinlar tribunasi va yirik maydonlar tashkil etardi va shunday bo‘lib qoladi.

1952 yilda XV Xelsinki Olimpiya o‘yinlari uchun yangi o‘yinlari uchun yangi stadionni qurilganidan so‘ng sport inshootlari orasida olimpia komplekslari oldinga chiqd. Ushbu komplekslar Olimpiada o‘tkaziladigan har bir shaharning nufuzi va sharafi belgisi bo‘lib qolaverdi. Arxitektor K. Tange tomonidan 1964 yilda Topioda qurilgan olimpiada parki va inshootlari arxitektura amaliyotidagi yirik voqeaga aylandi. Mexiko (1986y), Myunxen (1972y) va Monreal (1976y) sport inshootlari va olimpiya qishloqlarini

birlashtiruvchi ansambllar yaratishini boshlab berdi. 1988 yilda Seulda alohida tasirchan ansambl yaratildi [17].

39 qatnashchi orasida ko'rikda g'olib chiqqan "Vu i Vilyams" (Aqsh) formasi sport zallari va olimpiya o'yinlari binolari hajmlari bilan relief va suv hususiyatlarini birlashtirishdan keng foydalanib, keskin landshaft – shaharsozlik kompozitsiyasini yaratdi.

Ko'rgazma territoriyasiga ekspozitsion xarakterga ega bo'lgan katta parklar guruhi ham qo'shilgan. Bu parklarning tug'ulishi chuqur tarixga ega. Ekzotik o'simliklar va hayvonlarni etishtirish va ko'rgazma etish qadimgi Misr va Mesopotamiyada avvaldan mavjud edi. XIX asrda hayvonot va botanika bog'larini yaratish va ularni ilmiy asoslarini tuzish to'lqini paydo bo'ldi. Hayvonot bog'larida hayvonlarni panjara orqasida ko'rsatishdan asta – sekin ularni yashash sharoitiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda ko'rsatishga o'tishdi. Bu anana ayniqsa bizning zamonamizda aniq ko'rinish kasb etdi. Volar to'siqlarini iloji boricha kam ishlatishadi. 1955y. Fridrixsvel tarixiy parkida qurilgan Berlin hayvonot bog'i bunga misol bo'la oladi. Zamonaviy loyihalashda avvalgi uslubga diametral qarama – qarshi anana mavjud. Agar ilgari panjara orasida hayvonlar joylashgan bo'lsa, endi o'ziga xos "panjarali"-yopiq tomosha yo'llari bo'ylab tomoshabinlar yuradi. Bunday tizim birinchi marotaba San-Fransisko hayvonot bog'ida qo'llanilgan.

XIX asrda "dorivor" bog'lardan tizimli kolleksiyalangan va ko'rgazma uchun mo'ljallangan botanika bog'lariga o'tildi. ular bir vaqtda juda ko'p davlatlarda tarqaldi. Ularning eng yaxshisi 1812yildaQrimdagi Nikitinskiy botanika bog'i sanaladi. 1945yilda arxitektor A.S. Zalesskaya loyihasi asosida Moskvada Rossiyaning eng yirik fanlar akademiyasining Bosh botanika bog'iga asos solindi. Edinburg, London, Monreal va Berlin botanika bog'larida 20 mingdan ko'proq o'simlik turi mavjud. Botanika bog'larini (zoologik parklar kabi) loyihalash bo'yicha hozir AQSH etakchi o'rinni egallaydi. Qurilayotgan va rekanstruksiya qilinayotgan bog'larda o'simliklarni tabiiy yashash muhitiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda ko'rsatish kabi an'anaviy uslub qo'llaniladi.

Richmond shahridagi Lyuks Ginter , Dallas shahridagi “Osmonlar yuog‘i”da inson va tabiat orasidagi o‘zaro munosabatlar haqidagi faylasufona fikrlash an‘analari seziladi [24].

Turli muhim ekspozitsiyalarga mo‘ljallangan yashil territoriyalarni – bog‘-muzey deb atash mumkin. Ochiq osmon ostida muzeylar yaratish g‘oyasi qadim zamonlardan oq mavjud bo‘lgan.

Antika haykallar Qadimgi SHarq bog‘larida, anti, Uyg‘onish, barokko va klassizm davridagi bog‘larda mavjud edi. Bog‘ muzeylarga esa XIX asr oxirida etnografik bog‘ Stokgolmdagi spansen parki hisoblanadi. Etnograf A. Xaselius bu erda qator qadimiy yog‘och qurilmalarni yig‘ib, ulardan muzey qishlog‘ini shakllantirdi va 1891 yilda ushbu qishloqni muzey ko‘rgazmalari sifatida ochdi [11]. O‘tgan yuz yil davomida bu kabi etnografik muzeylari boshqa joylarda ham vujudga keldi. Ular oddiy yig‘madan yodgorliklar tizimiga aylandi.

Hozirgi vaqtda ob‘ektlarni peyzajda saqlash, qiymatli me‘moriy yodgorliklar tarixiy muhitini qayta qurishga harakat qilish aniq ajralib turibdi. bunday komplpleks yondashuv mashhur preobrojensk va Pokrovosk soborlari atrofida shakllangan Kiji muzey ansamblida ko‘rinadi.

Ko‘kalamzorlashtirilgan maxsus territoriyalar ichida memorial parklar muhim ahamiyatga ega. ularning ko‘pchiligini buyuk insonlar va voqealarning joyini saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan park – muzey kabi baholash mumkin.

La Vilett bunday bog‘larning eng qiziqarlisi edi. 1960 yilda Parijning shimoliy – sharqiy joyi La Viletta park loyihasining umumjahon konkursi e‘lon qilindi. Konkurs g‘olibi arxitektor Bernar CHuma loyihasi asosida parkning qurilishi boshlandi. Park ko‘p funksiyali va o‘zining shakli bo‘yicha ko‘p obrazlidir. U “Ilm va texnika shahri” ta’sirchan muzey kompleksi bilan boshlanib, “Musika shahri” – Parij xalq musika va raqs konservatoriyasi binosi bilan tugallanadi. Bu komplekslar orasida 50 gektar maydonda ajoyib park yasanib turibti. U 120x120m o‘lchamli kvadratlarga bo‘lingan, kvadratlarga bo‘lingan, kvadratlarning burchaklarida 22ta yorqin qizil ranglioroli deb nomlangan “ko‘ngilochar so‘hbatgohlar” (besedkalar) pavilonlar joylashagan.

ular yo‘laklar, parklar va maydonchalarning murakkab tizimiga olib keladi. Keskin zamonaviy shakllar qurilmalarining suv tizimlari bilan qo‘shilishi ajoyib assosatsiyalarhosil qiladi. Parkning masshtabi va uning harakteri Lenotrning Vo-le-Vikontiga o‘xshab ketadi. Balki unitilayozgan “Ma’naviy me’rosdan foydalanish” darhaqiqat bu erda o‘zining yorqin ifodasini topgandir. YAngi davr shaharsozligi hoyalarining rivoji landshaft loyihalashning yana bir turi-shahar muhitida maxsus ochiq hududlarni ko‘kalamzorlashtirishini hayotiy ehtiyojga aylantirdi. bu maydonlar, ko‘chalar, ko‘priklar, sohillar, bulvarlar, hiyobonlar, mahalla ichki maydonlari, sanoatning sanitar – himoya zonalaridir. Ularni loyihalash bilan bog‘liq ishlarni ko‘pincha “obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish” deb atashadi. Ammo bunday territoriyalarda keng ko‘lamli muhitni yaratish sohasidagi masalalarni echishningfaqat bir qismini tashkil etadi, uni soddalashtirib tushinish Rossiyada shahar ochiq muhitlarini echishda boshqa g‘arb mamlakatlarida arxitekturaviy echimlarining yuqori darajasi bilan solishtirilganda, ancha orqada qolishiga olib keldi. Misol tariqasida Nyu-York va Bostondagi maydonchalar va piyoda yo‘laklari, Topio osmono‘par binosi SHindjuku landshaft o‘rami, Germaniyadagi Erfrut va Gamburg piyodalar zonasini va boshqalarni keltirish mumkin. Oxirgi vaqtlarda, ayniqsa AQSHda shahar transportidan butunlay ajralgan piyodalar zonolari qurilishi keng tarqaldi. ularning eng muvaffaqiyatlisi hozircha Siettl va Los-Anjeles piyodalar zonasi hisoblanadi [23].

XX asrning yirik shaharsozligi va landshaft kompleksi Parijning g‘arbiy chegarasidagi yangi yashash, ma’muriy, ma’daniy va savdo markazi – Defans (Himoya) 1870 yilda Frank – prussiya urushida shahar himoyachilari hotirasiga bag‘ishlangan inshoot hisoblanadi.

Piyoda yo‘llari bilan landshaft muhitining maxsus beshinchi ko‘rinishi chambarchas bog‘langan. Bunga turli inshootlar tomlardagi yoki intererlardagi sun’iy muhitlar misol bo‘la oladi. Bu erda, avvalgi holatlardagidek uzoq tarixiy prototiplardan to‘g‘ridan – to‘g‘ri foydalanish holatlari kuzatiladi. “Osma bog‘lar” Vavilon malikasi Semiramidada va XVII asrda Kremlda mavjud edi.

Xona ichida va oranjeriyalarda o'simlik o'stirish asrlar osha rivojlanib kelgan ammo XX asrning ikkinchiyarmida sun'iy landshaftlarni yaratish keng yoyiladi. AQSH landshaft arxitekturasining boshqa sohalaridagi kabi bu sohada ham birinchilardan hisoblanadi. Tomda yaratilgan bog'larning eng yaxshisi Orleanddagi olti qavatli garaj markazi binosi tomida mashhur landshaft arxitektori T. Osmundson tomonidan yaratilgan bog' hisoblanadi. 1950 – 60 yillarda AQSH shaharlarining ko'pchiligida maydon, hiyobon bog'larining er osti qismini intensiv o'zlashtirish boshlandi. Nyu – Yorkda to'rt qavatli garaj tomida yaratilgan Birlashgan Millatlar tashkilotining bog'i barchaga tanishdir. Tom landshaftining go'zal misollarini Vashington markazida ko'rish mumkin. 1978 yilda Xalq galereyasi yordamchi xonalari tomida tosh, shisha piramidalari va fontanlardan tuzilgan kompozitsiya tugullandi. 1988 yilda uning muallifi YAO Min Pey uzining g'oyasini yana bir marotaba qo'llab Parijdagi Luvr hovlisida er osti vestibul va yordamchi xonalarning ustida katta shisha piramida o'rnatdi. Pavilonli muntazam bog'lar kompozitsiyasi Vashingtonda 1987 yilda Richardson va Abbot firmasi tomonidan Smitson instituti er osti muzeyi zallari ustida yaratildi [22].

Intererlarda bog' yaratish keng mksshtablarga ega bo'ldi. 1967 yilda arxitektorlar K. Roch va D. Diniel ekzotik o'simliklari bo'lgan ulkan qishki bog' atrofida yirik Ford fondi kontora binolari kompozitsiyasini yaratdi. Nyu – Yo'rk markazida katta bo'lmagan tinch dam olish uchun qulay joy paydo bo'ldi. Dj. Portman ishlari interer bog'lariga yangicha ko'rinish bag'ishladi [23].

Hozir AQSHda juda kam jamoasi binosida bog'siz vestibullar bor. YAO Min Peyning CHikago kontora binosidagi "bog"-i yorug' vestibulda o'rnatilgan granit asosdagi 2 elegant "bonsay" daraxtidan iborat.

Tom ostidagi bog'lar ahamiyatli ommaviylik kasb etib bormoqda. Masalan, 1999 yilda Janubiy Angliyada "Edeim kompleksi" (Jannat bog'i) loyihasi e'lon qilindi. 30ga maydonda arxitektor N. Grilshou "binolar"-tropik va suptropik o'simliklar eksponatlari qo'yilgan muhitning shisha metal konstruksiyali yopilmalardan tarkib topgan yirik botanika bog'ini joylashtirdi.

“Biomalar”ning eng kattasi 4ga maydonni egallagan. Ochiq osmon ostida uncha katta bo‘lmagan “biom” joylashadi. “Edem”-ni buzilib ketgan territoriyada qurish taxmin etilmoqda. Ekspozitsion faoliyatdan tashqari “Edem”da katta hajmdagi tadqiqot ishlarini ham olib borilishi hisobga olingan.

Landshaft arxitekturasini hozir butun dunyoda o‘zining rivojining yangi bosqichiga ko‘tarilgan. U arxitektura mutaxassisligining mustaqil muhim sohasi sifatida tan olindi va uni oldida inson hayoti fazoviy muhitini yaratish va mukammallashtirishning barcha muammolarini hal qilishdek katta ishlar turibdi.

Oxirgi yillarda landshaft arxitekturasini rivojlantirishning yangi an‘analari keng tarqalmoqda. Ular orasida Rossiyada, birinchi navbatda mo‘‘jaz bog‘larni intensiv qurilishini ta’kidlash lozim. Ularning kompozitsiyasi va uslubiy yo‘nalishi katta xilma-xillik bilan ajralib turadi, ammo bajarilish sifati yaxshiroq bo‘lishini tilab qolamiz.

2. Amerikaning zamonaviy bog‘lari

Bog‘ning turli uslublarimavjud va bog‘ yaratishda har kim o‘ziga ma’qul uslubni tanlashi mumkin. Ammo biz yashab turgan davrni o‘zida aks ettiruvchi bog‘lar uslubini ham mavjud. Zamonaviy bog‘ qanday bo‘lmog‘i lozim va uni o‘zimizning er maydonimizda qanday qilib yaratish mumkin.

Texnik progressning rivojlanishi, shaharlar urbanizatsiyasi, hayotning tezkor o‘sishi zamonaviy boh-park uslublarida o‘z aksini topgan. Boshqa uslublar kabi zamonaviy uslub o‘zaro farqli bir necha yo‘nalishlarga ega. SHu bilan bir qatorda uslublarni ajratadigan umumiy tomonlar ham mavjud. Bu – chiroyli jihozlar, zamonaviy haykallar, urfiy o‘simliklar, kontrast ranglar ishlatilgan modern uslubini bo‘lishi mumkin. Misol tariqisida Parijdagi Andre Sitroena va Lavilet, shuningdek Evropa va Amerikaning ko‘plab zamonaviy bog‘larini aytib o‘tish mumkin.

Ko‘cha va kichik hiyobonlar ko‘pincha zamonaviy uslubda tashkil etiladi. SHahar ichidagi shaxsiy uylar havlisi ichidagi bog‘ ham ushbu uslubda yaratilishi mumkin.

Zamonaviy bog‘ning belgilari nimalardan iborat? Ushbu uslub chiziqlarning oddiyligi va bosiqqligi, ranglar kontrasti, haykallarning hajmiyligi, binolarning jg‘ayrioddiy shakli (kub, shar, chig‘anoq va boshqalar), zamonaviy materiallarni (metall, shisha, plastik panellar) foydalaniladigan zamonaviy arxitektura bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli zamonaviy bog‘da uning mavjudligi haqiqatdir. Aynan ushbu uslub zamonaviy arxitekturaviy shakllar va usimliklar uyg‘unligini shakllantiradi. Masalan qizil devor bog‘da qizilbargli o‘simliklar shaklida o‘z aksini topishi mumkin.

Zamonaviy bog‘da ko‘pincha bog‘ haykallaridan foydalanishadi. U modern uslubidan foydalanib, hayvon va usimliklarning stillashgan (qisqartirilgan) tasvirlari, tanish predmetlar (globus, yulduz, shar va boshqalar), yaroqlilig muddati tugagan predmetlar (qayiq, velosipet, eski kreslo), turli tabiiy materillar (eski to‘nka, tosh, suyak) shaklida taqdim etilgan buladi. Bunday haykallarning asosiy vazifasi – diqqatni jalb etish, zerikarli monotonlikni buzishdir. Uni metall, yog‘och, plastikdan tayyorlab, gazonda, o‘simliklar kompozitsiyasida, yo‘laklar kesishgan joyda va boshqalarda va boshqalarda joylashtiriladi. Umumiy kompozitsiyada er to‘shamasi ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun to‘g‘ri burchakli yoki noto‘g‘ri shaklli plitalardan, ba’zida och va to‘q ranglarning almashishidan paydo bo‘lgan kontrast ranglardan, qayroq toshlardan va mozaik (parchinli) er to‘shamalaridan foydalaniladi. Material sifatida beton, tabiiy tosh, tratar plitalarini qo‘llashadi. Zamonaviy bog‘da ko‘pincha suv ham mavjud bo‘ladi. geometrik shakldagi suv havzasida ba’zida suv o‘simliklari (dekorativ ko‘zacha va b.) yoki konteynerlarda namni yoqtiruvchi o‘simliklar (masalan, fikuslar), “suvli” zinapoyalar o‘rnatiladi. Favvoralar odatda original shaklda – shisha devor bo‘yicha yo‘naltirilgan suv yoki odamlar aylanib yuradigan tekis maydon bo‘ylab o‘rnatilgan ko‘plab vertikal favvoralardan iborat.

Bog‘ va parklarda katta maydonlarni hamisha gazonlar egallaydi. Gazon (chim) dam olish joyi hisoblanib, bog‘ning elementlarini o‘zaro bog‘laydi. Unda uncha katta bo‘lmagan daraxt va butalar guruhi, gulzor va suv havzalari joylashib, bog‘ning geometrik markazi hisoblanadi. Zamonaviy bog‘da ba’zida graviy qizil (shag‘al) to‘shama, ba’zi holatlarda esa sintetik materialli to‘shamadan ham foydalanishadi. Guldonlar, qoida bo‘yicha katta konteynerlarda yoki to‘g‘ri burchakli, kvadrat yoki aylana shaklli gulchambarlarda joylashtiriladi. Ular shahar ko‘chalari, balkollar, bino va parklarning kirish joylarini bezaydi.

Agar zamonaviy uyni “yashash mashinasi” deb aytadigan bo‘lsak, uning oldidagi bog‘ni “dam olish mashinasi” deb faraz qilish mumkin. Bog‘ uy bilan bog‘langan ochiq oddiy, funksional ko‘rinishga ega. Agar o‘lchamlar imkoniyat bersa, bog‘da basseyn, tennis korti, voleybol maydonchasini joylashtirish mumkin. Ko‘pincha zamonaviy bog‘da to‘siqlar o‘rnatilmaydi. O‘rnatilsa, zamonaviy materiallar – beton, plastik, yog‘och, metaldan oddiy shaklda bajarilar edi. Ba’zida to‘siq vazifasini kuzalgan “tirik devor” bajaradi. u doimiy yashil turuvchi butalardan iborat bo‘ladi.

Toza, kontrast, yorqin ranglar qo‘llaniladi, masalan, oq devor yonida qora panjara, yashil o‘simlik “devori” yonida oq toshdan bordyur o‘rnatiladi.

Bog‘ mebellari uncha katta bo‘lmagan veranda yoki patioda joylashtirilib, plastik, alyuminiydan ortiqcha bezaksiz yasaladi. Uning ustida soyabon yoki yo‘l – yo‘l materialdan quyosh va yomg‘irdan saqlanish uchun to‘g‘ri burchakli tent – markiza o‘rnatiladi. Suv to‘g‘ri burchakli shaklda bo‘lib, unda geyzer yoki suv o‘simliklari konteyneri o‘rnatilgan dekorativ hovuzdir.

Zamonaviy mo‘jaz bog‘ ko‘pincha quyidagi oddiy shaklga ega: uning katta qismini tartibga solingan gazon egallab, uy oldida bir nechta kuzalgan butalar o‘tqazilgan. ular kub shaklidagi yoki beton, terapot, sayqal berilgan meialdan bajarilgan naqshsiz guldonlar yoki konteynerlarda o‘tqaziladi. Ularda igna bargli yoki doimo yashil karlik butalar, ko‘p yillik yoki bir yillik dekorativ gullar va xonaki gullar ekiladi. Ba’zi xollarda osma kashpolar verandayoki biron

balandlikga osiltiribqo'yiladi. konteynerlar uylarning kirish joylarini bezaydilar, lyuklarni niqoblaydilar. SHuningdek yo'lak bo'ylarida ham konteyner joylashtirish mumkin.

Gazonda bir yoki ikkita kata daraxt (yo'lakning o'ng yoki chap tomonida) ekish mumkin. Bu odatda oq qayin, lipa, moviy el, klyon bo'ladi. Daraxtning asosida bir yillik yoki ko'p yillik dekorativ bargli gullardan klumba yaratiladi yoki pastgina to'siq yaratili, tana atrofini maydalangan tabiiy materiallar bilan to'ldirishadi.

YAxshi rejalashtirilgan va o'simliklari tug'ri o'tqazilgan bog'ni parvarishlash oson kechadi. Bino fasadi bo'ylab butalar yoki ignabarglillar o'tqazilib, turli o'simliklardan miksbodyur turidagi kompozitsiya yaratiladi. Uning tarkibida dekorativ kulrang bargli ko'pyillik o'simliklar, bir yillik gullar, katta blmagan butalar, xonaki gullar bo'lishi mumkin. Bunday kmpozitsiyalar bir xil rangda – kumushrang – oq gulzor, sariq, qizil, moviy, hinarangli qilib o'tqaziladi. Uyga etaklovchi yo'laklar odatda daekorativ bargli o'simliklar, past bo'yli chiroyli gullovchi bir yillik gullar bilan bezatiladi. Kontrast ranglardan ham foydalanish mumkin.

“Amerika bog'i” deb, kolonial uslubning turli yo'nalishi bo'lgan ikki xil peyzaj: “o'rmon va yovvoyi tabiat” namunasining aralash foylanilishiga aytiladi.

Amerikacha er uchastkasining klassik (mumtoz) rejasi: er uchastkasi 3 mustaqil qismga bo'linadi:

1. uy oldi maydoni (ichki zona) tosh yoki tabiiy plitkalar bilan qoplanadi va gazonninng o'rnini bosadi. Bu erda dam olish va mehmon kutish mumkin. Bu erdan bog'ning barcha chiroyli joylarini tomosha qilish mumkin.

2. Tabiiy peysajlar halqasi (oraliq zona) , pog'onali gulzorlar yoki gilamsifat klumbalardan iborat bo'ladi. Gulzor uchun gullar alohida e'tibor bilan tanlanadi. Bu zona yil davomida go'zal ko'rinishga ega bo'lishi lozim.

3. Uchastkaning tashqi zonasi oldingi oldingi ikki zonanio'rab turadi va tabiiy muhit zonasi hisoblanadi.U uzluksiz yoki uzilgan bo'lishi mumkin. Uni

dekorativ daraxt va butalardan shakllantirib, tana asosida soyaga chidamli ko'p yillik o'simliklar ekiladi.

4. Uchastka chekkalarida sport o'yinlari uchun maydonchalar, xo'jalik qurilmalarini joylashtirishadi. Barcha zonalar tabiiy tosh yotqizilgan yo'lakchalar bilan bog'lanadi.

Amerikacha bog' yaratilish usullari.

SHohlari tarvaqaylab o'sadigan kattadaraxtlardan uzoqroqda, kuniga 4 soat oftob tegadigan ochiq uchastkalar tanlanadi. Maydonlar tekis yoki kichik qiyalikka ega bo'lishi mumkin. Bog'ni yaratishda pog'onalikdan foydalanish lozim: Bo'yi balandroq o'simliklar ko'zdan uzoqroq joylashtiriladi. Masalan oldin tupli floks, keyin yaxinatsiya yoki vatochnik, uning orqasida liatris, polosnyak va sorgovik o'tqaziladi.

Bir uchastkada dala o'simliklarining barcha turlarini yig'ishga harakat qilmang. Birinchi navbatda kompozitsiya strukturasiga hajmiylik bag'ishlovchi yirik ko'rinishni aniqlab olish lozim. U butun ekilgan o'simliklar miqdorining 2/3 qismidan ko'p bo'lmasligi kerak. Poliz va dala gullarining nisbati 3:2 bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'simliklarning har bir turini bittadan emas, guruh yoki massiv sifatida, keyinchalik maydonni to'liq qoplaydigan qilib ekish lozim. Bir qatorda ko'pi bilan 89 bir xil ko'chatlar ekiladi. ularni tartibsiz: to'lqinsimon, dog'simon, qatorlab, xalqali o'tqazish mumkin. CHiziqlar yo'nalishini, tabiiylikga erishish uchun. o'zgartirib turishadi.

Amerikacha bog'ning o'simliklarini tanlash tamoyili.

Tanlashning asosiy ko'rsatkichi – ko'p parvarishni talab etmaydigan, tuproq tarkibiga bog'liq bo'lmagan, mahalliy iqlimga moslashtirilgan quruqlikka chidamli shimoliy amerikalik ko'pyillik o'simliklar.

- Gullardan – flokslar, astryalar, exinatssya, zolotarnik, shalfey, koreopsiz, dushitsya.
- Quruq uchastkalarda polinya, gram o'ti va oshqalarni o'stirishadi.
- Soya joylarga xost, paporotnik, ladish, barvinok mos keladi.

- Klassik uchlik: monada mingbarg (Tisyachiletnik) va kunboshog (mnogokolosnik) siz “amerikachabog”ni tasavvur etish mumkin emas.

Insonlar bilan o‘ynaydigan bog‘lar

Zamonaviy arxitekturaning yangi shakllar izlashi va muhit bilan o‘yin tashkil etishi bog‘ yaratish san‘atiga ham ta’sir etmaydigan quymadi. Avangard bog‘lar – bu odatiy holatlarni inkor etib, u sun’iy elementlarning ahamiyati o‘simliklardan ustun turuvchi bog‘lardir. Ko‘pincha ularda o‘simlik umuman mavjud bo‘lmashligi ham mumkin.

An’anaviy bog‘ muntazam yo peyzaj shaklda bo‘lib, tarkibida gazon, gulzor, butali to‘siqlar, hovuz, yo‘lak voishlari bo‘ladi. Dunyoning xoxlagan qismida bog‘lar uslubiy echimlaridan qat’iy nazar shunday tarkibga ega bo‘lgan.

“Avangard bog‘i” – Bu hayriodatiy bog‘ san‘ati namunasining nomining biri bo‘lib, uni yana “zamonaviy bog‘”, “modern bog‘i”, “xay-teks uslubidagi bog‘” deb ham atashadi. O‘zining g‘oyalarini chegarala olmaydigan dizaynerlar yaratgan bu yo‘nalishni aniqlash ancha mushkul.

Bog‘lar revolyusiyasi:

Landshaft dizaynerlarining yangi avlodi an’anaviy bog‘ yaratish konsepsiyasiga qarshi chiqib, bog‘ qaysi tamoillar asosida yaratilishi kerak, degan savolni o‘rtaga tashladi. Plastik, metall, shisha va sintetik matolar bilan ishlash, shuningdek zamonaviy “yashil” texnologiyani (ishlab chiqarish chiqindilarini dekorativ komponent sifatida foydalanish) qo‘llash bilan, tashabbuskorlar ko‘pincha bog‘dorchilik bilan bog‘liq bo‘lmagan material va uslublardan foydalanishadi. Bu bog‘larning ko‘pchiligi faqatgina vizual ko‘rinish emas, balki barcha hissiyot organlariga ta’sir etuvchi spektakl yo tantanaga o‘xshab ketadi. Boshqalarning umri uzoqqa cho‘zilmaydi. Uchinchilari hech qanday zarbasiz, sof eksperimentdir. Ammo ularning umumiy belgisi ham bor: Ular emotsional hissiyotga ta’sir etuvchilar, dinamik bo‘lib bog‘ haqidagi an’anaviy tushuncha va tasavvur chegarasini kengaytiradi. Ba’zida es – xushni

shoshirib, o'ylashga undovchi bunday bog'lar landshaft arxitekturasining oldingi safidan joy olgan [24].

Avangard bog'larning paydo bo'lishi nafaqat yangi texnologiyalarga, balki san'atning o'zgacha talqin etilishiga ham bog'liq. XX asrning badiiy oqimlari bog' dizaynerlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

1970 yilda paydo bo'lgan sanoat materiallari va mahsulotlarini qo'llashni majburlaydigan texnologiyalikka yo'naltirilgan xay – tek uslubining sovuq estetikasi, bog' dizaynerlari yangi avlodining ilxom manbaiga aylandi. Bu holat shuning uchun ham ro'y berdiki, zamonaviy texnologiya – bu ikkiasr oldingi nursiz industrializatsiyasi emas. balki kelajak texnikaviy jannat ma'nosini bildiradi [23].

Avangard bog'lari dizaynerlarining ko'pchiligi badiiy ma'lumotga ega bo'lib, bog'-park qurilishi mutuxasislari emas, ular avvalgi uslublarni inkor etib, yangisini asoslashga harakat qilishadi. Ammo bog' yaratishga munosabat o'zgargani bilan, o'simliklar o'tqazish va ularni parvarishlab o'stirish usullari avvaldagidek qolgan. Ko'pchilik bog'larda go'yoki birlashtirib bo'lmaydigan ishga qarama – qarshi yo'nalish birgalikda qo'llanilgan. Dizaynerlar zamonaviy hayot uslubiga mos keluvchi keng qamrovli bog'lar yaratish yo'lida izlanmoqdalar. Bu bog'lar juda ham induvidual (shaxsiy) bo'lib, bir – biridan ancha farq qiladi. Ularni bir tor uslub shaklida bayon etishning iloji yo'q.

Guruhlashga urinish

Bog' yaratishga munosabat o'zgargan: zamonaviy bog' ichiga kirish mumkin bo'lgan qandaydir tugallangan kompozitsiyaga, haykalga o'xshaydi. Avangard bog'larni juda shartli holda kinetik bog'lar, o'ynovchi bog'lar, artefakt bog'lar, installyasiya bog'lar, sun'iy elementli bog'lar va boshqalarga ajratish mumkin.

Kinetik bog'larda hamisha harakat mavjud. Odatda bu suv oqimi yoki harakatlantiruvchi haykal bo'lishi mumkin. Suv allaqachon favvora yo maqsad shaklida bo'lmay qolgan. Ammo avangard bog'i suv sohasida ham yangiliksiz bo'lmaydi. Ko'pincha tekis oqimlardan foydalaniladi. Lekin turli variantlar ham

mavjud. Masalan, 2003 yilda CHelsida fontanlar shunday yaratilganki suv go‘yo qiyalikdan tepaga qarab harakatlanib, pastga kichik sharshara kabi oqib tushadi. Bunday effektga suvni eng baland nuqtaga ko‘tarib, pastga turli tomonlarga oqizishi natijasida erishilgan. Kinetik bog‘ning ikkinchi tarkibiy elementi – bu shamoldir. Uning tezligiga qarab, haykallar aniqlangan troektoriya bo‘ylab harakatlanadi, simli o‘rmon to‘lqinlanadi [22].

Bog‘ bilan “o‘ynovchi” dizaynerlar, bexosdan yig‘ilib qolgan predmetlarga o‘xshovchi vaqtinchalik bog‘ kompozitsiyasini yaratadilar. Juda extravagant loyihalar ham uchraydi. Masalan “Ko‘chmanchining poliz – bog‘i”, u tez yastanishi va va shunchalik tez yig‘ilib, ko‘chishga tayyor turishi mumkin. Qo‘l ostidagi materiallardan yig‘ilib, ekzotik o‘simliklari mavjud bo‘lmagan bog‘lar qulay va qiziqarlidir. Xempton Kortdagi ko‘rgazmada yosh bog‘bonlar yaratgan bog‘ shu kabi bog‘lardan hisoblanadi. “Littmanlar to‘yi bog‘i” uzoq yashamaydi. Sariq va jigarrang ranglardagi gazon, sopol tuvaklardagi kungaboqarlar, guruhlab qo‘yilgan gul tuvaklari, hovuz atrofidagi sariq dog‘lar..... Bularning barchasi dam zamonaviy muzey ekspozitsiyasiga, dam floristik kompozitsiyasiga o‘xshab ketadi.

Artifakt bog‘lar, xay – tek loyihalariga mansub bo‘lib, tabiatning tabiiy unsurlari va maxsus sun‘iy materiallarni qo‘shilishidan iborat. Zanglamaydigan metaldan bo‘lgan tarrasalar valunlar bilan bir joyda, miksbordiyur shisha yo oyna tekisliklari bilan bezatilgan (ularning fonida o‘simliklarinig nozikligi ko‘zga tashlanadi), voishlar metaldan yasaliy yorqin ko‘k lak bilan bo‘yalgan, o‘simliklar yarim shaffof shisha yoki rangli plastik bilan to‘silgan.

Bog‘ – installiyasilar tomoshabin ensasini qotiruvchi yana bir uslubdir. Bog‘ ko‘rgazmalarida muntazam ravishda san‘atning shunday namunalari qo‘yiladiki, ularda tirik o‘simliklar umuman yo‘q yoki ularning roli juda hg‘am oz. Masalan, “gazon” erga botirib qo‘yilgan osh qoshiqlaridan tashkil topgan. YOki “Reanimatsiya” (jonlantirish) bog‘i – oq kafel qoplangan stol ustidagi qutilarda begona o‘tlar o‘sib turibdi. Pol kuper tungi bog‘ini orqasida rangli

projektorlar oʻrnatilgan yarim shaffof ekranlar bezaydi, yorugʻlik va soya oʻyinidan turli suratlar paydo boʻladi.

Arxitekturani davom ettiruvchi bogʻlar – bu alohida janrdir. qoida boʻyicha ularning loyihasi uyni qurgan arxitektor tomonidan tuziladi. Bu kabi bogʻ hamisha uy bilan ortiqcha kontrastsiz yagona kompozitsiyani tashkil etadi.

Koʻpincha oʻsimliklar binoning qismi sifatida rejalashtiriladi. Qoida boʻyicha bu liana boʻlishi mumkin, ularga kerakli qoziqlar bino qurilishidayoq qoqiladi. YOki koʻkalamzorlashtirilgan tom – bogʻ toʻgʻridan – toʻgʻri uyning tomida yaratiladi.

Bu uslubga arxitekturani hisobga olmaydigan yana bir bogʻ uslubi mavjud. Masalan, uyni oʻrab turuvchiga oʻxshash qurilishlar qatori mavjud, uning atrofida – umuman bir turli boʻlmagan bogʻ yaratiladi.

Los – Anjelasdagi “bogʻ ekopark”ni misol keltirish mumkin. Unda bogʻning dekorativ elementini maydalangan shisha (ishlab chiqarish chiqindisi) tashkil etadi.

Bogʻlarning yana bir guruhi “yomshoq” bogʻlardir. “YOmshoqlik” bu bogʻlarda na faqat plastik materiallar (mato yo plyonka), balki graviy va tuman tashkil etuvchi moslamalar yordamida maysa qoplagan toshda yashiringan haykallar orqali erishiladi. Bularning barchasi qandaydir koʻz oldini toʻsuvchi xiralik samarasini beradi.

Osmondan erga

Koʻpincha avangard bogʻlarni koʻrgazmalarda uchratish mumkin. Rossiyada bu kabi bogʻlar faqatgina koʻogazmalarda uchraydi. Evropa, Osiyo va Amerikada bunday bogʻlar va hiyobonlar oz emas, ular oddiy va gʻayrioddiy arxitekturaga ega boʻlgan uylarni toʻldirib turadi.

Avangard bogʻni yaratish uchun bir necha tarkibiy qismlarning mavjudligi zarur: sifatli arxitekturaga ega boʻlgan va sifatli qurilgan uy; uy bilan birgalikda yoki uning arxitekturasini hisobga olgan holda loyihalangan bogʻ, qoʻshnilar eʼtiroziga olib keluvchi gʻayrioddiy echimlar qabul qilishga tayyor

turish va dovyuraklik. Boshqacha qilib aytganda baocha shartlarni unitib, qandaydir g'ayrioddiylik va hammaning ensasini qotiruvchi echimga kelish.

Oddiy bog' uchastkasida bunday aqlga sig'maydiganavangardlik vositalarini qanday ishlatish mumkin? Birinchidan, turlidan – tuman ekranlar. Oynalar bog' muhitini kengaytirib ko'rsatib, qorong'i burchaklarini yoritadi. ekranning shishadan yoki metaldan bo'lishi muhim emas. Metall tashqarida uzoq yashaydi, lekin akslar yuvilib ketadi. dam olish maydonchalarida yorqin rangli shaffof plastikdan to'siqlar qo'yish mumkin. Ular nafaqat shamoldan asraydi, balki quyoshsiz kunda ham quyosh bordek hissiyot bag'ishlaydi. (aynan shunday echimni Olga Lamachenovaning "Qiro qoshidagi kafe" kompozitsiyasida va "Tvor – Si" ustaxonasining "Rossiyaning Imperator bog'lari - 2010" ko'rgazmasida ko'rish mumkin).

Ikkinchidan, turli ko'rinishdagi metall. Bugungi korten eritmasi keng tarqalgan, u zanglab, sariq jigarrang rang kasb etadi, himoya plyonkasi esa po'latni karroziyasidan asraydi. Korten bo'lmagan taqdirda uning o'rniga oddiy zanglangan temir ishlatiladi. nima uchun pergolani (voish) metall trubalardan yasash mumkin emas? Uyanada avangardroq ko'rinishi uchun trubalarni maxsustartibsizroq mahkamlash kerak. Eski vodoprovod quvurlari sharli kranlar bilan birgalikda ishlatish fantaziya uchun qanday keng imkoniyatlar beradi. Agar chiqindi va vayronalar estetikasi (bizning mamalakatimizning obodonlashmagan holatida bu kutilmagan narsa emas)myoqmasa, yangi yarqiroq metaldan foydalanish mumkin. Masalan yo'lak chekkasiga, yoki hovuzda suzib yurishi uchun yarqiroq sharni tashlab qo'yish mumkin (ayni holda u plastikdan ham bo'lishi ham mumkin, asosiysi - ko'rinishi). Bunday haykallar plastik hayvonchalar va gnomchalargaloyiq alternativa bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, turli ikkilamchi ishlatiladigan mahsulotlar. 1960 yil kir yuvish mashinasidan a'lo darajadagi konteyner, harf terish mashinasidan kichik alp tog'chasini hosil qilish mumkin. Umuman, klumba sifatida har qanday narsa

xizmat qilishi mumkin. Sovet zamonida eski traktor pokrishkasi baland guldonlar vazifasini bajarganini eslash mumkin.

To'rtinchidan, tirgak devorlarni gabionlar shaklida yasash mumkin (parallelepiped shaklida o'ralgan turli o'lchamdagi toshlarni metall setkakorzinasiga to'kib qo'yish). Bunday konstruksiya xohlagan bog'ga bosiq va zamonaviy ko'rinish bag'ishlab, uncha ko'zga tashlanmaydi.

Beshinchidan.... Ammo etarli. Har kim o'zining shaxsiy fantaziyasiga ishonishi lozim. Atrofga, tabiatga va arxitekturaga qarang, mumkin sizda mutloq original g'oya va loyihalar paydo bo'lar va bo'lishi mumkinki ular avangvard bog' haqidagi kitobning sahifalaridan joy olsin.

Bordi Xill bog'i

Borde – Xill ahamiyatli bog'lariga 1598 yilda Stiv Borde tomonidan qurilgan, Tyudorlar davrining ajoyib xo'jalik fon vazifasini bajaradi. Borde – Xill bog'lari XIX asrning 90 yillardi 80 gektarli bu joyning egasi mashhur kolleksioner va o'simliklar ovchisi, Amerika va Janubiy – sharqiy Osiyodan daraxt va butalarning katta kolleksiyasini yig'gan polkovnik Stevenson .klapk bo'lgandan keyin mashhur bo'lib ketdi. kolleksiyaning bir qismi – rododendrona, kameliya, magnoliya, noyob ignabargli va bargli daraxt navlari ushbu territoriyada ekilgan, ko'chatlardan ajoyib o'rmon bog'lari shakllantirilgan [22].

Borde – Xill kompleksidagi dekorativ zamonaviy bog'lar bir necha o'zining uslubi va xarakteriga ega bo'lgan bog'larga bo'lingan. Masalan, Olloh bog'i o'zining tinch atmosferasiga ega, gulobrang bog' – uni 1996 yilda taniqli landshaft dizayneri Robin Vilyams loyihalagan, O'rta er bog'i, Italian bog'i, rododendronlar eski bog'i, Azaliyaning aylanma bog'i. viktoriya orajeriyasi, guldonlar madaniyati, qadimgi "Ax – ax" peyzaj uslubidagi gazonlar katta taassurot qoldiradi. Bog'ning tomoshabinlar uchun ochilganiga mana 40 yil bo'ldi, Borde – Xill bog'idagi holat va ranglarning o'zgarib turishi hanuzgacha diqqatni o'ziga jalb etadi. Bahorda rododendronalar, azaliya, kameliya va

magnoliya gullaydi. Kech bahordan kuzgacha Gulobrang bog‘ va gulli miksborderlari yorqin ranglari bilan ajralib turadi [22].

Seecret Dreamy Parkside garden cottage – bog‘ o‘simliklarida yashiringan uy-studiya

AQSH-ning San-Fransiskosida zamonaviy mehmonxona intererining dekorativ bog‘ o‘simliklari ichida yashiringan bog‘i sifatida uyning kengaytirilishi.

Seecret Dreamy Parkside garden cottage

Loyiha mualliflari – amerikalik Scott Landscape Architecture studiyasi mutaxasislari bino fasadini to‘g‘ri burchakli uy uchastkasini dekorativ chirmashib o‘sovchi o‘simliklar bilan yashirishdi .

O‘simliklar atrof – muhit tabiati bilan strukturaning qo‘shilib ketishiga yordam beradi, keng derazalar esa tabiiy yorug‘lik bilan ta‘minlaydi.

3. Rossiya zamonaviy bog‘lari

Yirik parklarning biri 1960 yillarda Rossiyada Vladikavkaz shahri yonida arxitektorlar V. Mayavskaya va M. Byalin tomonidan marganets kar‘eri o‘rnida yaratildi.

Tabiiy landshaftlarni saqlashning perspektiv uslubi – yangi territoriyani o‘zlashtirish jarayonida landshaft muhitini minimal o‘zgartirish tadbirlari rejasini ishlab chiqishdir. Rossiyada tarixida tabiiy boyliklarni fikrlab o‘zlashtirishning tirik misollari mavjud. XIX asr oxiri XX boshida SHiryaeva tumanidagi Jigulida toshni toshni kovlab olish avj olib ketdi. Tashqaridan faqat tog‘lar etagida tirnalgan teshiklar va ular oldiga olib boruvchi yo‘llar ko‘rinir edi. Ammo eng oxirgi o‘n yillikda ochiqchasiga tosh kovlab olish boshlandi. SHiryaevadan bir necha kilometrlarga cho‘zilgan jigulilar tog‘ining xunuk tosh vozilmalari bir necha o‘n kilometrlardan ko‘rinib turur edi. Qadimdan Jigului kengligida ajoyib tabiiy dominants sifatida Volganing chap qirg‘og‘idagi Sarev Kurgan butunlay sindirib qazib olindi.

Ko‘p funksiyali (yoki polufunksional) parklarni ham, ko‘pincha, madaniyat va istirohat parklari sifatida ma’lum bo‘lgan parklarni alohida qayd etish lozim. ular o‘zida dam olish, ekspozitsion, sport, ko‘ngilochar va boshqa funksiyalarni mujassam etib, ochiq osmon ostidagi yirik klub sifatiga egadirlar. Uning tarkibiga Neskuchniy bog‘i va Moskva reka sohilidagi hozirgi Lenin prospekti bo‘ylab joylashgan boshqa bog‘lar kirgan. Birinchi madaniyat va istirohat bog‘i qurilishi muvaffaqiyatga erishdi va uning miqdori tezlik bilan o‘sib bordi. Evropa davlatlarida ko‘p funksiyali bog‘larning shakllanishiga sovet madaniyat va istirohat bog‘lari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Rossiya hududidagi etnografik bog‘larning me’moriy-rejaviy echimi Evropa davlatlaridagi etnografik bog‘larning echimi bilan bir xil. Ularning ichida o‘ziga xos bo‘lgan “Etnomir” deb nomlangan etnografik bog‘ning me’moriy-rejaviy echimini tahlil qilib chiqamiz.

Malavek va Kalujk chegaralarida “Etnomir” deb nomlangan ulkan tabiiy “tirik” muzey mavjud. Bu erda mahalliy aholining turar-joylarida yashab, xo‘jalik mollarini parvarishida qatnashib, ananaviy milliy kiyimlarni kiyib ko‘rish, kasb hunar saboqlaridan xabardor bo‘lish, xalq o‘yinlarida ishtirok etish, umuman olganda bu erda butunlay yashab qolish ham mumkin.

Bu olamda har bir mamlakat va har bir xalqlar o‘zining hududi hovlilari bo‘lib ularda turli maqsadlarga mo‘ljallangan inshootlar ko‘rsatilgan. Har bir qadimiy hovlilarda ananaviy hayot jilolarini ko‘rsatuvchi uy mehmonxonalar, hunarmandlar markazi va ustaxonalar, muzeylar, qahvaxonalar, restoranlar, sovg‘a do‘konlari va boshqa inshootlar bor.

Hozirgi vaqtda etnografik bog‘ muzeyida quyidagi inshootlar qurilgan:

- Rus hovlilari;
- Rus pechi muzeyi;
- Ukraina va Belarusiya xutorlari;
- “O‘rta Osiyo mamlakatlari“ etno-hovlilari;
- ”Janubiy Osiyo mamlakatlari” etno-hovlilari;

-Jahon ko‘chasi turli mamlakatlari zonalariga xos va mos savdo ko‘rgazma kompleksi.

Kelajakda bularning qatoriga Avstriya, Eron, YAponiya, CHili, Ekvador, kabi etno-hovlilar (etnohududlar) qo‘shiladi. Bu komplekslar qurilishi natijasida “jahon chorrahasi” deb nomlangan ko‘rinishda 2020 yilga borib tugaydi. Bugungi davrga kelib ushbu maskanda 52 ta etno-hududlar qurilgan bo‘lib, unda butun jahon davlatlari ham bo‘ladi.

Hozirda etnomir madaniy maorifga oid markaz bo‘lib bu maskanda har kuni o‘nlab ekskursiyalar o‘tkazilib o‘ziga xos turli mamlakatlar madaniyati va ananaviy kasb-hunar sirlarini o‘rgatib kelishadi.

Bu loyiha RF Madaniyat vazirligi, RF Maorif vazirligi, RF Sport, Turizm, YOshlar siyosati vazirligi, Maskvadagi YUNESKO byurosi, RF YUNESKO ishlari komissiyasi, Kallujsk tuman hokimligi va Gubernatori, Rossiya va jahon jamoat tashkilotlari tomonidan qo‘llab quvvatlandi va tashqi ishlar vazirligiga taqdim etilgan.

Etnomir xalqaro elchixona tashkilotlari bilan hamkorlikda mintaqaviy, federal va xalqaro darajadagi madaniy maishiy va ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazilib turadi. Bu erda festevallar, biznes maktablar, yozgi lagerlar, jahonning xalqaro ananaviy bayramlari tez-tez o‘tkazilib turiladi.

Turli taklif va xizmatlarni birlashtirib, har bir etnomirga tashrif buyuruvchi, mehmonning o‘zi istagan mashg‘ulotni topishi tayin. Buning boisi shundaki, bu noyob maxsulotning samarasi faqat madaniy – turizm kompleksiga shunchaki tashrif buyurishni taklif qilmasdan, balki qaysidir muddat davomida xohlagan jahon “tub mamlakat aholi”si sifatida o‘zini his qilish, uning go‘zalligini turli tumanligini anglash, madaniyati va an‘analari bilan tanishish, ko‘p narsalardan saboq olish, eng muhimi –olamga va o‘ziga boshqa xalqlar ko‘zi bilan qarash, tashqi dunyoning go‘zalligini aynan turli tumanlikda bo‘lgani bilan lekin xalqlar o‘rtasida umumiy rishtalar bog‘liqligini sezish shu bilan birga er kurrasida insonlarning mavjudligi – bu ulkan garmonik oila va bizlar

tinchlikda va hamjihatlikda yashashimiz shart ekanligini tushunib etishimiz kerak.

2 bob bo'yicha xulosa

1. Tarixga nazar solib, bu tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Rus tilida "bog'" (sad) – "sajat" – o'tqazish ma'nosini beruvchi ildizidan olingan. Haqiqatan ham Rossiya bog'lari, deb avvaldan o'simlik ekib etishtiriladigan joylarga aytilgan. "Bog'" nomining analogi dunyo tillarining ko'pchiligida mavjud. "Park" so'zi inglizchadan olingan bo'lib, sal boshqacha ma'noga ega. Inglizlar park so'zini o'ralgan er uchastkasi, ov qilish uchun, dam olish va aylanib yurish uchun, qishloq xo'jaligi jixozlarini saqlash va boshqalar uchun ishlatishadi. Zamonaviy rus tilida bog' – va park tushunchalari bir – biriga yaqin, ammo "park" so'zi ancha keng ahamiyatga ega, Parklar bog'dan kattaroq bo'lib, bog'dagi o'simlik o'tqazib, o'stirishdan ko'ra kengroq funksiyalarni bajaradi.

2. Mazkur yuz yillik bog' – park san'ati xarakteridagi eng murakkab masala – bu uning uslubiy (stilistik) yo'nalishidir. avvalambor bog' qaysi shahar yoki mamlakatda yaratilgan bo'lmasin, muallifning ijodiy ishidir. Albatta aniq bir davr va rejalashtirish an'analari, o'simlik aranjirovkasi, turli bog' – park yaratish san'ati uslublari haqida qandaydir umumiyliklar topish mumkin. Ma'lumki XIX asr o'rtasidan XX asr oxirigacha bog' – park san'ati uyg'onish, barokko va klasitsizm kabi estetik konsepsiyalarni olg'a surdi. XIX asr oxirida aniq ajratilgan stilistik yo'nalish "modern" arxitekturasi turdoshi yaqqol ajralib turardi.

3. Ko'p funksiyali (yoki polufunksional) parklarni ham, ko'pincha, madaniyat va istirohat parklari sifatida ma'lum bo'lgan parklarni alohida qayd etish lozim. ular o'zida dam olish, ekspozitsion, sport, ko'ngilochar va boshqa funksiyalarni mujassam etib, ochiq osmon ostidagi yirik klub sifatiga egadirlar

3 BOB

O‘ZBEKISTONDA AQLLI BOG‘-PARKLARNING TADBIQ ETISH YO‘LLARI

1. Aqlli bog‘larning funksiyasi va obodonlashtirish tizimi

Havfsizlik, foydalanishda qulaylilik, resurslarni tejash–bular Aqlli uy funksiyasini shakllantirishdagi asosiy vazifalardir. Uy yumushlarini avtomatlashtirish va elektron boshqarish uy ichi funksiyalari va hovli landshafti holatini nazorat qilishdagi muntazam amalga oshiriladigan funksiyalardir. Uyda va hovli muhitida qulay mikroiklim yaratish, basseyn va boshqa suv havzalarini to‘ldirish, o‘simliklarni sug‘orish, to‘yintirish, hovlini yorug‘lantirish, bog‘ muhitida musiqa ohangini ta‘minlash–bularning barchasi har kuni bajariladigan murakkab ishlardir. Bu ishlarni bajarish, elektr va muhandislik tarmoqlaridan foydalanishdagi havfsizlikni ta‘minlash, tejamlilikka jriish–bular oxir oqibat vaqt va resurslarni tejash, iqtisodda qulaylikni oshirish masalalariga borib taqaladi.

“Aqlli bog‘”dagi havfsizlik tizimi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- barcha xonalar va hovli hududiga kirishni nazorat qilish;
- uyga va hovliga begonalarning kirgani va harakati haqida uy egasini va qo‘riqlash dispetcher xizmatini zudlik bilan xabardor qilish;
- videoarxiv yaratish va saqlash;
- masofadan turib video serverga va boshqaruv tizimiga kirish;
- buyruqlar va qo‘riqlash tizimini knopkalar orqali bajarish;
- qo‘riqlashga bog‘ning alohida qismlarini qo‘yish, masalan, bunda bog‘ning barcha qismlari qo‘riqlansa, kunduz kuni faqat xo‘jalik zonasi qo‘yilishi mumkin;
- yong‘in havfsizligi–tutun datchiklari va yong‘inga qarshi datchiklar o‘rnatish;
- havfsizlikning tovush shaklini amalga oshirish.

Foydalanishdagi qulaylik quyidagicha vujudga keltiriladi:

- barcha avtomatik tizimni yagona boshqarish markazidan turib va qoʻlda olib yuriladigan pult va panel yordamida boshqarishning imkoniyati;
- tizimning berilgan ssenariyasi va algoritmlari asosida ishlashi, masalan, koʻchadagi chiroqlarning qorongʻi tushishi bilan avtomatik tarzda yorugʻlik berishi, tizimning har tongda gulzorga suv berishi va hokazolar;
- avtomatik tizim vazifalarini knopkani engil bosish orqali istalgan rejimga tushirish, masalan yorugʻlik kuchini oʻzgartirish, jalyuzlarni burish, qoʻriqlash tovushlari va qoʻngʻiroqlarni tovushsiz holatga keltirish, bogʻdagi musiqa ohangini, favvora tizginini pasaytirish yoki koʻtarish va hokazolar;
- har bir xonaga koʻrsatilgan vaqt asosida media–kontent yuborish imkoniyati;
- mazkur mikroiklim funksiyasi orqali xonalar havosining namligi va haroratini nazorat qilish va yaratish.

Koʻrib turibmizki, resurslarni tejash aqlli bogʻning tabiiy funksiyasi hisoblanadi. Harorat, yorugʻlik, favvoralarni ishga tushirish, ularning kuchi va harakatini oʻzgartirish datchiklarning mavjudligi ularga sarflanadigan energo resurslarni ancha kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Endi chiroqlar va favvora faqat kerak boʻlgan vaqtlarda va rejimda ishlaydi, xonalarni isitish va bogʻ oʻsimliklarni sugʻorish faqat zarur boʻlgan holatlarda ishga tushadi, energiya va suvli kam sarflab, istalgan samaraga erishiladi.

Jismoniy taʼminot tizimi quyidagicha:

- harakatga keltirish, harorat, namlik, tutun tarqalishi, suv bosishi, yorugʻlantirish, uyga va bogʻga kirish–chiqish, ular boʻyicha harakatlanishni bildiruvchi datchiklar;
- kontaktsiz indentifikatorlarning hisoblash jihozlari;

- chiroqlar, jalyuzlar, suv va gaz zadvijskalari, eshik qulflari va darvoza, sug'orishning mini nasoslarini boshqaruvchi modullar va ularning bajaruvchi relslari;
- akustik tizimni boshqaruvchi tizim;
- videokameralar va videodomofonlar;
- interfaol boshqarish pultlari;
- server
- avariya paytining elektr manbai;
- enternet–tizimi tipida simli va simsiz texnologiyalar qo'llanib qurilgan tizimning barcha jihozlarini birlashtiruvchi tarmoq.

Videokameralar va bajaruvchi qurilmalarning datchiklaridan chiqqan barcha simlar “Aqlli bog”ning shimoliy qismida alohida xonachada joylashgan texnologik shkaflar bilan bog'langan. Ushbu shkaflarda kommutatsiya, ya'ni elektr toki yo'nalishini o'zgartirish, o'zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantirish funksiyalari bajariladi. Bundan tashqari elektromit yonida joylashgan alohida tashqi shkaflar ham mavjud. Ularga boshqaruv uchun informatsion kabellari tutashtirilgan. Aqlli bog' tizimining barcha simlari kuchsiz tok bilan ishlaydigan informatsion kategoriyaga tegishlidir. Server xonasi ham uzluksiz elektr manbai bilan ta'minlangan. Aynan u avariya chog'ida tizimning zarur joylarni tok bilan ta'minlash imkoniyatiga ega.

Aqlli bog'ning bosh, asosiy qurilmasi bu, albatta, server hisoblanadi. U barcha datchiklardan signal–xabarlar oladi, tegishli qarorlarni qabul qiladi va ularni bajaruvchi tizim modullari va qurilmalariga buyruq–komanda beradi.

Havfsizlik tizimi alohida “kontrolliyor”da joylashgan bo'lib, uning ishlashi server funksiyasiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi. Boshqa barcha tizimlar ishi ham shunday, ya'ni birining ishdan chiqishi yoki yaroqsizligi boshqalarining ishlashiga halaqit bermaydi. Masalan, avariya holatini xabar beruvchi tizim birinchi navbatda asosiy signalga, ya'ni tarmoqda tok bor yoki yo'q ekanligiga bo'ysunsa, faqat ikkinchi navbatda server

kommandasiga, ya'ni avariya chog'ida qaysi tizimga bo'ysunadi, masalan, doim qo'riqlanadigan xonalardagi tokni uzmaydi.

Dastur asosida Delphi-ADO komponenti orqali ma'lumotlar bazasidan foydalanish yotadi. Dastur ishga tushirilganda u ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanib, undan barcha qurilmalar va adapterlar hamda ularning ishlash rejimi va grafigi haqidagi barcha ma'lumotlarni qabul qilib oladi. SHundan so'ng agar dasturiy ta'minot ma'lumotlar bazasiga yaxshi, ya'ni to'liq bog'langan bo'lsa monitorda dastur binosi ochiladi. Oyna, ya'ni ekran uch asosiy qism (ustuncha)ga bo'lingan: adapter (moslashtiruvchi)lar ustuni, qurilmalar va qurilmalar xossasi ustuni.

Interfeys ierarxiya, ya'ni bir xil tizimdagi kichik qurilmalarning shu tizimdagi katta, yirik qurilmalarga bo'ysunishi tamoyiliga asoslanib ishlangan. Sizga kerak adapterni barmoq bilan bossangiz qurilmalar, ya'ni "Ustroystvo" ustunida kiritilgan Qurilmalar xossalari ustunini bossangiz har bir qurilmaning xossalarini ko'rasiz. Bunda siz tanlagan adapter va qurilmalar ustuni yorug'lanadi. Siz adapter va qurilmalarning nomlarini o'zingizga mos, ya'ni tushunadigan qilib o'zgartirishingiz mumkin.

Har bir qurilma uchun uning xossalarida qurilmaning adapterdagi tartib raqami va qurilma tipi ko'rsatilgan. Boshqariladigan qurilmalarni avtomatik boshqaruvdan qo'lda boshqaruv rejimiga o'tkazish mumkinki. Uning 3 xil holati mavjud: qurilma o'chirilgan, qurilma doimiy qo'shilgan, qurilma biror muddatga vaqtinchalik qo'shilgan. Agar qurilma biron kun yoki vaqtincha qo'lda boshqaruvga qo'shilsa, o'sha kun yoki vaqtdan so'ng qurilmaning o'zi yana avtomatik boshqaruvga o'tib ungacha belgilangan grafik asosida ishlay boshlaydi.

Agar qo'lda boshqaruv o'chirilgan holatlar bo'lsa. Qurilma oldindan tanlangan rejim bo'yicha, ya'ni grafik asosidagi ish yoki sutkalik siklidagi ishdan yo haftalik siklidagi ishlar rejimida ishlaydi. Har bir rejim grafik interfeys orqali alohida kiritiladi va belgilanadi.

Har bir sutka soatlarga, soat esa 10 minutlik bloklarga bo‘lib chiqiladi. YAshil rang—bu qurilma qo‘shilganini bildiradi. Sutkani soatlarga, soatlarni esa boklarga ajratish manipulyatordagi “sichqoncha” yordamida amalga oshiriladi. Sichqonchaning chap knopkasi bittadan blokka, o‘ng knopkasi esa—bir nechta bloklarga ajratiladi. Soatni bloklarga ajratishdan oldin “bayroqcha”ni “qo‘shilgan” holatga qo‘yish kerak. Bloklarga ajratishni olib tashlash uchun “bayroqcha”ni sichqoncha yordamida bloklarni sochib yuborish—“rasmestit” holatiga o‘tkazish zarur. Vaqtinchalik rejim vaqti o‘rnatilib va belgilanib bo‘lgach “bayroqcha”ni “ma’lumotlarni yuborish” holatiga qo‘yishi zarur. SHundan so‘ng, qurilma unga o‘rnatilgan vaqtinchalik rejim holati bilan ishlashga o‘tadi.

Havfsizlik tizimining yadrosi bu tekshiruv paneli bo‘lib, u simli va simsiz datchiklar bilan ishlay olish imkoniyatiga ega. U yana qo‘shimcha tarzda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- zanjirlardan boshqarish;
- masofali boshqaruv paneli bilan ishlash (masalan, kirish eshigi oldida parol kiritish yo‘li bilan qo‘riqlash tizimini ishga tushirish yoki o‘chirish;
- telefon tarmog‘i va uyali telefon modeli orqali bir nechta sonlarga qo‘ng‘iroq qilish;
- uzoqdan turib telefon orqali boshqarish;
- kompyuterdan boshqaruv, ya’ni “Aqlli bog‘”ning serveridan boshqarish;
- tizimning qo‘riqlashga tayyor bo‘lganligi haqida tovushli xabar berish;
- X10 bayonnomasi bo‘yicha ish bajaruvchi qurilmalarni boshqarish (bu, odatda, tizim sezgirligini qo‘shimcha simlar tortmasdan o‘zgartirish imkonini beradi);
- yordamchi kiritilgan akkumlyator yordamida tizimni avtonom funksiyaga o‘tkazish.

Xavfsizlik tizimini “Aqlli bog” tizimiga birlashtirish va qo‘shish har qanday holatni (savol–javob) tarzida tahlil qilish mexanizmlarini ishga tushirish imkonini tug‘diradi. Masalan, har bir eshik qo‘ng‘irog‘iga bir daqiqadan so‘ng eshikni ochgan odam aloqaga doir knopkani bosishi zarur. Aks holda qo‘ng‘iroq kuchlanib bezovtali bo‘ladi. Yoki murakkabroq variant, agar siz uyda bo‘lmaganingizda eshikni sizning uydagilaringiz ochsa, havfsizlik tizimi bunday nostandart holat haqidasizga xabar yuboradi.

“Aqlli bog” umumiy elektron tizimining yadrosi server hisoblanib, u Windows boshqaruvidagi xususiy kompyuter ba‘zasiga qurilgan. Server quyidagilarni ta‘minlaydi:

- internet bilan aloqa, “Aqlli bog”ning barcha funksiyalaridan uzoqdan turib foydalanish;
- uyali aloqa modemi orqali internet va xo‘jalik bilan bog‘lanish;
- datchiklar va bajaruvchi qurilmalar tarmog‘ining simli va simsiz ishlashini ta‘minlash;
- voqealar va videoarxivlar uyasi (ba‘zasi)ni yaratish;
- hisoblagichlar bilan ishlash foydalanuvchilarni aniqlab berish va bajaruvchi qurilmalarga ularning ishlash ssenariyalarini kiritish;
- ssenariyalarga ko‘ra ishlash, masalan, maysazorlarni har kuni soat 11dan 14 gacha sug‘orish, kirish eshigi behosdan ochilganda uy egasiga sms xabarini yuborish, bog‘ hududidagi chirog‘ni yoqish va hokazo;
- interfaol pultlar va boshqaruv paneli bilan ishlash;
- istalgan audioyoki video axborotga oson kirishni va uyning istalgan nuqtasidan turib pultlar yoki panellar yordamida tizimdan foydalanish imkonini beruvchi media–server (D–Link) bilan ishlash;
- audio video oqimlar bilan ishlash, ularni interaktiv panellar yoki harakatdagi ssenariyalardan olingan komandalarga mos tarzda qayta yo‘naltirish. Masalan, “Gapiruvchi bog” ssenariyasi ishlab turgan uy egasining ismi–sharifi masalan, Po‘lat Temurovichga server moslashtirilgan bo‘lsa, bog‘ egasining bog‘ga kirishi bilan bog‘

“Assalomu–aleykum Po‘lat Temurovich” degan tovush chiqarib, o‘z egasini qutlaydi. Bu so‘zni boshqasiga, masalan, “Xush kelibsiz aziz mehmonlar” degan so‘zga moslashtirish imkoni ham mavjud [23].

Videokuzatuv tarkibiga videokameralar, videodomofonlar va video server kiradi. Barcha kameralarning axborotlari alohida videoserverga kelib to‘planadi va saqlanadi. Videoserver “Aqlli bog‘”ning asosiy serverining ishlashi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda alohida ishlaydi va foydalanishga qulay interfeys bilan boshqariladi. Bunda foydalanuvchi quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- videoserverni boshqa kompyuterdan boshqarish imkoniyati (“Aqlli bog‘” serveri kompyuteridan, ya’ni internet tarmog‘i orqali ham boshqarsa bo‘ladi);
- video axborotlarni yozish rejimini o‘z xoxishingizga moslab o‘zgartirish, masalan, ekranning biror qismi bo‘ylab harakatlanish mumkin;
- videoarxivlar yuritish, ularni taxrir qilish;
- videoinformatsiyalarni istalgan sizga qulay xonaga, masalan, yotoq yoki dam orlish xonasiga yuborish;
- domofonlar ishini turli xil rejimga moslashtirish, masalan, oqshomgi–tovush past yoki nurli xabar, domofonning faqat yotoqxona yonida ishlashi va h.k.

Tizimning muayyan foydalanuvchini sezishi va bilishi bilan bog‘liq murakkab ssenariyalarni amalga oshirish, shuningdek “Boshqaruvning keng imkoniyatlari” rejimiga o‘tish yoki undan chiqish uchun radiometkalardan foydalaniladi. Radiometkalar bilakuzuklar, zanjir, jetonlar, kiyimga tikib qo‘yiladigan kapsulalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Eshiklar o‘rniga joylashtirilgan hisoblagichlar asosiy foydalanuvchining paydo bo‘lishini radiometkalar yordamida aniqlaydi va belgilangan ssenariyalarni ishga tushiradi yoki foydalanuvchining harakatiga mos tarzda, ya’ni uni sezgan holda ishlay boshlaydi.

“Boshqarishning keng imkoniyatlari” (“Rasshirennnye vozmojnosti upravleniya”) rejimidan foydalanish uyda yordamga muhtoj bolalar bo‘lsa yoki imkoniyati cheklangan insonlar, nogironlar yashasa yaxshi samara beradi. Bunday insonlarning qo‘li, bilagi yoki bo‘yniga yordamga muxtoj bo‘lgan hollarda yordam datchigi va knopkali zanjirlar taqib qo‘yish kifoyadir. Knopka bosilsa bas datchik nogironning tik yoki yotgan holatini, yordamga muhtojligi haqida signal beradi.

Datchiklar, hisoblovchilar va komandalarni bajaruvchi qurilmalar “Aqlli bog”ning ko‘zi, qulog‘i va qo‘llaridir. Ularning soni, tizimda to‘g‘ri joylashtirilgani va ish qobiliyatiga ko‘p narsa bog‘liq, ya’ni “Aqlli bog” u yoki bu hodisa va harakatlarni sezgan holda zudlik bilan qabul qiladi va uning ijrosini amalga oshiradi. Buning uchun “Aqlli bog”dagi elektron tizimga quyidagilar yo‘naltiriladi.

Datchiklar:

- mavjudlikni, yaqinlashish va harakatni sezuvchilar (qo‘riqchilar, ssenariyalar);
- ko‘cha chiroqlarining singanini bildiruvchilar (qo‘riqchilar);
- eshik ochilganini bildiruvchilar (qo‘riqchilar, ssenariyalar);
- harorat, namlik va yorug‘likni ta’minlovchilar (iqlim nazorati);
- hududni suv bosishini, basseynning to‘lganligini, hid tarqalishini sezuvchilar (suv ventillarini boshqarish);
- tutunni sezuvchilar (yong‘in oldini olish);
- tarmoqdagi tok
- kuchlanishini tekshiruvchi (avariya chog‘idagi energiya).

Hisoblagichlar:

- yo‘llardagi radiometkalar (ssenariyalar);
- elektron qulflar.

Bajaruvchi qurilmalar:

- chiroqlar boshqarilishini tekshiruvchilar;

Jalyuzlarni boshqarish modullari;

- mavjud elektr simlarini X10 moduli bo'yicha boshqarish;
- suv va gaz ventillarini boshqaruvchilar;
- simsiz ishlovchi qurilmalar ishini tekshiruvchilar;
- audio–video signallar kommutatorlari;
- gullar va maysazorlarni sug'oruvchi mo'jaz nasoslar.

“Aqlli bog” tizimi boshqarishga va foydalanishga juda qulay bo'lib, uni masofada, ya'ni kompyuterdan uydan uzoqda turib (barcha funksiyalarni) yoki uyali telefondan (ayrim funksiyalarni) boshqarish mumkin. Barcha zarur funksiyalarni internetga uyali telefonigizning sim kartasini o'rnatish zarur xolos. Internet bilan “Aqlli bog”ingiz tizimiga bog'langaningizda, siz go'yoki o'z uyingizdagi kompyuter oldida o'tirgandek tizimning barcha qismlari va funksiyalariga kirib boshqara olasiz. Uyali telefon orqali tizimga bog'langanda esa telefonigizda tovushli menyu ko'rinadi va undagi yozuvlar bo'yicha “Aqlli bog” tizimini samarali boshqara olasiz.

Mazkur tizimda bog'da biron–bir voqea yoki holat yuz bersa o'zidan tovush chiqaruvchi dasturlardan foydalaniladi (musiqa, oddiy tovush xuddi Windowsdagidek). Siz bog' bo'yicha harakatlarningizda, shaxsan o'zingizga moslashtirilgan va sizning xoxishingizni sezuvchi ssenariya holatlar ishga tushadi. Masalan, kechqurun yorug'likning pasayishi bilan sekin–asta chiroqlar yonadi va bog' hududi yashirin tarzda o'rnatilgan dinamikdan siz yoqtiradigan musiqa sadosi yangray boshlaydi.

Hovliga yorug' berish yoki xonalarni yorug'lantirish eng zarur va oson boshqariladigan elektron funksiyalardir. Birinchidan, endi chiroq faqat zarur bo'lgan xonalar yoki joylardagina yonadi. Ikkinchidan, chiroqlarni tizimning o'zi yondiradi. Uchinchidan, xoxlasangiz havfsizlik tizimi uyda siz yo'q vaqtda ham xuddi odam bordek chiroqni turli xonalarda yoqib yoki o'chirib turadi. Ushbu funksiyalarni tizim bir xilda emas, balki o'zgartirib turish, hovlingizda go'yo nurlar o'yini o'tkazayotgandek tarzda amalga oshiradi (nur arxitekturasining o'yini kabi).

Soya beruvchi qurilmalarning transformatsiyasi

Hovlingizdagi soya beruvchi qurilmalar endi aqlli tarzda ishlaydi. Quyosh nuri tushganda o'z holatida, quyosh botgach boshqa joyga ko'chishi, joyini o'zgartirishi, qisqarishi, kengayishi, burilishi mumkin. Bularning barchasi maxsus ssenariyalar va qurilmaga o'rnatilgan motorlashtirilgan "privod"lar orqali amalga oshiriladi.

Basseyinni boshqarish

Zamonaviy basseymlar endi kerakli aqllashgan. Sizning xoxishingiz bilan basseynga suv tushishi mumkin, ya'ni hovliga kirmasdan masofadan turib siz basseyningizni suv bilan to'ldirishingiz mumkinki, siz uyga kelguncha u tayyor bo'lsin.

Gulzor va maysazorlarni sug'orishni boshqarish

CHiroyli gullar, klumba, tulicha ranglarda nurlantirilgan favvoralarsiz "Aqlli bog"ni tasavvur qilish qiyin. Ular va ularni sug'orish, ularga nur yuborish bilan endi "Aqlli bog" shug'ullanadi. Buning uchun esa oddiy mini nasoslarni o'rnatish, trubalarni o'tkazish va ularning funksiyasini tekshiruvchi zarur qurilmalar joylashtirish kifoya xolos.

Boshqa tizimlarni boshqarish va nazorat qilish

"Aqlli bog" o'z tizimining shaffofligi tufayli istalgan qurilma yoki priborlar bilan hamkorlikda ishlay oladi. Masalan, tizimga havoni namlantiruvchi priborni qo'shish va undan foydalanish uchun uning ishini tekshiruvchi o'rnatish va boshqaruv tizimiga yangi komandani kiritish zarur xolos.

Xuddi shuningdek, tizimga havoni ozonlashtiruvchi va shamollatuvchi funksiyalarga doir priborlarni o'rnatish mumkin.

Avariya paytidagi yorug'lantirish

Tok uzilgan paytlarda tizim avariya holatlarida foydalaniladigan energiya manbaini avtomatik tarzda qo'shadi. U o'ta yorqin svetodoidlar asosida qurilgan bo'lib, ular avariya holatida barcha zinapoyalar, o'tish joylari, hojatxonalarni yoritadi. Avariya energiyasi, ayni paytda, tizimning eng muhim

tarkibiy funksiyalarini: havfsizlik va videonazorat funksiyalarini hamda eshiklardagi elektron qulflarni boshqarib turadi.

Media-server. Bog‘ muhiti va landshaftini uy kinoteatrida namoyish qilish

Istalgan filmingiz, video va fotografiyalar, sevgan musiqangizni yagona server xotirasiga kiritish va saqlashingiz mumkin. Mehmonlaringizga biror sayyohatda tushirgan rasmlaringizni uy kinoteatrida ko‘rsatishingiz uchun ko‘p vaqt talab qilinmaydi. Bog‘ingizning istalgan qismidan musiqa ohangi va video eshitishingiz va ko‘rishingiz mumkin.

Boshqa imkoniyatlar, tizimni kengaytirish va takomillashtirish

Tizimga joylashtirilgan tekshiruvchi priborlar, bajaruvchi qurilmalar va datchiklar o‘rtasidagi namunaviy aloqa tarmog‘i tizimni biron–bir yangi qurilma, imoratga ham moslashtirish imkonini beradi. Masalan, siz hovlingizda avvalgilariga qo‘shimcha tarzda yozgi ayvon yoki ko‘shk qurdingiz deyaalik. Uni boshqarishni ham tizimga qo‘shish mumkin.

Buning uchun yangi imoratni elektron jihozlab avvalgi mavjud tizimga qo‘shish zarur xolos. Buning uchun hatto qo‘shimcha simlar kerak emas.

Fan va texnikaning o‘sishi bilan bozorda yangi elektron jihozlar va echimlarning vujudga kelishi sizning “Aqlli bog‘”ingiz elektron tizimini yanada kengaytirish, takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni yaratishga sharoit tug‘diradi. Masalan, ayrim uy ishlarini bajarish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi, tizimni tugmachalar va barmoqlar bilan emas, balki, siz (tovush) bilan boshqarish va h.k.

2.Gidroponik bog‘lar

Gidroponika–bu tuproqsiz, biroq ozuqa moddalar eritmasi asosida turli sabzavotlar, poliz va gul o‘simliklarini o‘stirish demakdir. Bunday bog‘lar boshqarishning intellektual agro texnologiyalari va ekish usullarining qorishmasidan kelib chiqqan bog‘lar desak xato ketmaymiz. Siz faqat gul tuvakchasiga tuxumlarni ekasiz va uni ko‘p parvarishlab o‘tirmaysiz. O‘simliklarning o‘zi avtomatik tarzda o‘sadi va har kuni sug‘orishni talab

qilmaydi, chunki u avtomatik tarzda elektron tizim orqali sugʻoriladi yoki suvga muhtojlik sezsa sizga xabar beradi.

Ekish uchun koʻproq oʻsimliklarning mayda oʻsuvchi navlari tanlanadi. Sabzavotlardan: tomat garmdorisi; salat oʻsimliklaridan: ismaloq, aysberg salati, kashnichsimon oshkoʻk, suv ismalogʻi; oʻtlardan: rayxon, kashnich barglari, qizilmiya (dukkakli oʻsimlik), yalpizlar.

Gullardan: boʻrigul (barvinok), begoniya (mayda gulli manzarali oʻsimlik), xrizantemalar, lavandalar, chamandagul (verbena), karnaygul (petuniya), qoqi oʻt, tosh choʻpgul va boshqalar.

Piyozli oʻsimliklardan: nargislar, gladioluslar, kanning katta guli, kartoshkagul, lolagul, sunbulgul, agapantus, boʻtakoʻz, sharfan, lotos va h.k.

Gidroponik bogʻ tuproq boʻlmagan joylarda ham, masalan, ochiq hovli yoki yopiq xonalar muhitida, osma konstruksiyali bogʻlarda, voishlar ustida, maxsus tuvaklar ustida ham oʻsishi, meva solishi va sabzavotlar etishtirib berishi mumkinki, ularning imkoniyatlari juda katta. Koʻz oldingizda oʻsimliklarning tezkor usullarda oʻsishi, gullashi, meva solishi, siz esa ularni terib yoki uzib olishingiz, hosilni yigʻishtirishingiz, xoxlaganingizdan esa uzib eb koʻrishingiz mumkin.

Qadimiy Misrda ham firʻavnlr gidroponik usulda oʻstirilgan mevalar va sabzavotlar taʼmidan baxramand boʻlganlar. Qadimgi dunyoning etti moʻjizalaridan biri Bobil shahridagi Semiramida osma bogʻlari ham, aslini olganda, gidroponik bogʻlarning ilk koʻrinishlaridan biri deb topilgan [22].

Hindistonda ayrim oʻsimliklar kakos tololalari ustida oʻstirilib, ularning ildizlari suvgacha choʻktirilgan. SHu sabali agar gidroponikani yangi texnologiya desak, u mana ming yillardan buyon yangidir. Demak, gidroponika—bu yangilik emas, u boshqa agrotexnik oʻstirish texnologiyalaridan keskin farq qiladi xolos.

Oʻsimliklarning rivojlanishi va natural holatga kirishi aniq, ularga faqat moddiy ozuqalar etsa boʻlgani. Gidroponika usuli oʻsimliklarga kerakli ozuqalarni kerakli vaqtda etkazib turish va ularni parvarishlash imkoniyatiga

ega. Zarur ozuqa, suv va quyosh etarli bo'lsa bo'lgani. Hidroponik usul ozuqalari va uskunalari hech qanday genetik sir, magiya yo'q, ozuqalar tarkibida esa hech qanday notabiiy bo'lgan, ya'ni xillik birikmalar yoki qorishmalar yo'qki, ular o'simliklarning o'sishiga, rangiga yoki mevalarining ta'miga salbiy ta'sir qilsa. Toza ozuqa qorishmalari va moddalari ishlab chiqilsa gidroponik usul yordamida ham to'laligicha organik tabiiy, natural mahsulotlarni etishtirish va ishlab chiqish mumkin.

Gidroponik usulda o'simliklarni o'stirish va etishtirish an'anaviy bog'dorchilik va polizchilikka ko'ra er va suv nisbatan ancha tejamlidir. Biz, odatda, suvni eng qimmatli tabiiy boyliklar qatoriga qo'yamiz va aslida ham shunday. Hidroponik usul qo'llanilganda suvni oddiy bog'dorchilikka ko'ra 70 %dan 90%gacha tejash imkoniyati bor. Bundan tashqari gidroponik usulda hech qanday o'g'it an'anaviy o'simliklarni o'stirishdagi va o'g'itlashdagi kabi tabiiy suv havzalariga kelib tushmaydi va bekorga sarf bo'lmaydi. YUqorida aytganimizdek, gidroponika—bu tuproqsiz o'stirish va buning uchun alohida murakkab qurilmalar va izlanishlar zarur emas. Uncha qimmat bo'lmagan, arzon chelak yoki maxsus ozuqa moddasi (substrakt) bilan to'ldirilgan gul tuvagini gidroponik qorishma eritmasi solingan suv bilan sug'orish—mana sizga butun gidroponika. Teshiklariga tuvaklar o'rnatilgan penoplast listi eritilgan ozuqa, ya'ni qorishma suvi solingan vanna yuzida qalqib turibdi—bu ham gidroponikadir va bu usul Evropa umumta'lim maktablari loyihalarida keng tarqalgan landshaft shakllantiruvchi tizimdir. Avtomatikaning texnologik imkoniyatlari va o'simliklar o'stirish muhitining to'liq nazorati va boshqaruv tizimi bu soha qiziquvchilari uchun cheksiz yangilik va g'oyalar yaratish imkoniyatlarini beradi.

Bugungi kunda gidroponika usuli butun dunyoda keng qo'llanilmoqda. U, ayniqsa, tabiiy iqlim sharoiti va tuprog'i mo'jiz bog'—park muhitini yaratishga yaroqsiz joylarda asqotmoqda. Osmon o'par baland binolarning tomlari ustida, ko'p qavatli binolar fasadlarining landshaft echimlarida,

balkonlardagi mo‘‘jaz osma bog‘larda, hovlilarning yozgi xonalari va atriumli binolar intererlari ana shunday joylardir.

Gidroponik usulni respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti va tuprog‘ida o‘simliklarning o‘sishi va qiyin bo‘lgan mintaqalari va zonalarida, masalan, Qoraqalpog‘iston, Xorazm va Navoiy viloyatlarining tabiiy landshaftini yaratish murakkab bo‘lgan tumanlarida qo‘llash yaxshi samara berishi mumkin. Bunday tumanlarda suvning tanqisligi, tuproqning sho‘rxokligi kabi omillar aynan gidroponik usulni qo‘llashni talab qiladi.

Gidroponikani ko‘chalarda quyosh nuri ostida yoki xonalar intererlarida, qishki bog‘lar landshaftini shakllantirishda, xususiy hovli bog‘larida qo‘llash mumkin. Zamonaviy binolarning intererlaridagi fitodizayn elementlarini ham gidroponikasiz tasavvur qilish qiyin.

Xullas, gidroponika sizni nafaqat o‘simliklarni parvarishlash va o‘stirish tashvishlaridan, balki ularning to‘g‘ri va vaqtida o‘sishi va eng muhimi bu jarayon nazoratini to‘liq o‘z bo‘yniga olishi bilan ajralib turadi.

3. Zamonaviy O‘zbekiston bog‘ – park san’atida “Aqlli bog‘-park”larni tadbiq etish usullari

Respublikamizdagi mavjud bog‘ va parklarning hududlari insonning tabiat bilan aloqalarini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega. Biroq hozirgi mavjud parklarning asosiy muammolaridan biri–bu ularning past darajadagi rekreatsion imkoniyatlari bo‘lib, bu o‘z navbatida ularga bo‘lgan ehtiyojlarni susaytirib yubormoqda. Natijada har kungi odatiy hayotimizda insonlarning park muhiti bilan uchrashishi bevosita uning ehtiyoji asosida emas, balki bilvosita, ya’ni “yo‘l–yo‘lakay”, “tranzit”, yoki shunchaki yonidan o‘tib ketish ko‘rinishida bo‘lmoqda. SHunday ekan mavjud parklardan foydalanishni zamonaviy asosda echish va tashkillashtirish maqsadida ularni loyihalashning yangi usullarini izlash va masalaga butkul yangicha yondoshish talab qilinmoqda.

Respublikamizning hozirgi zamonaviy rivojlanish bosqichida bog‘ va parklarni yaratish, respublikamiz shaharlari va tuman markazlaridagi mavjud parklarni qayta qurish va modernizatsiyalashning asosiy istiqbolli vazifalari tarzida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- ularning rekreatsion maftunkorligini oshirish;
- bog‘ va parklarning estetik jozibadorligini kuchaytirish;
- ularda ekologik toza va obodonlashtirilgan muqim landshaftlarni yaratish;
- ularga sarflanayotgan harajatlarni qoplash imkoniyatlarini oshirish.

Mazkur masalalarni echish uchun bog‘ va parklarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish maqsadida masalaga yangicha funksional, estetik, kompozitsiyaviy, ekologik va iqtisodiy yondoshuvlar talab qilinadi.

Funksional yondoshuv o‘z tarkibi va mazmuniga quyidagi masalalarni oladi:

- turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlariga tegishli aholining hayotiy ehtiyojlari o‘zgarishini hisobga olib bog‘ va parklar hududini funksional zonalashtirishdagi an’anaviy usulni takomillashtirish;
- rekreatsiyaning yangi mavsumiy va kunduzgi shakllarini kiritish, ochiq osmon ostida o‘tkaziladigan faoliyat turlari (o‘quv, sport va badiiy seksiyalarining mashg‘ulotlarini o‘tkazish va boshqalar) uchun sharoitlar yaratish orqali park hududi funksiyalarini kengaytirish;
- parkning perimetri bo‘ylab yil bo‘yi foydalaniladigan attraktiv rekreatsion ob’ektlarni (qahvaxona, sport inshootlari, ko‘rgazma zallarni) qurish;
- parkning ochiq muhitidan madaniy–ommaviy tadbirlar (ko‘rgazmalar, bayramlar, sayllar, konsertlar) o‘tkazish maqsadida foydalanish.

Parklarni istiqbolli loyihalash va takomillashtirish masalasiga estetik yondoshuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- park hududini me’moriy–badiiy tashkillashtirishni landshaft arxitekturasi, dizayni, xalq amaliy san’ati, tasviriy san’at va san’atning boshqa

turlarini (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, kino va boshqalar)ni sintezlashtirish asosida loyihalash, parkni san'at ob'ekti tarzida ko'rish va his qilish;

- parklarni loyihalash va rekonstruksiyalashda, ularning rejaviy va kompozitsiyaviy xususiyatlarini aniqlashda jahonning zamonaviy tajribalari va an'alaridan foydalanish;

- ommaviy tashriflar zonalarida o'simliklar assortimenti va dizaynini kengaytirish;

- park kompozitsiyalarini ansamblashtirish tamoyillari va semantik yondoshuvlar (assotsiatsiyalar mavzusi), "joy ruxi"ni tiklashni yaratish.

Kompozitsiyaviy landshaft yondoshuv esa quyidagi muhim masalalarni o'z ichiga oladi:

- o'simliklarning mahalliy navlari etakchiligidagi ekologik turg'un ekinlarni yaratish;

- ommaviy tashriflar zonalarida park hududlarining estetik jozibadorligini oshirish, O'rta Osiyo an'aviy bog'–park san'ati kompozitsiyalari—"CHorbog'", "chorchaman", "chortoq", "chorhovuz", "xiyobon" usullaridan foydalanish;

- park ko'kalamlarini yaratishning zamonaviy usullari (o'rmonchalar yaratish, muntazam o'simliklar kompozitsiyalari, topiar san'ati)dan foydalanish.

Bog' va parklarni yaratishga bo'lgan ekologik yondoshuvning mazmuni quyidagilardan iborat:

- parklarda ekologik jihatdan qulay muhit yaratish (ifloslovchi manbalarni yo'qotish, park hududini noqulay tashqi ta'sirdan himoya qilish va boshqa)lar;

- park ko'kalamlarining ekologik turg'unligini oshirish (park o'simliklari tarkibida butalar foizini oshirish orqali park landshaftini qayta yaratish, asosiy yashil massivlarda mahalliy navlardan foydalanish, park hududidagi rekreatsion yuklamani muvofiqlashtirish);

- turlicha rekreatsion rejim va rekreatsion yuklamalarda foydalaniluvchi uchastkalarni alohida ajratish, shuningdek yuksak ekologik resurslarga ega bo'lgan zonalarga kirishni cheklash;

- ko'kalamlarning zararkunandalar va kasalliklardan zararlanishini aniqlash maqsadida o'simliklarning ekologik monitoringini o'tkazish.

Iqtisodiy yondoshuv esa o'z tarkibiga quyidagi vazifalarni oladi:

- park xarajatlarini qoplash shartlarini muvofiqlashtirish maqsadida park hududlarini rivojlantirish biznes-rejasini va parkni boshqarish tizimini ishlab chiqish;

- parkni ekspluatatsiya qilishga va uning qurilmalariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

- har bir park qoshida ekspluatatsion xizmatlar uchun alohida me'moriy birlikni yaratish. SHtatlar tarkibiga bog'-park qurilishi, bog'dorchilik, ekolog mutaxassislarni jalb qilish;

- axborot tizimi ko'magida har yilgi ommaviy tadbirlarni o'tkazish (mavsumiy ochishlar-yozgi, kuzgi, qishgi fasllar ochilishi va bahorgi mavsum);

- park hududini shaharning turistik-rekreatsion marshrutlariga kiritish;

- parkka xizmat ko'rsatish uchun energosamarador texnologiyalardan foydalanish (yoritish jihozlari uchun quyosh bataeyalari, o'simliklarni sug'orish uchun yomg'ir suvini yig'ish).

YUqorida keltirilgan zamonaviy yodoshuvlar hozirgi vaqtda O'zbekistondagi mavjud va yangidan loyihalanayotgan park hududlarining rekreatsion imkoniyatlari, moddiy va estetik, me'moriy-landshaft tarzidagi maftunkorligini oshirishga yo'naltirilgan. Mazkur funksional, estetik, kompozitsiyaviy, ekologik va iqtisodiy yangicha yondoshuvlar bog'-park hududlarini zamonaviy jamiyat ijtimoiy hayotiga, park madaniyatini yangilash rekreatsion ehtiyojlariga moslashtiradi degan umiddamiz.

Zamonaviy ko'kalamzorlashtirish uzoq tarixdan shakllanib, rivojlanib kelayotgan turli an'ana va uslublarni, landschaft qurilmalari va dizayn

elementlarini o'z ichiga oladi degan fikrlarni yuqorida yozilgan uchinchi bobda aytib o'tdik. Turlicha bo'lgan madaniy–ma'rifiy, iqlimiy, ijtimoiy–iqtisodiy va tarixiy shart–sharoitlar, ya'ni, nomoddiy meros bevosita tarixiy merosdan foydalanilgan zamonaviy bog'–parklarni loyixalashda asosiy tartib va bog' tarkibini shakllantiradi. Bu tartib, an'ana va uslublar loyihalashtirilayotgan bog'–parkning asosiy ma'naviy tarkibi bo'lib, arxitektura g'oyasiga aylanadi. Prezidentimizning "Buyuk ma'naviyat–engilmas kuch" asarlari ushbu g'oyaning etakchisi hisoblanadi. Bir mintaqa hayotiga moslashib, takomillashib, o'zgarib, yangilanib kelayotgan nomoddiy meros: folklor, etnografiya, hunarmandchilik, she'riyat va boshqa ma'naviy boyliklar bilan bog'lik bo'lishi mumkin. Bog'–park loyihalanayotgan hududdagi mahalliy aholining hayot tarzi, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan an'ana, bog' landshaft arxitekturasi echimining tarkibiy asosini shakllantiradi. Atrofida bog' shakllanayotgan nomoddiy meros ob'ekti–bog'ning tarkibidagi barcha jamoat binolari, ochiq muhiti, undagi qurilmalari bilan, shuningdek, sport, dam olish maydonlari, ko'ngilochar zonalar bilan bog'lanib bog'–park ansamblining arxitektura dominantasiga aylanadi. Tarixiy meros bilan bog'lik bo'lgan zamonaviy parklar xalq uchun milliy xotira bo'lgan buyuk tarixiy, madaniy, maishiy, an'anaviy qadriyatlar sharafiga quriladi va ular o'zining milliylik va monumental, tantanali va an'anaviy xususiyati bilan boshqa maxsus parklardan ajralib turadi. Bu kabi bog'–park kompozitsiyasining barchama'naviy vositalari tarixiy va madaniy yodgorlikning g'oyasi va mazmunini ochib berishga yo'naltirilishi lozim. Bunday parklarning me'moriy echimiga xos xususiyatlar–bu asosiy kirish darvozasi, choyxona, milliy raqs maydonchasi, tarixiy muzeyi, o'sha hududning milliy hunarmandchilik buyumlari ustaxonalari, do'konlari, bog'–parkning me'moriy g'oyasi shakllangan tarixiy voqea yoki moddiy boyligi haqida ma'lumot beruvchi elektron monitor.

Tarixiy meros bilan bog'lik bo'lgan zamonaviy parklarda parkka kirish darvozasining me'moriy echimi parkning umumiy me'moriy g'oyasini ifodalaydi. Uni bezashda milliy ruhdagi me'moriy echim tanlanadi. Buni

darvoza elementlaridagi mozayika, mayolika va sirlangan g'ishtlardan foydalanganligida ko'rish mumkin. Lekin buning o'zi etarli emas. Parkning kirish darvozasi bilan birga parkni o'rab olgan devor ham loyihaning ma'naviy asosini ifodalashi kerak. YA'ni, parkning asosiy ma'naviy g'oyasini yoritib beradigan ob'ekt yoki sub'ektning barelef yoki gorelefi va shu haqda qisqa ma'lumot beradigan tavsifnomadan tashkil topgan me'moriy shakl bo'lishi mumkin. Parkning kirish darvozasi va uni o'rab olgan devorning grafik echimi parkning asrlar davomida rivojlanib kelgan an'anaviy muntazam landshaft echimini shakllantiradi. Bunday echim parkning simmetrik va markaziy xarakterga ega hajmiy-fazoviy, rejaviy, badiiy echimi va o'simliklarning ekilishini o'z ichiga oladi.

Parkning barcha xizmat ko'rsatish shaxobchalarini parkning markaziy hududidan nariroqda loyihalash lozim. Bunday xizmatlarga parkning tinch va osoyishta muhitini buzadigan ko'ngil ochar maydonchalar (o'yin va raqs maydoni, amfiteatr binosi va h.z.), umumiy ovqatlanish shaxobchalari, transport aloqalari kirishi mumkin. Park majmuasining me'moriy g'oyasiga aylangan dominanta elementi parkning markazidan joy oladi. YA'ni ushbu element bog' tarkibidagi zonalarini bir-biri bilan bog'lab turgan tugun va umumiy bog' ansamblning "boshqaruvchisi" vazifasini bajaradi.

Masalan, agar ma'naviy merosga asolangan g'oyaning maqsadi muayyan hududda asrlar davomida mahalliy aholi hayotiga uyg'unlashib ketgan folklor-etnografik qo'shiqlarni qayta tiklashga asoslangan bo'lsa, bog'-parkning markaziy dominanta ob'ekti-amfiteatr bo'lishi mumkin. Samarqand viloyati Urgut tumanidagi markaziy bog'ning qayta qurilgan "Beshqarsak" folklor-etnografik bog'ni misol tariqasida ko'rishimiz mumkin.

Ushbu rekonstruksiya loyihasining markaziy simmetrik o'qida amfiteatr binosi joylashtirilgan. Amfiteatrning asosiy vazifasi milliy etnografik ijodiyotni targ'ib qilish bo'lib, bog'dagi boshqa binolar shu mavzu atrofida shakllangan.

Xuddi shunday g'oya asosida shakllagan yana bir bog'-Samarqand viloyati Narpay tumani "Oq tosh" markaziy istirohat bog'idir. "Oq tosh"

bog'ining me'moriy g'oyasi shu hududda asrlar davomida mahalliy aholi orasida og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan rivoyat asosida shakllangan. Rivoyatning tarixi ilk islom davri VI–VII asrlarga borib taqaladi. Ushbu rivoyatga asosan, aholi yashash hududda katta hajmdagi oq rangli tosh bo'lgan, uning kelib chiqishi hech kimga ma'lum bo'lmagan. Aholi zichligi oshib, toshni boshqa joyga ko'chirish ehtiyoji tug'ilganda, uni qaerga olib ketishmasin tosh sirli ravishda o'z joyida paydo bo'lavergan. Mahalliy oqsoqollar tosh ilohiy kuchga ega va u joylashgan joy muqaddas joy bo'lishi mumkin deb, bilib, toshni siljitishmagan. Tub aholi ushbu muqaddas joyda o'z yaqinlarini dafn etishgani natijasida asrlar davomida tosh atrofida qabriston shakllangan. Bugungi kunda bu hudud shu muqqas tosh nomiga “Oq tosh” deb ataladi.

Samarqand viloyati Narpay tumani Oq osh shahri markaziy bog'ining me'moriy-rejaviy, landshaft echimini takomillashtirish loyihasini me'moriy g'oyasini tanlashda yuqorida aytib o'tilgan rivoyat asos qilib tanlandi. Ushbu rivoyatning bugungi kunga qadar xalq orasida tilga olinishi, bu voqea Oq tosh shahri mahalliy aholisi uchun muqaddas qadriyatga aylaganligidan dalolat beradi desak, adashmaymiz. Rekonstruksiya loyihasining me'moriy g'oyasi Oq tosh rivoyatini targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, istirohat bog'ining nomi ham “Oq tosh” deb nomlangan.

Bog'ning bosh darvozasi joylashgan maydonda bog'ning g'oyaviy asosi bo'lgan “Oq tosh” rivoyati yozilgan pano, asosiy kirish darvozasidan cho'zilgan markaziy yo'lda “Oq tosh” ramzi tushirilgan favvora joylashtirilgan. Bog'ning umumiy me'moriy-landshaft kompozitsiyasi echimi shu favvora atrofida shakllangan.

Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani Go'zalkent qo'rg'onida loyihalangan “Ulug'bek yulduzlari” istirohat bog'i buyuk astranom Mirzo Ulug'bek xotirasiga bag'ishlangan.

Bu bog'ning me'moriy dominanta elementi katta bo'lmagan muzey-rasadxona binosi bo'lib, bog'ning bosh davozasidan tortilgan markaziy yo'lda joylashtirilgan. Muzey-observatoriya binosi Mirzo Ulug'bekning ilmiy

faoliyatiga bag‘ishlangan eksponatlardan joy olgan. Muzey–observatoriya tashrif buyuruvchilar Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati, o‘rta asrlarda Ulug‘bek yaratgan astronomiya fanining rivoji va jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar bilan tanishishlari mumkin. Bog‘–parkdagi muzey–observatoriya binosining dominantlik o‘rnini yanada oshirish maqsadida, bosh darvozadan muzey–observatoriya binosigacha tortilgan markaziy yo‘lning ikki yon tomonida favvorali zinapoyalar qatori loyihalangan.

Samarqand viloyati Ishtixon tumani markaziy bog‘i ham shu mavzuni davom etgan holda, “Allomalar bog‘i” deb nomlangan. Bu bog‘ning ma’naviy asosi–yurtimiz tarixida yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasining rivojiga o‘zining tengsiz hissasini qo‘shgan buyuk allomalar tarixidan iborat.

“Allomalar bog‘i”ning me’moriy–landshaft echimining dominanta elementi – tarixiy muzey binosi. Muzey binosining me’moriy–badiiy echimini topishda o‘rta asr islom arxitekturasiga ko‘proq yondashilgan. Bog‘ning bosh darvozasi va bog‘ni o‘rab olgan devorda yurtimiz tarixida eng yorug‘ iz qoldirgan allomalarning baral’eflari tushirilgan panolar bilan bezatilgan. Bosh darvozadan tarixiy–muzey binosigacha bo‘lgan markaziy yo‘lning ikki yon tomonida allomalarning byustlari qo‘yiladigan maydon loyihalangan. Bundan tashqari bog‘ning markaziy hududida axborot monitori uchun maxsus maydon ajratilgan. Bog‘ga tashrif buyuruvchilar ushbu monitorda tarixiy videofilmlar, allomalar hayotiga bag‘ishlangan hujjatli filmlarni tomosha qilishlari mumkin bo‘ladi. YUqorida aytib o‘tilgan elementlar bog‘ning ma’naviy g‘oyasini to‘liq yoritib berishga xizmat qiladigan me’moriy shakllar hisoblanadi.

Zamonaviy bog‘–parklarni loyihalashda tarixiy merosga murojaat qilish O‘zbekistonda istiqlol yillariga qadar shakllanmagan yo‘nalish hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek xalqining buyuk siymolari, tarixiy milliy qahramonlar xotirasiga bag‘ishlangan bog‘–parklar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston landshaft arxitekturasini soxasi uchun mustaqillik evaziga qo‘lga kiritilgan yutuqlardan biridir.

Tarixiy merosni targ'ib qilishga qaratilgan bog'–parklar va xiyobonlarni loyihalashda asosiy e'tibor me'moriy g'oyaga, ya'ni ob'ektining kompozitsiyasiga, yuqorida aytib o'tilgan dominantaga, uning joylashuvi, unga tortilgan bosh hiyobon va uning tugallanish kompozitsiyasiga, fon vazifasini bajaradigan atrof–muhitning ko'kalamzorlashtirilishiga qaratilishi kerak. Bog'–park hududidagi asosiy yo'l–bog'ning dominanta elementi uchun “poki-poyandoz” vazifasini bajarishi kerak. Bu erdagi gulzorlar va maysazorlar, qatorlab ekilgan daraxt va butalar kompozitsiyasi faqat bosh maqsadga–bog'ning asosiy me'moriy g'oyasi va majmuaning mazmuni, uning moddiy va ma'rifiy roli va o'rni to'liq yoritib berishi kerak.

Bunday bog'larda daraxtlarni qirtishlab, ularga bog' mavzusiga mos shakllar berish maqsadga muvofiq. YAKka tartibda–soliter kompozitsiyasida ekilgan manzarali daraxtlar ham bog' kompozitsiyasiga to'g'ri keladi.

Tarixiy merosga asoslangan zamonaviy bog'–parklarda ko'proq O'rta Osiyo bog'–parkchilik san'atiga xos an'anaviy muntazam rejaviy uslub–“CHorbog'” va “Xiyobon” uslubini qo'llash va tekis hududlar tanlash tavsiya qilinadi. Lekin, terassasimon, ya'ni, pag'onali tarzda shakllangan hududlardan ham foydalanish mumkin. Bog'–parkning asosiy xiyobonlariga konus, piramida, ustunsimon ko'rinishdagi o'rta bo'yli, tantanali ko'rinishga ega manzarali daraxtlar, ikkinchi darajali yo'laklarga nisbatan kichikroq, majnuntol shaklidagi daraxtlar tanlash, gulzorlarda esa oq, sariq va qizil ranglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rib turibmizki, tarixiy merosga asoslangan zamonaviy bog'–parklarni loyihalashdagi tarkibning asosiy qismi ma'naviy g'oya–tarixiy nomoddiy meros bo'lib, ikkinchi navbatda gidrogeologik, toposyomka–geodezik ma'lumotlar va texnik sharoitlardan iborat.

Demak, tarixiy merosga asoslangan zamonaviy bog'–parklarni loyihalashda loyiha oldi bosqichidagi ishlarga quyidagilar kiradi:

- tarixiy nomoddiy meros asosida shakllangan bog' g'oyasini tanlash: madaniy–ma'rifiy, iqlimiy, ijtimoiy–iqtisodiy va tarixiy shart–sharoitlar,

turlicha tartib an'ana va uslublar loyixalanayotgan bog'–parkning asosiy ma'nosi bo'lib, arxitektura g'oyasiga aylanadi;

- gidrogeologik sharoitlar: tuproq suvlarining rejimi, botqoqlik mavjudligi, holati va uning joylashishi, mavjud suv havzalarining tavsifi, hududdagi gidrotexnik inshootlar tavsifi, suvning kimyoviy va bakteriologik tahlili, tuproq holati: tuproq tipi, tuproqning farqlanishi va ularning hudud bo'ylab tarqalishi, tuproqning xillik va mexanik tarkibini o'rganish;

- geodezik sharoitlar: toposyomka, unda joy relefining gorizontallari ko'rsatilgan ob'ekt tarhi, suv havzalari, o'simliklar, yo'llar, er osti muxandislik tarmoqlari, hududdagi mavjud bino va inshootlar ko'rsatilgan bo'ladi. Toposyomka maydoni 10 gektargacha bo'lgan ob'ektlar uchun 1:500 masshtabda, 10 gektardan katta ob'ektlar uchun 1:1000 va 1: 2000 masshtabda va juda yirik ob'ektlarga (hududi 100 ga va undan ziyod) 1:2000 yoki 1:5000 masshtabda ishlanadi;

- buyurtmachi ob'ekt uchun hudud ajratilganligi haqidagi hokimlik qaroriga ega bo'lgach, mahalliy arxitektura–rejalashtirish Bosh boshqarmasiga hudud chegarasini ajratib, uni qizil chiziqda belgilab berishi va arxitektura–rejaviy topshiriq ishlab chiqishga buyurtma beradi. Arxitektura–rejaviy topshiriqda ob'ektni loyihalash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar, uning o'lchamlari, chegaralari, mavjud imoratlarni yo'qotish bo'yicha ma'lumotlar, texnik sharoitlar–yaratilayotgan bog' uchun foydalanilishga rejalantirilgan elektr tarmoqlar "nuqtasi", gaz va suv bilan taminlash, kanalizatsiya "nuqtalari", er osti inshootlari va qurilmalarining tarhi, axlat tashlash maydonlari ko'rsatiladi.

Bunday ob'ektlarini loyihalash mavzulari turli–tuman va ko'p qirralidir. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha ikki guruxga bo'lish mumkin:

- landshaft arxitekturasining yangi ob'ektlarini (parklar, bog'lar, skverlar, xiyobonlar) yaratish loyihalari;
- mavjud ob'ektlarni qayta tiklash va ta'mirlash loyihalari.

Loyihalash ishlari 2 qismga: loyiha oldi bosqichi va loyihalash bosqichi jarayonlariga bo‘linadi.

Loyihalash topshirig‘i va me’moriy g‘oyaning ma’no–mavzusidan kelib chiqqan holda, loyiha oldi bosqichida o‘rganiladigan dastlabki materiallar va loyihalash bosqichidagi loyiha ishlarining hajmi, tarkibi va mazmuni aniqlanadi.

O‘zbekiston sharoiti uchun loyihalanayotgan zamonaviy bog‘-parklarga “Aqlli bog”larning fuksiyalarini tadbiq etish.

- barcha o‘rdamchi xonalar va bog‘ hovlisi hududiga kirishni nazorat qilish;
- bog‘ga begonalarning kirgani va harakati haqida qo‘riqlash dispetcher xizmatini zudlik bilan xabardor qilish;
- videoarxiv yaratish va saqlash;
- masofadan turib video serverga va boshqaruv tizimiga kirish;
- buyruqlar va qo‘riqlash tizimini knopkalar orqali bajarish;
- qo‘riqlashga bog‘ning alohida qismlarini qo‘yish, masalan, bunda bog‘ning barcha qismlari qo‘riqlansa, kunduz kuni faqat xo‘jalik zonasi qo‘yilishi mumkin;
- yong‘in havfsizligi–tutun datchiklari va yong‘inga qarshi datchiklar o‘rnatish;
- havfsizlikning tovush shaklini amalga oshirish.

Foydalanishdagi qulaylik quyidagicha vujudga keltiriladi:

- barcha avtomatik tizimni yagona boshqarish markazidan turib va qo‘lda olib yuriladigan pult va panel yordamida boshqarishning imkoniyati;
- tizimning berilgan ssenariyasi va algoritmlari asosida ishlashi, masalan, ko‘chadagi chiroqlarning qorong‘i tushishi bilan avtomatik tarzda yorug‘lik berishi, tizimning har tongda gulzorga suv berishi va hokazolar;
- avtomatik tizim vazifalarini knopkani engil bosish orqali istalgan rejimga tushirish, masalan yorug‘lik kuchini o‘zgartirish, jalyuzlarni

burish, qo‘riqlash tovushlari va qo‘ng‘iroqlarni tovushsiz holatga keltirish, bog‘dagi musiqa ohangini, favvora tizginini pasaytirish yoki ko‘tarish va hokazolar;

Harorat, yorug‘lik, favvoralarni ishga tushirish, ularning kuchi va harakatini o‘zgartirish datchiklarning mavjudligi ularga sarflanadigan energo resurslarni ancha kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Endi chiroqlar va favvora faqat kerak bo‘lgan vaqtlarda va rejimda ishlaydi, xonalarni isitish va bog‘ o‘simliklarni sug‘orish faqat zarur bo‘lgan holatlarda ishga tushadi, energiya va suvli kam sarflab, istalgan samaraga erishiladi.

Jismoniy ta’minot tizimi quyidagicha:

- harakatga keltirish, harorat, namlik, tutun tarqalishi, suv bosishi, yorug‘lantirish, bog‘ga kirish–chiqish, ular bo‘yicha harakatlanishni bildiruvchi datchiklar;
- kontaktsiz indentifikatorlarning hisoblash jihozlari;
- chiroqlar, jalyuzlar, suv va gaz zadvijskalari, eshik qulflari va darvoza, sug‘orishning mini nasoslarini boshqaruvchi modullar va ularning bajaruvchi relslari;
- akustik tizimni boshqaruvchi tizim;
- videokameralar va videodomofonlar;
- interfaol boshqarish pultlari;
- server
- avariya paytining elektr manbai;
- enternet–tizimi tipida simli va simsiz texnologiyalar qo‘llanib qurilgan tizimning barcha jihozlarini birlashtiruvchi tarmoq.

Videokameralar va bajaruvchi qurilmalarning datchiklaridan chiqqan barcha simlar “Aqlli bog‘”ning shimoliy qismida alohida xonachada joylashgan texnologik shkaflar bilan bog‘langan. Ushbu shkaflarda kommutatsiya, ya’ni elektr toki yo‘nalishini o‘zgartirish, o‘zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantirish funksiyalari bajariladi. Bundan tashqari elektrouit yonida joylashgan alohida tashqi shkaflar ham mavjud. Ularga boshqaruv uchun informatsion kabellari

tutashtirilgan. Aqlli bog‘ tizimining barcha simlari kuchsiz tok bilan ishlaydigan informatsion kategoriyaga tegishlidir. Server xonasi ham uzluksiz elektr manbai bilan ta‘minlangan. Aynan u avariya chog‘ida tizimning zarur joylarni tok bilan ta‘minlash imkoniyatiga ega.

Aqlli bog‘ning bosh, asosiy qurilmasi bu, albatta, server hisoblanadi. U barcha datchiklardan signal–xabarlar oladi, tegishli qarorlarni qabul qiladi va ularni bajaruvchi tizim modullari va qurilmalariga buyruq–komanda beradi.

Havfsizlik tizimi alohida “kontrollor”da joylashgan bo‘lib, uning ishlashi server funksiyasiga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Boshqa barcha tizimlar ishi ham shunday, ya‘ni birining ishdan chiqishi yoki yaroqsizligi boshqalarining ishlashiga halaqit bermaydi. Masalan, avariya holatini xabar beruvchi tizim birinchi navbatda asosiy signalga, ya‘ni tarmoqda tok bor yoki yo‘q ekanligiga bo‘ysunsa, faqat ikkinchi navbatda server kommandasiga, ya‘ni avariya chog‘ida qaysi tizimga bo‘ysunadi, masalan, doim qo‘riqlanadigan xonalardagi tokni uzmaydi.

Interfeys ierarxiya, ya‘ni bir xil tizimdagi kichik qurilmalarning shu tizimdagi katta, yirik qurilmalarga bo‘ysunishi tamoyiliga asoslanib ishlangan. Har bir qurilma uchun uning xossalarida qurilmaning adapterdagi tartib raqami va qurilma tipi ko‘rsatilgan. Boshqariladigan qurilmalarni avtomatik boshqaruvdan qo‘lda boshqaruv rejimiga o‘tkazish mumkinki. Uning 3 xil holati mavjud: qurilma o‘chirilgan, qurilma doimiy qo‘shilgan, qurilma biror muddatga vaqtinchalik qo‘shilgan. Agar qurilma biron kun yoki vaqtincha qo‘lda boshqaruvga qo‘shilsa, o‘sha kun yoki vaqtdan so‘ng qurilmaning o‘zi yana avtomatik boshqaruvga o‘tib ungacha belgilangan grafik asosida ishlay boshlaydi. Agar qo‘lda boshqaruv o‘chirilgan holatlar bo‘lsa. Qurilma oldindan tanlangan rejim bo‘yicha, ya‘ni grafik asosidagi ish yoki sutkalik siklidagi ishdan yo haftalik siklidagi ishlar rejimida ishlaydi. Har bir rejim grafik interfeys orqali alohida kiritiladi va belgilanadi. Har bir sutka soatlarga, soat esa 10 minutlik bloklarga bo‘lib chiqiladi. YAshil rang–bu qurilma qo‘shilganini

bildiradi. Sutkani soatlarga, soatlarni esa boklarga ajratish manipulyatordagi “sichqoncha” yordamida amalga oshiriladi.

Havfsizlik tizimining yadrosi bu tekshiruv paneli bo‘lib, u simli va simsiz datchiklar bilan ishlay olish imkoniyatiga ega. U yana qo‘shimcha tarzda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- zanjirlardan boshqarish;
- masofali boshqaruv paneli bilan ishlash (masalan, kirish eshigi oldida parol kiritish yo‘li bilan qo‘riqlash tizimini ishga tushirish yoki o‘chirish;
- telefon tarmog‘i va uyali telefon modeli orqali bir nechta sonlarga qo‘ng‘iroq qilish;
- uzoqdan turib telefon orqali boshqarish;
- kompyuterdan boshqaruv, ya’ni “Aqlli bog”ning serveridan boshqarish;
- tizimning qo‘riqlashga tayyor bo‘lganligi haqida tovushli xabar berish;
- X10 bayonnomasi bo‘yicha ish bajaruvchi qurilmalarni boshqarish (bu, odatda, tizim sezgirligini qo‘shimcha simlar tortmasdan o‘zgartirish imkonini beradi);
- yordamchi kiritilgan akkumlyator yordamida tizimni avtonom funksiyaga o‘tkazish.

“Aqlli bog” umumiy elektron tizimining yadrosi server hisoblanib, u Windows boshqaruvidagi xususiy kompyuter ba’zasiga qurilgan. Server quyidagilarni ta’minlaydi:

- internet bilan aloqa, “Aqlli bog”ning barcha funksiyalaridan uzoqdan turib foydalanish;
- uyali aloqa modemi orqali internet va xo‘jalik bilan bog‘lanish;
- datchiklar va bajaruvchi qurilmalar tarmog‘ining simli va simsiz ishlashini ta’minlash;
- voqealar va videoarxivlar uyasi (ba’zasi)ni yaratish;

- hisoblagichlar bilan ishlash foydalanuvchilarni aniqlab berish va bajaruvchi qurilmalarga ularning ishlash ssenariyalarini kiritish;
- interfaol pultlar va boshqaruv paneli bilan ishlash;
- audio video oqimlar bilan ishlash, ularni interaktiv panellar yoki harakatdagi ssenariyalardan olingan komandalarga mos tarzda qayta yoʻnaltirish.

Videokuzatuv tarkibiga videokameralar, videodomofonlar va video server kiradi. Barcha kameralarning axborotlari alohida videoserverga kelib toʻplanadi va saqlanadi. Videoserver “Aqlli bogʻ”ning asosiy serverining ishlashi bilan bogʻliq boʻlmagan holda alohida ishlaydi va foydalanishga qulay interfeys bilan boshqariladi. Bunda foydalanuvchi quyidagi imkoniyatlarga ega boʻladi:

- videoserverni boshqa kompyuterdan boshqarish imkoniyati (“Aqlli bogʻ” serveri kompyuteridan, yaʼni internet tarmogʻi orqali ham boshqarsa boʻladi);
- video axborotlarni yozish rejimini oʻz xoxishingizga moslab oʻzgartirish, masalan, ekranning biror qismi boʻylab harakatlanish mumkin;
- videoarxivlar yuritish, ularni taxrir qilish;

Datchiklar, hisoblovchilar va komandalarni bajaruvchi qurilmalar “Aqlli bogʻ”ning koʻzi, qulogʻi va qoʻllaridir. Ularning soni, tizimda toʻgʻri joylashtirilgani va ish qobiliyatiga koʻp narsa bogʻliq, yaʼni “Aqlli bogʻ” u yoki bu hodisa va harakatlarni sezgan holda zudlik bilan qabul qiladi va uning ijrosini amalga oshiradi. Buning uchun “Aqlli bogʻ”dagi elektron tizimga quyidagilar yoʻnaltiriladi.

Datchiklar:

- mavjudlikni, yaqinlashish va harakatni sezuvchilar (qoʻriqchilar, ssenariyalar);
- koʻcha chiroqlarining singanini bildiruvchilar (qoʻriqchilar);
- darvoza ochilganini bildiruvchilar (qoʻriqchilar, ssenariyalar);

- harorat, namlik va yorug‘likni ta’minlovchilar (iqlim nazorati);
- hududni suv bosishini, basseynning to‘lganligini, hid tarqalishini sezuvchilar (suv ventillarini boshqarish);
- tutunni sezuvchilar (yong‘in oldini olish);
- tarmoqdagi tok
- kuchlanishini tekshiruvchi (avariya chog‘idagi energiya).

Hisoblagichlar:

- yo‘llardagi radiometkalar (ssenariyalar);
- elektron qulflar.

Bajaruvchi qurilmalar:

- chiroqlar boshqarilishini tekshiruvchilar;
- mavjud elektr simlarini X10 moduli bo‘yicha boshqarish;
- suv va gaz ventillarini boshqaruvchilar;
- simsiz ishlovchi qurilmalar ishini tekshiruvchilar;
- audio–video signallar kommutatorlari;
- gullar va maysazorlarni sug‘oruvchi mo‘‘jaz nasoslar.

Fan va texnikaning o‘sishi bilan bozorda yangi elektron jihozlar va echimlarning vujudga kelishi bizning “Aqlli bog‘”imiz elektron tizimini yanada kengaytirish, takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni yaratishga sharoit tug‘diradi.

3 bob bo'yicha xulosa

1. Fan va texnikaning o'sishi bilan bozorda yangi elektron jihozlar va echimlarning vujudga kelishi sizning "Aqlli bog'"ingiz elektron tizimini yanada kengaytirish, takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni yaratishga sharoit tug'diradi. Masalan, ayrim uy ishlarini bajarish va boshqarish imkoniyati tug'iladi, tizimni tugmachalar va barmoqlar bilan emas, balki, siz (tovush) bilan boshqarish va h.k.

2. Hidroponik usulni respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti va tuprog'ida o'simliklarning o'sishi va qiyin bo'lgan mintaqalari va zonalarida, masalan, Qoraqalpog'iston, Xorazm va Navoiy viloyatlarining tabiiy landshaftini yaratish murakkab bo'lgan tumanlarda qo'llash yaxshi samara berishi mumkin. Bunday tumanlarda suvning tanqisligi, tuproqning sho'rxokligi kabi omillar aynan gidroponik usulni qo'llashni talab qiladi.

3. Hidroponikani ko'chalarda quyosh nuri ostida yoki xonalar intererlarida, qishki bog'lar landshaftini shakllantirishda, xususiy hovli bog'larida qo'llash mumkin. Zamonaviy binolarning intererlaridagi fitodizayn elementlarini ham gidroponikasiz tasavvur qilish qiyin.

4. O'zbekiston sharoiti uchun loyihalananayotgan zamonaviy bog'-parklarga "Aqlli bog'"larning fuksiyalarini tadbiq etish.

- barcha o'rdamchi xonalar va bog' hovlisi hududiga kirishni nazorat qilish;
- bog'ga begonalarining kirgani va harakati haqida qo'riqlash dispetcher xizmatini zudlik bilan xabardor qilish;
- videoarxiv yaratish va saqlash;
- masofadan turib video serverga va boshqaruv tizimiga kirish;
- buyruqlar va qo'riqlash tizimini knopkalar orqali bajarish;
- qo'riqlashga bog'ning alohida qismlarini qo'yish, masalan, bunda bog'ning barcha qismlari qo'riqlansa, kunduz kuni faqat xo'jalik zonasi qo'yilishi mumkin;

- yongʻin havfsizligi–tutun datchiklari va yongʻinga qarshi datchiklar oʻrnatish;
- havfsizlikning tovush shaklini amalga oshirish.

Foydalanishdagi qulaylik quyidagicha vujudga keltiriladi:

- barcha avtomatik tizimni yagona boshqarish markazidan turib va qoʻlda olib yuriladigan pult va panel yordamida boshqarishning imkoniyati;
- tizimning berilgan ssenariyasi va algoritmlari asosida ishlashi, masalan, koʻchadagi chiroqlarning qorongʻi tushishi bilan avtomatik tarzda yorugʻlik berishi, tizimning har tongda gulzorga suv berishi va hokazolar;
- avtomatik tizim vazifalarini knopkani engil bosish orqali istalgan rejimga tushirish, masalan yorugʻlik kuchini oʻzgartirish, jalyuzlarni burish, qoʻriqlash tovushlari va qoʻngʻiroqlarni tovushsiz holatga keltirish, bogʻdagi musiqa ohangini, favvora tizginini pasaytirish yoki koʻtarish va hokazolar;

X U L O S A

1. FunkSIONAL va memoriY-kompozitsion echimiga qarab, Qadimgi Misr bog‘lari uch turga bo‘lingan:

- “xo‘jalik bog‘lari” – jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, maishiy va moddiy sharoitini yaxshilash ehtiyojlariga asoslangan, erkin rejaviy tarzda bo‘lgan;

- “saroy-bog‘lari” – yuqori darajadagi mehmonlar bilan tanishuv marosimi va mehmonlarning dam olib xordiq chiqarishiga mo‘ljallangan. Bu bog‘lar to‘g‘ri burchakli muntazam me‘moriy rejaga ega bo‘lib, ulardagi hovuz va ko‘kalamzorlar asosan to‘g‘ri to‘rtburchakli, simmetrik rejalarda ishlangan;

- “shahar hovlilari va ibodatxonalar bog‘lari” – ular ibodatga kelganlarning ibodatdan keyin dam olib xordiq chikarish uchun hamda ibodatxonaning xo‘jalik ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan. Bu bog‘lar ham yukorida aytib o‘tilgan «saroy-bog‘lari» singari, geometrik tartibli simmetrik kompozitsiya tizimida shakllangan.

2. Qadimgi Messopotamiyaning mashxur bog‘lari:

3) Orollarda va daryo qirg‘oqlarida joylashgan, muntazamlikqa asoslangan «osma bog‘lar»;

4) Simmetriyaga asoslangan, binolar (ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar uylari) qoshidagi yoki hovlilari ichida joylashgan bosh o‘qda hovuz joylashtirilgan bog‘lar.

3. Eronning qadimiy bog‘larida suvga katta ahamiyat berilgan. U hayot manbai va asosiy bezatuvchi element sifatida ishlatilgan. Eron «chorbog‘»larining asosiy g‘oyasi – zardushtiylikning to‘rt elementi: havo, tuproq, suv, va quyosh (nur)ning uyg‘unlashuvida jannat bog‘ini yaratishga qaratilgan. Bog‘lar hududida eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab turli davrlarda binolar, ko‘shklar, devorlar bunyod etilgan, murakkab sug‘orish tizimlari qurilgan. Ular muntazam, qat’iy simmetriyaga asoslangan va markaziy bosh o‘qqa bo‘ysundirilgan kompozitsiya asosida rejalashtirilgan. Bu bog‘lar ko‘proq shoirlar, faylasuflar va olimlar bilan uchrashishga va hukmdorlarning oila a‘zolari bilan hordiq chiqarishga mo‘ljallangan. Qiyalikda joylashgan

pog‘onali bog‘lar esa diplomatik uchrashuvlarga mo‘ljallangan. O‘sha davrlarda ov qilib hordiq chiqarishga mo‘ljallangan, qisman “chorbog”lar bilan biriktirilgan ov bog‘lar “qo‘riqxonalar” ham bo‘lgan.

4. Uch turdagi bog‘-parklar O‘rta Osiyoda islomdan keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi va rivojlantirildi. Temuriylar davri bog‘lari, bizgacha saqlanib qolgan Buxorodagi XIX asr oxiri XX asr boshlarida barpo etilgan Sitorai Mohi-Xosa chorbog‘i va undagi baland chinorlar tagida erkin sayr qilib yurgan tovuqlar va ohular fikrimizning daliliga bir nishonadir.

4. Tarixga nazar solib, bu tushunchalar haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Rus tilida “bog” (сад) – “sajat” – o‘tqazish ma‘nosini beruvchi ildizidan olingan. Haqiqatan ham Rossiya bog‘lari, deb avvaldan o‘simlik ekib etishtiriladigan joylarga aytilgan. “Bog” nomining analogi dunyo tillarining ko‘pchiligida mavjud. “Park” so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, sal boshqacha ma‘noga ega. Inglizlar park so‘zini o‘ralgan er uchastkasi, ov qilish uchun, dam olish va aylanib yurish uchun, qishloq xo‘jaligi jixozlarini saqlash va boshqalar uchun ishlatishadi. Zamonaviy rus tilida bog‘ – va park tushunchalari bir – biriga yaqin, ammo “park” so‘zi ancha keng ahamiyatga ega, Parklar bog‘dan kattaroq bo‘lib, bog‘dagi o‘simlik o‘tqazib, o‘stirishdan ko‘ra kengroq funksiyalarni bajaradi.

5. Mazkur yuz yillik bog‘ – park san‘ati xarakteridagi eng murakkab masala – bu uning uslubiy (stilistik) yo‘nalishidir. avvalambor bog‘ qaysi shahar yoki mamlakatda yaratilgan bo‘lmasin, muallifning ijodiy ishidir. Albatta aniq bir davr va rejalashtirish an‘analari, o‘simlik aranjirovkasi, turli bog‘ – park yaratish san‘ati uslublari haqida qandaydir umumiyliklar topish mumkin. Ma‘lumki XIX asr o‘rtasidan XX asr oxirigacha bog‘ – park san‘ati uyg‘onish, barokko va klasitsizm kabi estetik konsepsiyalarni olg‘a surdi. XIX asr oxirida aniq ajratilgan stilistik yo‘nalish “modern” arxitekturasini turdoshi yaqqol ajralib turardi.

6. Ko‘p funksiyali (yoki polufunksional) parklarni ham, ko‘pincha, madaniyat va istirohat parklari sifatida ma‘lum bo‘lgan parklarni alohida qayd

etish lozim. ular oʻzida dam olish, ekspozitsion, sport, koʻngilochar va boshqa funksiyalarni mujassam etib, ochiq osmon ostidagi yirik klub sifatiga egadirlar

5. Fan va texnikaning oʻsishi bilan bozorda yangi elektron jihozlar va echimlarning vujudga kelishi sizning “Aqlli bogʻ”ingiz elektron tizimini yanada kengaytirish, takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni yaratishga sharoit tugʻdiradi. Masalan, ayrim uy ishlarini bajarish va boshqarish imkoniyati tugʻiladi, tizimni tugmachalar va barmoqlar bilan emas, balki, siz (tovush) bilan boshqarish va h.k.

6. Hidroponik usulni respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti va tuprogʻida oʻsimliklarning oʻsishi va qiyin boʻlgan mintaqalari va zonalarida, masalan, Qoraqalpogʻiston, Xorazm va Navoiy viloyatlarining tabiiy landshaftini yaratish murakkab boʻlgan tumanlarida qoʻllash yaxshi samara berishi mumkin. Bunday tumanlarda suvning tanqisligi, tuproqning shoʻrxokligi kabi omillar aynan gidroponik usulni qoʻllashni talab qiladi.

7. Hidroponikani koʻchalarda quyosh nuri ostida yoki xonalar intererlarida, qishki bogʻlar landshaftini shakllantirishda, xususiy hovli bogʻlarida qoʻllash mumkin. Zamonaviy binolarning intererlaridagi fitodizayn elementlarini ham gidroponikasiz tasavvur qilish qiyin.

8. Oʻzbekiston sharoiti uchun loyihalananayotgan zamonaviy bogʻ-parklarga “Aqlli bogʻ”larning fuksiyalarini tadbiq etish.

- barcha oʻrdamchi xonalar va bogʻ hovlisi hududiga kirishni nazorat qilish;
- bogʻga begonalarining kirgani va harakati haqida qoʻriqlash dispetcher xizmatini zudlik bilan xabardor qilish;
- videoarxiv yaratish va saqlash;
- masofadan turib video serverga va boshqaruv tizimiga kirish;
- buyruqlar va qoʻriqlash tizimini knopkalar orqali bajarish;
- qoʻriqlashga bogʻning alohida qismlarini qoʻyish, masalan, bunda bogʻning barcha qismlari qoʻriqlansa, kunduz kuni faqat xoʻjalik zonasi qoʻyilishi mumkin;

- yongʻin havfsizligi–tutun datchiklari va yongʻinga qarshi datchiklar oʻrnatish;
- havfsizlikning tovush shaklini amalga oshirish.

Foydalanishdagi qulaylik quyidagicha vujudga keltiriladi:

- barcha avtomatik tizimni yagona boshqarish markazidan turib va qoʻlda olib yuriladigan pult va panel yordamida boshqarishning imkoniyati;
- tizimning berilgan ssenariyasi va algoritmlari asosida ishlashi, masalan, koʻchadagi chiroqlarning qorongʻi tushishi bilan avtomatik tarzda yorugʻlik berishi, tizimning har tongda gulzorga suv berishi va hokazolar;
 - avtomatik tizim vazifalarini knopkani engil bosish orqali istalgan rejimga tushirish, masalan yorugʻlik kuchini oʻzgartirish, jalyuzlarni burish, qoʻriqlash tovushlari va qoʻngʻiroqlarni tovushsiz holatga keltirish, bogʻdagi musiqa ohangini, favvora tizginini pasaytirish yoki koʻtarish va hokazolar;

Foydalanilgan adabiyotlar

RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining dasturi

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi”.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

2. Karimov I.A. "O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "O‘zbekiston" nashriyoti, Toshkent, 2013 yil, 430 bet.
3. Karimov. I.A. "YUksak ma’naviyat - engilmas kuch", "Ma’naviyat" nashriyoti, Toshkent, 2008 yil, 173 bet.

III. Asosiy adabiyotlar

(kitob, o‘quv qo‘llanmalar)

4. Alimov O‘. “O‘rta asrlarda Movarounahrda bog‘chilik xo‘jaligi tarixi”.– Toshkent: “Fan”, 1984
5. Axmedov M.Q. “O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi”, “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent, 1995, 55-60 varaq.
6. Isamuhamedova D.U., Adilova L.A. “Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini” –Toshkent.: “Cho‘lpon” 2009
7. Nazilov D.A. “Chorbog’”-Toshkent.: 1997
8. Rahimov K.D., O‘rolov A.S., “SHarq mamlakatlarining bog‘-park”, “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti, Toshkent, 2013.
9. Raximov K.D., Elmurodov B. “Landshaftnoye zodchestvo Sredney Azii” Samarqand.: SamDAQI. 2008
10. Zaxiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “YUlduzcha” nashriyoti, Toshkent, 1990.

11. Zoxidov P. Me'mor olami. – Toshkent: “Fan”, 1996.
12. O'ralov A.S., Ojegov S.S., Raximov K.D. “Landshaft arxitekturasini va dizayn” o'quv qo'llanma, Samarqand, 2003 yil.
13. Vergunov, A.P. Landshaftnoe proektirovanie: ucheb. posobie dlya vuzov Tekst. / A. P. Vergunov, M. F. Denisov, S. S. Ojegov. M.: Vyssh. shk., 1991.
14. Gidion Z. Prostranstvo, vremya, arhitektura Tekst. / Z. Gidion; sokr. per. s nem. M. V. Leonene, I. Ji. CHernya; nauch. red. i predisl. D. G. Kopelyanskogo. -M.: Stroyizdat, 1973.
15. Efimov, A.V. Dizayn arxitekturnoy sredy: ucheb. dlya vuzov Tekst. / A. V. Efimov [i dr.]. — M.: Arhitektura-S, 2006.
16. Mikulina E.M. Ispolzovanie istoricheskix landshaftov dlya otдыха Tekst. / E. M. Mikulina I., V. Barsova, V. V. Baulina. M.: Znanie, 1975.
17. Nefedov V.A. Landshaftnyy dizayn i ustoychivost sredy Tekst. / V. A. Nefyodov. SPb.: Poligrafist, 2002.
18. Sycheva A.V. Landshaftnaya arhitektura Tekst.: ucheb. posobie dlya vuzov / A. V. Sychyova. 3-e izd., ispr. - M.: Oniks, 2006. — 87s.: il.

(ilmiy jurnallar)

19. Fayzullaeva N.N. “Mustaqillik yillarida Buxoro shahrining bog'-park san'atida erishgan yutuqlari”// “O'zbekiston shaharsozlik va landshaft arxitekturasini rivojlantirishning dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Samarqand, 24-25 may, 2013.
20. Tursunov S. SHarqona bog'-xiyobon san'ati.-// “Moziydan sado” jurnali. 2006 y. №3. 24-27 betlar.

(dissertatsiyalar)


21. Mamatmusaev T., “Ulug'bek davri arxitekturasini” kandidatlik dissertatsiyasi, TAQI, Toshkent, 2013.

IV. Internet saytlari

22. <http://www.ziyounet.uz> (O'zbekiston Matbuot axborot agentligi)

23.[http://www. google.uz](http://www.google.uz). (O‘zbekiston milliy qidiruv tizimi)

24.[http://www uza.uz](http://www.uza.uz) (O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi)



1-rasm. Nil vohasi sohilida qurilgan Misr zodagonining saroy bog‘i.

Fivadagi qabrlarning birida ishlangan barelefdan ko‘chirma.



2-rasm. Mesopotomiyada pog‘onasimon ehrom bog‘larining grafik
rekonstruksiyalari tarzda shakllangan.



3-Eron bog'lariga na'muna



4-rasm. Aqlli mo'jazz hovli va tom usti bog'larining ko'rinishi



5-rasm. Zamonaviy arxitektura va aqlli bog'lar mushtarakligidagi ijodiy yo'nalish namunasi



6-rasm. Tizimga havoni azonlashtiruvchi va shamollatuvchi funksiyalarning kiritilishi



7-rasm. Hidroponik poliz o'simliklari ildizlarining ko'rinishi



8-rasm. Hidroponik usulda o'simliklarni ekish texnologiyasi



9–rasm. Hidroponik usulda o‘stirilgan gullovchi o‘simliklar



10–rasm. Hidroponik usulda o‘stirilgan gullar chamanzori

MUNDARIJA

Kirish

1 Bob. Qadimgi va o`rta asr davlatlarining bog`-park

san`ati.....7

1. Misrning qadimgi bog`-park

san`ati.....7

2. Mesopotamiyaning qadimgi bog`-

parklari.....11

3. Eronning qadimgi

bog`lari.....15

4. Turonning qadimgi

bog`lari.....19

1 bob bo'yicha

xulosa.....

24

2 Bob. Zamonaviy bog` park san'atining jahon

tajribasi.....26

1. Evropa zamonaviy

bog`lari.....26

2. Amerika zamonaviy

bog`lari.....36

3. Rossiya zamonaviy bog`lari va

parklari.....47

2 bob bo'yicha

xulosa.....

51

3 Bob. O'zbekistonda Aqlli bog`-parklarning tadbiq etish

yo'llari.....52

1. Aqlli bog`larning funksiyasi va obodonlashtirish

tizimi.....52

2. Hidroponik

bog`lar.....62

3. Zamonaviy O'zbekiston bog` – park san'atida Aqlli bog`-parklarning

tadbiq etish	
usullari.....	65
3 bob bo'yicha	
xulosa.....	
81	
Xulosa.....	
83	
Foydalanilgan	
adabiyotlar.....	87
Ilova.....	
90	